

65-2686-9073
X-22

XALQARO VALYUTA- KREDIT MUNOSABATLARI II-QISM



65 2586-4843
X 22

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

**XALQARO VALYUTA-
KREDIT
MUNOSABATLARI**

II-qism

*O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus
ta‘lim vazirligi tomonidan darslik
sifatida tavsiya etilgan*

**TOSHKENT
“IQTISOD-MOLIYA”
2020**

UO‘K 336.744(075.8)

KBK 65.2686ya73

If.d., prof. N.X. Jumaevning umumiy tahriri ostida

Taqrizchilar: *PhD. Z. Mamadiyarov;*

PhD. I. Jurayev

X22 Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari: Darslik / J.X.Ataniyazov, R.R.Tojiyev, E.D.Alimardonov, M.A.Mirzayev; II-qism. – T.: «Iqtisod-Moliya», – 160 b.

Darslikda “Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari” fanining asosiy masalalari qisqa va tushunarli tilda bayon etilgan.

Ushbu darslikda joriy va spot valyuta operatsiyalarining mohiyati, ularning amalga oshirish shakllari, kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi, forvard valyuta operatsiyasining mohiyati va uning boshqa operatsiyalardan farqli jihatlari, fyuchers valyuta operatsiyasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari, opsiyon valyuta shartnomalarining turlari va shakllari, valyutaviy svop operatsiyasining mohiyati hamda asosiy jihatlari, naqd pul (valyuta) o‘tkazmalari tizimi va uning turlari, xalqaro to‘lov kartalari va ulardan foydalanish tartibi, xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv, inkasso shakli, xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov topshiriqnomasi va cheklardan foydalanish, to‘lov balansining mazmuni va tarkibi, to‘lov balansini tartibga solishning asosiy usullari kabi masalalar yoritilgan.

Darslik oliy o‘quv yurtlarining iqtisodiy yo‘nalishida tahsil olayotgan talabalarga, ilmiy izlanuvchilarga hamda mazkur fanni o‘qitadigan professor-o‘qituvchilarga mo‘ljallangan.

UO‘K 336.744(075.8)

KBK 65.2686ya73

ISBN 978-9943-13-904-6

© J.X.Ataniyazov, R.R.Tojiyev,

E.D.Alimardonov, M.A.Mirzayev, 2020

© “IQTISOD-MOLIYA”, 2020

KIRISH

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi sharoitida milliy iqtisodiyot barqarorligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish, milliy ishlab chiqaruvchilarning jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallashi hamda mamlakatning jahon moliya tizimiga integratsiyalashuvni kuchaytirishda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini barqaror rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish va diversifikatsiya qilishni, shuningdek, hududlar va tarmoqlarni rivojlantirish uyg'unligini ta'minlash maqsadida ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish, eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarishni rag'batlantirishga qaratilgan sanoat siyosatini amalga oshirish, shuningdek, respublika hududlari va xorijiy davlatlar o'rtasidagi moliyaviy-iqtisodiy hamkorlik munosabatlarini kengaytirish, valyuta bozorini liberallashtirish, barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, sanoat salohiyatini mustahkamlash va hududlarni kompleks rivojlantirish maqsadida xorijiy kapitalni keng jalb etishga qaratilgan islohotlar izchillik bilan amalga oshirilmogda. Mazkur masalalarni ijobiy hal qilishda mamlakatning xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi ishtiroki muhim o'rin tutadi.

"Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fani ixtisoslik fanlaridan biri bo'lib, iqtisodiy yo'nalishlar bo'yicha ta'lim olayotgan talabalarga mo'ljallangan. Mazkur darslik oliy ta'limning bakalavriat bosqichida o'qitiladigan "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanining o'quv dasturiga muvofiq tarzda yozilgan. Darslikdan amaliyotchi-mutaxassislar, ilmiy izlanuvchilar va mazkur sohaga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

Darslikning asosiy maqsadi moliyaviy globallashuv sharoitida xalqaro valyuta-kredit munosabatlarida yuzaga keladigan jarayonlarni o'rganish hamda xalqaro valyuta-kredit munosabatlarini rivojlantirish istiqbollari yuzasidan talabalarda tegishli nazariy fikr va taassurotlarni hosil qilish, amaliy ko'nikma va bilimlarni shakllantirishdan iboratdir.

Ushbu darslikda joriy va spot valyuta operatsiyalarining mohiyati, ularning amalga oshirish shakllari, kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi, forvard valyuta operatsiyasining mohiyati va uning boshqa operatsiyalardan farqli jihatlari, turlari, fyuchers valyuta operatsiyasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari, opsiyon valyuta shartnomalarining turlari, shakllari va huquqiy asoslari, valyutaviy svop operatsiyasining mohiyati hamda asosiy jihatlari, naqd pul (valyuta) o'tkazmalari tizimi va uning turlari, xalqaro to'lov kartalari va ulardan foydalanish tartibi, xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv, inkasso shakli, xalqaro hisob-kitoblarda to'lov topshirqnomasi va cheklardan foydalanish, to'lov balansining mazmuni va tarkibi, to'lov balansini tartibga solishning asosiy usullari kabi masalalar bayon qilingan.

Ushbu "Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari" fanini chuqur o'rganish orqali talabalar mamlakatimizning xalqaro valyuta-kredit munosabatlaridagi ishtirokini faollashtirish, mamlakatimiz iqtisodiyoti tarmoqlari va hududlariga xorijiy sarmoyalarni faol jalb etish, yetakchi xalqaro va xorijiy moliyaviy institutlar bilan aloqalarni kengaytirish, valyuta operatsiyalari va xalqaro hisob-kitoblarni samarali tashkil etish, mamlakat to'lov balansini boshqarish borasida tegishli nazariy bilimlar va amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishadi. Shu bilan birgalikda, mazkur fanni o'qitish iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlarni samarali tarzda amalga oshirishga qaratilgan mutaxassis kadrlarni tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Ushbu darslikni yanada takomillashtirish yuzasidan bildiriladigan fikr-mulohazalar uning yanada takomillashuviga xizmat qiladi. Shu boisdan, bildirilgan taklif va mulohazalar uchun muallif oldindan o'z minnatdorchiligini izhor etadi.

1-BOB. JORIY VA SPOT VALYUTA OPERATSIYALARI

1.1. Xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi va uning asosiy funksiyalari.

1.2. Joriy valyuta operatsiyalarining mohiyati va tasnifi.

1.3. Spot valyuta operatsiyalarining mohiyati va amalga oshirish xususiyatlari.

1.4. Valyuta mavqeining mohiyati va turlari.

1.5. Spot shartlari asosida kross-kurslarni hisoblash.

1.1. Xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi va uning asosiy funksiyalari

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar, shuningdek xalqaro moliya bozori va xalqaro moliya tizimida valyutalarning harakati bilan bog'liq holda yuzaga keladi. Xalqaro valyuta munosabatlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimida valyuta mablag'larining muomalasi jarayonida hosil bo'luvchi ijtimoiy munosabatlar majmuasini o'zida ifodalaydi. Xalqaro valyuta munosabatlari zamonaviy iqtisodiyot sharoitida valyuta bozorida faqat valyutalarning oldi-sotdi operatsiyalari bilan cheklanmaydi. Xalqaro valyuta munosabatlarini xalqaro moliya bozori va jahon xo'jaligida valyutalarning harakati jarayonida yuzaga keluvchi moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi sifatida ta'riflash mumkin. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlar (jahon iqtisodiyoti, tashqi iqtisodiy faoliyat, xalqaro tadbirkorlik, investitsion hamkorlik, xalqaro logistika va boshqalar), shuningdek xalqaro moliya munosabatlari (bank, kredit, to'lov-hisob-kitob, sug'urta, fond, xalqaro moliya bozoridagi operatsiyalar va boshqalar) kabilarni amalga oshirishda namoyon bo'ladi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining obyeksi sifatida xorijiy va milliy valyutalar namoyon bo'ladi. Biroq valyutalar jahon moliya bozorining muhim tovari sifatida uning boshqa tovarlari bilan o'zaro

aloqador va bog‘liqdir. Shu boisdan valyuta munosabatlarining obykti bo‘lib oldi-sotdi obykti sifatida global moliya bozorida mavjud bo‘lgan barcha mahsulotlar, jumladan derivativlar bo‘lishi mumkin.

Xalqaro valyuta munosabatlari nafaqat jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimida, balki xalqaro ijtimoiy va madaniy jarayonlarda ham namoyon bo‘ladi. Shu sababli keng ma‘noda valyuta munosabatlarining obykti bo‘lib valyutalar va hosilaviy valyuta instrumentlari hisoblanadi hamda ular xalqaro moliya bozorining valyuta sektoridagi operatsiyalarda qo‘llaniladi. Biroq, xalqaro moliya bozorining barcha sektorlari o‘zaro aloqadorligi va bog‘liqligi tufayli xalqaro valyuta operatsiyalari barcha sektorlarga, shuningdek xalqaro moliya bozorining barcha mahsulot va xizmatlarini amalga oshirishga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Shunday qilib, zamonaviy xalqaro valyuta munosabatlarining obykti sifatida xalqaro moliya bozorining valyuta shaklidagi barcha moliyaviy mahsulotlari va xizmatlari namoyon bo‘ladi.

Valyuta munosabatlarining faoliyat ko‘rsatish sohasi pul munosabatlarinikiga nisbatan tor hisoblanadi, shunga muvofiq valyuta munosabatlari tashqi iqtisodiy aylanma, xalqaro moliya bozori va xalqaro ijtimoiy-madaniy aloqalar bilan cheklanadi. Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro moliyaviy-iqtisodiy munosabatlarning muhim tarkibiy qismi bo‘lib o‘zida jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya bozorida pul munosabatlarini ifodalaydi. Ular xalqaro iqtisodiy munosabatlarning boshqa bo‘g‘inlari, jumladan, xalqaro savdo, mehnat taqsimoti, ishlab chiqarish omillarining baynalminallashuvi, iqtisodiy integratsiya, mehnat resurslarining migratsiyasi bilan o‘zaro aloqador hisoblanadi. Valyuta munosabatlari obyektiv xususiyatga ega bo‘lgan holda iqtisodiy qonuniyatlarga bo‘ysunadi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishi jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar rivojlanishi natijasini o‘zida ifodalaydi. Birinchidan, xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga xalqaro ishlab chiqarishning rivojlanishi, jahon iqtisodiyotining yuzaga kelishi, mahsulot va xizmatlar jahon bozorining tashkil topishi, xalqaro iqtisodiy munosabatlarning globallashuvi sabab bo‘ldi. Ikkinchidan, xalqaro

valyuta munosabatlarining rivojlanishi ularning moddiy ishlab chiqarish sohasiga, shuningdek taqsimlash, ayirboshlash va iste'mol sohasiga tegishli bo'lgan xalqaro iqtisodiy munosabatlarga xizmat ko'rsatishi bilan bog'liqdir. Bir so'z bilan aytganda, xalqaro valyuta munosabatlari alohida milliy iqtisodiyotlar doirasidan jahon iqtisodiyotiga chiquvchi takror ishlab chiqarish jarayonlariga xizmat qiladi. Valyuta munosabatlari va takror ishlab chiqarish jarayonlari o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va teskari aloqa mavjud, shuningdek ular o'zaro aloqador va bog'liq hisoblanadi. Birinchidan, valyuta munosabatlarida ijtimoiy takror ishlab chiqarish jarayoni shakllanadi va kapital, ishchi kuchi, mahsulot va xizmatlarning xalqaro ayirboshlash jarayoni sodir bo'lishi natijasida yuzaga keladi. Ikkinchidan, xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish darajasi jahon iqtisodiyoti va milliy iqtisodiyotlarning rivojlanish darajasiga, mintaqalar, mamlakatlar guruhi va mamlakatlar o'rtasidagi kuchlar nisbatiga bog'liq bo'ladi. Uchinchidan, xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy va moliyaviy munosabatlarning muhim qismi bo'lib hisoblanadi. Umuman olganda xalqaro valyuta munosabatlari bir qator o'zaro aloqador omillar tuzilishi ostida shakllanadi va faoliyat ko'rsatadi, bu omillarga jahon iqtisodiyoti, jahon siyosati, diplomatiya va tijorat, sanoat ishlab chiqarishi va savdo kabilar kiradi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining tarixiy rivojlanishi jarayonida valyuta shaklidagi pul oqimlari harakati tizimi bilan doimo aloqadorlik bo'lgan. Xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi uchun asosan ikkita shart zarur bo'lgan¹:

– xalqaro iqtisodiy munosabatlarda yirik hajmdagi doimiy pul oqimlari va xalqaro darajada pul munosabatlari rivojlanishining yuqori darajasi;

– pulning jahon puli sifatidagi funksiyasi shakllanishining tugallanishi.

Xalqaro valyuta munosabatlari o'zida xalqaro moliya bozori, jahon moliya tizimi va jahon xo'jaligi ishtirokchilarining qarorlariga muvofiq

¹ Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. М.: КноРус, 2020. 542 с.

xorijiy valyutalar harakati jarayonlarini tavsiflovchi fundamental iqtisodiy kategoriyani namoyon etadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari moddiy ishlab chiqarish sohasiga hamda jahon yalpi ichki mahsulotini taqsimlash, qayta taqsimlash va iste'mol qilish sohalariga xizmat qiladi. Jahon takror ishlab chiqarish jarayonlari va jahon moliyasi o'rtasida to'g'ridan to'g'ri va teskari aloqa mavjud.

Shunday qilib, xalqaro iqtisodiy munosabatlarda valyuta oqimlari harakati ham moddiy ishlab chiqarish sohasiga, ham taqsimlash, qayta taqsimlash, ayirboshiash va iste'mol sohalariga tegishli bo'ladi.

Xalqaro valyuta munosabatlari shakllanishining ikkita manbasini ajratib ko'rsatish mumkin²:

- xalqaro munosabatlar subyektlarining o'z valyuta mablag'lari;
- qarz valyuta mablag'lari (xalqaro moliya bozorida).

Xalqaro valyuta munosabatlari valyuta oqimlarining harakati sifatida xalqaro moliya bozori va jahon xo'jaligining barcha subyektlari manfaat va ehtiyojlarini qondirishni ta'minlaydi. Valyuta-moliya oqimlari harakati jarayonida to'rtta bosqich ajratib ko'rsatiladi: shakllantirish, taqsimlash, qayta taqsimlash hamda foydalanish. Valyuta oqimlarini shakllantirish jahon bozorida mahsulot va xizmatlarni sotishdan iqtisodiy subyektlarning valyuta tushumlari ko'rimishda amalga oshadi. Valyuta tushumlari ishlab chiqarish omillariga bo'lgan xarajatlarga muvofiq ravishda taqsimlanadi. Birlamchi taqsimlashdan keyin valyuta oqimlarini qayta taqsimlash jarayoni boshlanadi: yuridik va jismoniy shaxslarning valyuta ko'rinishidagi daromadlaridan, davlatlarning milliy byudjetlaridan turli xalqaro tashkilot va fondlarga bo'naklar shaklida. Valyuta oqimlari harakatining yakuniy bosqichi oxirgi foydalanish hisoblanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanishi jahon siyosiy va iqtisodiy rivojlanish jarayonlarining barcha majmualariga sabab bo'ladi va mazkur jarayonlarning barcha jihatlariga ta'sir ko'rsatadi. Shu boisdan xalqaro valyuta munosabatlariga nisbatan "gipertizim" atamasi qo'llaniladi, chunki ular birmuncha yuqori darajadagi tuzilmani o'zida

² Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. М.: КноРус, 2020. 542 с.

namoyon etgan holda milliy valyuta-moliya tizimlarining xalqaro darajada o'zaro aloqadorlik va bog'liqligini tavsiflaydi. Xalqaro valyuta munosabatlari jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimidagi o'zgarishlar ta'siri natijasida rivojlanib boradi. Shu sababli jahon moliyaviy muhitida yuzaga keluvchi har qanday holat xalqaro valyuta munosabatlarining rivojlanish dinamikasiga o'zining muayyan darajadagi ta'sirini o'tkazadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari nafaqat iqtisodiy, balki me'yoriy-huquqiy munosabatlarni o'zida ifodalaydi. Xalqaro va milliy yuridik normalar, tartib va qoidalar xalqaro valyuta munosabatlari harakatining barcha jarayonlarini tartibga soladi.

Xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro savdo bilan o'zaro aloqador hisoblanadi. Bir tomondan xalqaro valyuta munosabatlari unga ta'sir ko'rsatadi, boshqa tomondan esa unga bog'liq bo'ladi. Xalqaro mehnat taqsimoti va xalqaro turizm munosabatlarini amalga oshirishda xalqaro valyuta munosabatlari muhim rol o'ynaydi. Shuningdek, yagona valyuta hududini tashkil etmasdan to'liq iqtisodiy integratsiyaga erishish mumkin emas. Qulay valyuta munosabatlarisiz milliy mahsulot va moliya bozorlarini birlashtirish muvaffaqiyatli bo'lmaydi. Xalqaro kredit va sug'urta munosabatlarini samarali tashkil etishda ham valyuta munosabatlarining o'рни muhimdir. Umuman olganda, valyuta munosabatlarining barqarorligi mamlakat moliya va pul-kredit tizimiga bo'lgan ishonchning ortishiga olib keladi hamda tashqi iqtisodiy faoliyatni samarali tashkil etish uchun qulay sharoit yaratadi.

Xalqaro valyuta munosabatlariga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri bo'lib jahon valyuta bozorida valyutalar savdosi yillik hajmining o'zgarishi hisoblanadi. Xalqaro valyuta munosabatlari ishtirokchilari spekulyativ valyuta operatsiyalari hisobiga yuqori daromad oladilar, lekin real iqtisodiyotning faoliyat ko'rsatish tamoyillari e'tiborga olinmaydi. Bu esa valyuta munosabatlarini real iqtisodiy jarayonlardan ajratgan holda davriy valyuta inqirozlari uchun obyektiv asoslarni yuzaga keltiradi.³


³ Красавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2016. 543 с.

Spekulyativ valyuta oqimlarining yirik hajmda transchegaraviy ko'chishi real iqtisodiyotga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan, valyutalar bilan bog'liq spekulyativ operatsiyalardan yuqori va tez fursatdagi daromad ularni jahon valyuta bozorida doimiy ko'chib yuruvchi "issiq" pullar (qisqa muddatli kapitallar) massasiga aylantirgan holda kapitalni uzoq muddatli investitsiyalashni cheklaydi. Ikkinchidan, bank qisqa muddatli kreditlariga valyuta spekulyantlarining yuqori talabi foiz stavkalari darajasini oshiradi, bu esa mahsulot ishlab chiqaruvchilar uchun kredit olishga bo'lgan imkoniyatni pasaytiradi. Uchinchidan, spekulyativ kapitallar nafaqat iqtisodiyotni beqarorlashtiradi, balki valyuta kurslari dinamikasida ham noaniqlikni yuzaga keltiradi. Bu holat, valyuta kurslarining keskin tebranishiga va natijada milliy iqtisodiyotda inqirozli holatlarning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun xalqaro valyuta munosabatlari xalqaro iqtisodiy munosabatlarning yuqori daromadli va harakatchan sohasini o'zida ifodalaydi, shu bilan birgalikda yuqori riskli hisoblanadi. Ular o'zida real iqtisodiy munosabatlarning muhim bo'g'inini ifodalasa ham hajm jihatdan o'n marotaba yirik hisoblanadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari holatining nazoratdan chetda qolishi mamlakatga milliy pul birligi valyuta ta'minotining pasayishi orqali salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu boisdan har bir mamlakatning xalqaro valyuta munosabatlarida oqilona ishtirok etishi zarurdir.

Xalqaro valyuta munosabatlari tartibga solinishi lozim. Valyuta munosabatlarini tartibga solish – bu davlatning milliy valyuta, valyuta kursi va to'lov balansi barqarorligini ta'minlash bo'yicha faoliyatidir. Xalqaro valyuta munosabatlarini tartibga solish xalqaro hisob-kitoblar va to'lov tizimlarini aniqlash, xalqaro moliya-kredit instrumentlaridan, valyuta kursi rejimlaridan foydalanish, milliy valyuta bozori va oltin bozorining faoliyat ko'rsatishi, milliy valyutalarning konvertirlanish shartlari, valyuta cheklovlari va valyuta nazorati tartiblarini belgilash, xalqaro valyuta likvidligini (to'lov va hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun yetarli miqdorda valyuta mablag'larining xalqaro valyuta aylanmasida mavjudligi) tartibga solish kabilarni ko'zda tutadi.

Xalqaro valyuta munosabatlari strategiya, taktika va nazoratning qo'shilishi asosida faoliyat ko'rsatadi.



1-rasm. Xalqaro valyuta munosabatlari harakatining asosiy yo'nalishlari

Xalqaro valyuta munosabatlarning holati jahon iqtisodiyoti rivojlanishiga doimo bog'liq bo'ladi. Kapitalning doiraviy aylanishi jarayonida jahon xo'jaligiga qo'shilish xalqaro valyuta, kredit, to'lov-hisob-kitob, fond, investitsiya, sug'urta va boshqa moliyaviy operatsiyalarni o'tkazishda pul kapitalining bir qismini milliy puldan xorijiy valyutaga o'zgarishini anglatadi.

1990-yillar boshida jahon iqtisodiyoti va xalqaro valyuta munosabatlarida fundamental o'zgarishlar sodir bo'ldi. Axborot texnologiyalarining rivojlanishi real vaqt rejimida valyuta savdosi va kapitalning transchegaraviy ko'chishi hajmlarini uzluksiz oshishini ta'minlovchi yangi elektron to'lov tizimlarini paydo bo'lishiga olib keldi. Texnologik jihatdan rivojlanishning keyingi bosqichlarida bu jarayon moliyaviy sohada kapital harakatining jadallashuviga hamda xarajatlarning qisqarishiga ta'sir ko'rsatdi. Moliyaviy globallashtirish natijasida xalqaro valyuta munosabatlarning barcha ishtirokchilari o'z faoliyatida zamonaviy to'lov tizimlaridan foydalanish, milliy standartlarni o'zaro kelishgan holda uyg'unlashtirish, nazorat tizimlarini takomillashtirishga erishdi.

Xalqaro valyuta munosabatlarning erkinlashtirilishi jahon moliya bozorida moliyaviy instrumentlarni ishlab chiqish bilan bog'liq

tuzilmaviy o'zgarishlarga olib keldi. Murakkab tuzilmaviy moliyaviy mahsulotlarning chiqarilishi va ularni xalqaro savdoning predmetiga aylanishi natijasida bank-kredit, sug'urta, fond, tovar va ipoteka bozorlaridagi operatsiyalar bilan valyuta operatsiyalari kuchli bog'liqlikka ega bo'ldi. Global valyuta oqimlari asta-sekin mustaqillik xususiyatiga ega bo'ldi, shuningdek ularning harakati ishlab chiqarishning real sektoridan tashqarida sodir bo'la boshladi. Global valyuta oqimlarining spekuliyativ operatsiyalarda o'sib borayotgan ishtiroki va risklarni xejirlash bo'yicha operatsiyalar nomoliyaviy sektor korxonalarining unumdorligini oshirish, yangi texnologiyalarni ishlab chiqish, uzoq muddatli korporativ rejalashtirishga bo'lgan intilishini kuchsizlantirdi. Chunki, spekuliyativ operatsiyalarda ishtirok etish ularga ishlab chiqarish jarayonisiz qisqa muddatli foyda olish imkonini berdi.

Xalqaro valyuta munosabatlarining funksiyalari – bu faoliyatning aniq mexanizmlari orqali ular iqtisodiy mohiyatining ifodalanishidir. Xalqaro valyuta munosabatlarining funksiyalarini bajarilish darajasi valyuta oqimlari harakatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Xalqaro valyuta munosabatlari harakatining har bir yangi bosqichi xalqaro iqtisodiy munosabatlar, jahon iqtisodiyoti va xalqaro moliya tizimida sezilarli o'zgarishlarga olib keladi. Xalqaro valyuta munosabatlarining asosiy va eng muhim funksiyalari quyidagilar hisoblanadi:

– valyuta oqimlarini jamg'arma shaklida to'plash va ularni investitsiyalash;

– valyuta resurslariga narxlarni shakllantirish.

Valyuta oqimlarini jamg'arma shaklida to'plash va ularni investitsiyalash funksiyasining iqtisodiy mohiyati xalqaro valyuta munosabatlari tizimi omonat va jamg'armalarni bozor oldi-sotdi usullari orqali investitsiyalar bilan birlashtirish uchun obyektiv sharoit yaratadi. Xalqaro valyuta munosabatlari tufayli jamg'armalar investitsiyaga yo'naltiriladi hamda harakatdagi kapitalga aylanadi. Investitsiyalash valyuta jamg'armalari egalari tomonidan ularga tegishli moliyaviy aktivlarni davlat va kompaniyalarga valyuta daromadi olish maqsadlarida foydalanishga berish orqali ifodalanadi.

1.2. Joriy valyuta operatsiyalarining mohiyati va tasnifi

Valyuta bozoridagi operatsiyalarning uzluksizligini ta'minlash va tashqi iqtisodiy faoliyatning barqaror rivojlanishida joriy valyuta operatsiyalari muhim rol o'ynaydi. Valyuta operatsiyalari – valyuta qimmatliklariga bo'lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o'tishi bilan bog'liq operatsiyalar, valyuta qimmatliklaridan to'lov vositasi sifatida foydalanish, valyuta qimmatliklarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish, jo'natish va o'tkazish, shuningdek O'zbekiston Respublikasidan olib chiqish, jo'natish va o'tkazish, rezidentlar va norezidentlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi valyutasidagi operatsiyalardir.

Joriy valyuta operatsiyalari o'zida mahsulotlar, ish va xizmatlarni eksport hamda import qilish bilan bog'liq hisob-kitoblar milliy va xorijiy valyutalarda 180 kalendar kundan ortiq bo'lmagan muddatda amalga oshiriladigan tashqi iqtisodiy operatsiyalarni ifodalaydi.

Barcha valyuta operatsiyalari faqat vakolatli banklar va korxonalaridagi hisobvaraqlar orqali amalga oshiriladi. Bu vakolatli banklar va korxonalarining valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda ustuvorligini belgilaydi. Shuningdek, xo'jalik yurituvchi subyektlar vakolatli banklarda chet el valyutasini joriy, maxsus, depozit va boshqa hisobvaraqlarida saqlashlari lozim.

Vakolatli bankning o'z valyuta mablag'lari uzoq muddatli ochiq valyuta mavqei doirasida nostro-korrespondenlik hisobvaraqlarida saqlanishi mumkin.

Chet el valyutasida hisob-kitoblar rezidentlar tomonidan joriy valyuta hisobvarag'idagi mablag' qoldig'i doirasida amalga oshiriladi. Barcha valyuta operatsiyalari qonuniy tarzda amalga oshirilishi kerak va qonuniy ravishda quyidagi manbalardan olinishi mumkin:

tashqi iqtisodiy faoliyatdan olinadigan valyuta tushumlari; chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxonalarining ustav fondiga chet el valyutasidagi badallar; vakolatli rezident va norezident banklardan chet el valyutasidagi kreditlar; belgilangan tartibda ichki valyuta bozorida

chet el valyutasini sotib olish; xayriya badallari, sovg'alar, xayr-ehsonlar.

Vakolatli banklar va korxonalar davlatning valyuta nazorati bo'yicha agenti funksiyasini bajaradilar, agar operatsiyalar valyutani tartibga solish me'yorlariga zid bo'lsa, ularni amalga oshirishni rad etish huquqiga ega. Rezidentlar va norezidentlar o'rtasidagi barcha hisob-kitoblar erkin konvertatsiya qilinadigan valyutada, agar hukumatlararo bitimlar va davlatlarning markaziy banklari o'rtasidagi kelishuvlarda nazarda tutilgan bo'lsa boshqa xorijiy valyutalarda amalga oshiriladi.

Valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda rezident va norezidentlarni aniqlab o'tish lozim. O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shu jumladan xorijdagi O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan chet el fuqarolari, O'zbekiston Respublikasida yashash guvohnomasiga ega bo'lgan fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq tashkil etilgan barcha yuridik shaxslar, shuningdek ularning O'zbekiston Respublikasida va undan tashqarida joylashgan filiallari va vakolatxonolari, O'zbekiston Respublikasining diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonolari, shu jumladan O'zbekiston Respublikasidan tashqaridagi diplomatik, savdo va boshqa rasmiy vakolatxonolari, qarorgohlari O'zbekiston Respublikasida joylashgan xalqaro tashkilotlar O'zbekiston Respublikasi rezidentlaridir.

Yuqoridagi qayd etilganlarga muvofiq rezident tushunchasi doirasiga kirmaydigan shaxslar O'zbekiston Respublikasi norezidentlaridir.

Tashqi iqtisodiy shartnomalar bo'yicha hisob-kitoblarni milliy valyutada tashkil etishda mamlakat markaziy banki quyidagi variantlardan birini qo'llashi mumkin:

- norezidentlar bilan milliy valyutada hisob-kitoblarni tashkil etish hisob-kitoblarni erkin amalga oshirilishini nazarda tutadi;
- hisob-kitoblarni tashkil etish norezidentlarning milliy puldagi hisobvaraqlari harakatining muayyan rejimlarini ishlab chiqish shaklida ma'lum qoidalarni joriy etishni nazarda tutadi;

➤ milliy valyutada hisob-kitoblarni amalga oshirishga to'liq yoki qisman cheklov joriy etish.

Markaziy bank faoliyati uchun ushbu variantlarni tanlashga birinchi navbatda quyidagi omillar ta'sir qiladi: to'lov balansi qoldig'ining holati; FOREX xalqaro valyuta bozorining holati, bu yerda milliy valyutaning xorijiy valyutalarga nisbatan kursi kotirovka qilinadi.

Rezidentlar o'rtasidagi munosabatlarda chet el valyutasi hisob-kitoblarda alohida hollarda qo'llaniladi. Rezidentlar o'rtasidagi munosabatlarda milliy valyuta har qanday talablar va majburiyatlarni to'lashda ham, chet el valyutasida ko'rsatilgan talablar va majburiyatlarni to'lashda ham cheklovlersiz qabul qilinishi kerak. Shu bilan birga, rezidentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarda istisno tariqasida chet el valyutasini quyidagi obyektiv xarakterdagi holatlarda foydalanishga ruxsat beriladi:

- bojsiz savdo do'konlaridagi hisob-kitoblar, shuningdek xalqaro tashishlarda transport vositalarining qatnov yo'llarida yo'lovchilarga tovarlarni realizatsiya qilish va xizmatlar ko'rsatish chog'idagi hisob-kitoblar bilan bog'liq operatsiyalar;

- vositachilar (vakillar) tomonidan norezidentlar bilan tovarlarni topshirish, ishlarni bajarish, xizmatlar ko'rsatish, axborot va intellektual faoliyat natijalarini, ularga bo'lgan mutlaq huquqlarni berish bo'yicha shartnomalar tuzish hamda ularni bajarish bilan bog'liq xizmatlar ko'rsatish chog'ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o'rtasidagi operatsiyalar, shu jumladan komitentlarga (ishonch bildiruvchilarga) pul summalarini (boshqa mol-mulkni) qaytarishga doir operatsiyalar;

- tuzilgan shartnomalar asosida transport-ekspeditorlik xizmatlarini realizatsiya qilishdan ekspeditorlik kompaniyalarining hisobvarag'iga xorijdan kelib tushayotgan chet el valyutasidagi mablag'larni hisob-kitob qilishni va o'tkazishni nazarda tutuvchi operatsiyalar;

- jismoniy shaxslarning O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga xizmat safarlari amalga oshirilishi bilan bog'liq xarajatlarini to'lash va ularning o'rmini qoplash bo'yicha operatsiyalar, shuningdek

xizmat safarlari munosabati bilan berilgan, sarflanmay qolgan bo‘nakni qaytarishga doir operatsiyalar;

- O‘zbekiston Respublikasining diplomatik vakolatxonalariga, konsullik muassasalariga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalariga hisob-kitoblarni va o‘tkazmalarni bajarishni nazarda tutuvchi operatsiyalar;

- rezident jismoniy shaxs tomonidan O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlardan boshqa rezident jismoniy shaxslar foydasiga ularning O‘zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga nosavdo operatsiyalar bo‘yicha o‘tkazmalar;

- transport tashkilotlari hamda O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida turgan jismoniy shaxslar, shuningdek yuridik shaxslarning filiallari, vakolatxonalari va boshqa bo‘linmalari o‘rtasida yo‘lovchilar tashishga oid shartnomalar bo‘yicha hisob-kitoblar bilan bog‘liq operatsiyalar;

- agar oxirgi xaridor yoki sotuvchi norezident bo‘lsa, vositachilar (vakillar) tomonidan majburiyatlar kliring natijalari bo‘yicha bajarilishi lozim bo‘lgan shartnomalarni tuzish va bajarish bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatish chog‘ida vositachilar (vakillar) va komitentlar (ishonch bildiruvchilar) o‘rtasidagi operatsiyalar;

- majburiyatlar bajarilishining ta‘minoti sifatida valyuta qimmatliklaridan foydalanish, shuningdek ularni undirish bilan bog‘liq operatsiyalar;

- yuridik shaxslarning ustav fondiga (ustav kapitaliga) valyuta qimmatliklarini kiritish va qaytarish bilan bog‘liq operatsiyalar;

- bank xizmatlarini amalga oshirish bilan bog‘liq operatsiyalar;

- xayriya faoliyati bilan bog‘liq operatsiyalar;

- meros huquqi bo‘yicha valyuta qimmatliklarini olish bilan bog‘liq operatsiyalar.

Norezidentlar joriy xalqaro operatsiyalar bilan bog‘liq o‘tkazmalarni O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi banklardagi hisobvaraqlaridan O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi bank hisobvaraqlariga yoki O‘zbekiston Respublikasi banklaridagi bank

hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqaridagi bank hisobvaraqlariga o'zaro amalga oshirish huquqiga ega.

Norezident jismoniy shaxslar nosavdo tusidagi o'tkazmalarni O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlaridan boshqa norezident jismoniy shaxslar foydasiga ularning O'zbekiston Respublikasi banklarida ochilgan hisobvaraqlariga amalga oshirishi mumkin.

Norezidentlar O'zbekiston Respublikasining qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlarida belgilangan talablarni hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlaridan O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlariga qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini o'zaro amalga oshirishi mumkin.

Joriy xalqaro operatsiyalar jumlasiga quyidagilar kiradi:

– tashqi savdoni, boshqa joriy faoliyatni yuritish, shu jumladan xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) munosabati bilan to'lanishi lozim bo'lgan barcha to'lovlar;

– foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shu jumladan bank omonatlari, kreditlar, lizing bo'yicha foizlar va boshqa daromadlar shaklida, shuningdek boshqa investitsiyalardan olinadigan sof daromad shaklida to'lanishi lozim bo'lgan to'lovlar;

– kreditni (qarzni) to'lash davrida qarzni olingan, shartnomada ko'rsatilgan to'lash davrlari soniga nisbati sifatida hisob-kitob qilingan qismining ikki baravaridan ortiq bo'lmagan miqdordagi summani to'lash;

– nosavdo tusidagi pul o'tkazmalari.

Nosavdo tusidagi pul o'tkazmalari jumlasiga quyidagilar kiradi:

✓ jismoniy shaxslar o'rtasida yuz million so'm ekvivalentigacha bo'lgan miqdordagi pul o'tkazmalari;

✓ shaxsiy ehtiyojlar uchun tovarlarga (xizmatlarga, ishlarga) haq to'lash;

✓ ish haqi, stipendiyalar, pensiyalar, alimentlar to'lash;

✓ xodimlarni O'zbekiston Respublikasidan tashqariga xizmat safariga yuborish bilan bog'liq xarajatlarni to'lash;

- ✓ ta'lim, davolanish va turizm uchun haq to'lash;
 - ✓ O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari, shuningdek O'zbekiston Respublikasining davlatlararo yoki hukumatlararo tashkilotlar huzuridagi doimiy vakolatxonalari ta'minoti uchun haq to'lash;
 - ✓ notarial va tergov harakatlari bilan bog'liq to'lovlar, shuningdek ishlarni sudlarda ko'rish munosabati bilan davlat boji to'lash;
 - ✓ sudning, arbitrajning, shuningdek tergov organlarining va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlarning qarorlari asosida pul mablag'larini to'lash;
 - ✓ xalqaro kongresslarda, simpoziumlarda, konferensiyalarda, sport tadbirlarida va madaniy tadbirlarda, shuningdek boshqa xalqaro uchrashuvlarda, ko'rgazmalarda va yarmarkalarda ishtirok etish uchun to'lovlar, bundan investitsiyaga oid va moddiy xarajatlar mustasno;
 - ✓ vafot etganni dafn qilish bilan bog'liq to'lovlar;
 - ✓ mualliflik haqini to'lash, patent bojlarini to'lash va intellektual mulk sohasidagi litsenziya shartnomalarining majburiyatlari bo'yicha haq to'lash;
 - ✓ xalqaro notijorat tashkilotlarga badallar.
- Joriy xalqaro operatsiyalar hamda ular bilan bog'liq holda chet el valyutasini rezidentlar va norezidentlar tomonidan sotib olish yoki sotish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

1.3. Spot valyuta operatsiyalarining mohiyati va amalga oshirish xususiyatlari

Jahon valyuta bozorida eng ko'p amalga oshiriladigan operatsiyalar – bu, spot (“Spot”) operatsiyalari hisoblanib, jahon valyuta bozorida amalga oshirilayotgan barcha operatsiyalarning qariyb 80 foizi aynan ushbu operatsiyalar hissasiga to'g'ri keladi.

Spot (“Spot”) operatsiyasi – bu bir zumda amalga oshiriladigan valyuta operatsiyasi bo'lib, sotuvchi sotgan valyutasini sotib oluvchiga 2 bank ish kuni davomida, shartnoma tuzilgan kun kursi bo'yicha yetkazishi lozim. Ikki ish kuni bitim hujjatlarini rasmiylashtirishni

tashkillashtirish va naqd pulni o'tkazish hamda ayrim hollarda hisob-kitoblar amalga oshirilishi lozim bo'lgan mamlakatlardagi turli vaqt zona (hudud)larini qoplash uchun qoldiriladi. Zamonaviy sharoitda, mazkur valyuta operatsiyalarining amalga oshirilishi va valyutaning yetkazilishi 2 bank ish kunini talab etmaydi.

Kassa bitimi spot shartlari asosida amalga oshiriladi va asosan xalqaro hisob-kitoblar bo'yicha, kurslar o'zgarishi oqibatida ehtimolli valyuta yo'qotishlarining oldini olish, shuningdek kapitallarni bir joydan boshqa joyga tez oqib o'tishi maqsadida xorijiy valyutani zudlik bilan sotib olish uchun qo'llaniladi.⁴

Valyuta kurslarining erkin tebranishi rejimiga o'tilishi bilan valyutalar bilan spekulyativ operatsiyalar kuchaydi. Ushbu operatsiyalar valyuta bozorlarida keng tarqalgan bo'lib, hozirgi kunda banklararo bozor umumiy muomalasining ko'p qismini tashkil etadi.

Kassa operatsiyalari uchun xususiyatli narsa shundaki, shartnoma tuzilishining payti uning ijro etilish payti bilan to'g'ri kelmaydi. Valyuta shartnoma tuzilganidan so'ng o'sha zahoti, 2 bank ish kundan kechikmagan holda, sotib oluvchiga yetkaziladi. Valyutani yetkazib berish muddati "valyutalashtirish sanasi" deb ataladi. Agarda valyutalashtirish sanasi bir ishtirokchi hududida dam olish kuniga to'g'ri kelsa, unda valyutalashtirish sanasi bo'lib ikkala ishtirokchi uchun ham dam olish kundan keyingi, navbatdagi ish kuni hisoblanadi. Quyida keltirilgan jadvalda spot operatsiyalarini turlari bo'yicha valyutalashtirish sanalarini ko'rishimiz mumkin.

Nomi	Standart belgisi	Tuzilish sanasi	Valyutalashtirish sanasi	Davr	Yakunlanish sanasi
Overnight	o/n	Bugun	Bugun	1 kun	Ertaga
Tom/next	t/n	Bugun	Ertaga	1 kun	Ertadan keyin
Tom/week	t/w	Bugun	Ertaga	1 hafta	Ertaga + 7 kun
Spot			2-ish kuni		
Spot/next	s/n	Bugun	2-ish kuni	1 kun	3-ish kuni
Spot/week	s/w	Bugun	2-ish kuni	1 hafta	Spot + 1 hafta
Spot/month	1 m	Bugun	2-ish kuni	1 oy	Spot + 1 oy
Spot/3 mth	3 m	Bugun	2-ish kuni	3 oy	Spot + 3 oy

⁴ Хасбулатов Р.И. Международные финансы. Учебник. М.: Юрайт, 2014. 567 с.

Spot/6 mth	6 m	Bugun	2-ish kuni	6 oy	Spot + 6 oy
Spot/year	12 m	Bugun	2-ish kuni	1 yil	Spot + 1 yil

Kassa bitimlarida yakuniy hisob-kitob sanasining to‘g‘ri belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Kassa (“kesh”) atamasi odatda hisob-kitoblar, shartnoma shartlari kelishiladigan kunda amalga oshadigan valyuta shartnomalariga aloqadordir. Bu atama asosan Shimoliy Amerika va valyuta sotib olish uchun ushbu bozorlar xizmatlariga murojaat etadigan mamlakatlar bozorlarida, ular uchun qulay soat poyaslari mavjudligi sababli ishlatiladi. Yevropa va Sharqiy bozorlarda kassa bitimlari “shu kunda hisob-kitobi bilan shartnomalar” deb ataladi.

Valyuta bozori valyuta almashuvi operatsiyasida ishtirok etayotgan taraflardan birontasi ham boshqa tarafga kredit bermayotganligini kafolatlaydigan, kompensatsiya qilingan qiymat tamoyili asosida harakat qilayotganligi, spot sanasi to‘g‘ri (aniq) belgilanishining muhimligini ko‘rsatadi. Bu degani London banki funtlarni to‘layotgan kunda Amerika banki AQSh dollarlaridagi uning ekvivalentini to‘lashi kerak. Ammo shunga qaramasdan, ikkala to‘lov ham tegishli benefitsiarlar tomonidan bir vaqtda olinishini amalda kafolatlab bo‘lmaydi. Vaqtdagi (soatlar) 5 soatlik farqlarni hisobga olib Nyu-York bankida eshiklar endi ochilayotgan paytda London banki kliring uchun yopiladi. Bunda London banki Nyu-York bankiga kunduzgi overdraftni taqdim etishga majbur bo‘ladi.

Rivojlangan pul bozorlarida foiz faqat sutkalik overdraftga hisoblanadi, kunduzgi overdraft holatida (kun mobaynidagi overdraftga) esa foiz hisoblanmaydi. Spot sanasiga ham agarda u dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa ma‘lum bir tuzatishlar kiritilishi mumkin. Faraz qilaylik, shartnoma juma kuni amalga oshirilgan bo‘lsa, unda spot kuni kelasi haftaning seshanba kuniga to‘g‘ri keladi. Agarda, Nyu-York banki uchun dushanba dam olish kuni bo‘lsa muammo tug‘iladi (London banki Nyu-York banki bilan kontraktli munosabatlarga kirgan bo‘lsa). Agar Nyu-Yorkda dushanba dam olish kuni bo‘lib, London banki bu haqida unutilib qo‘ygan bo‘lsa, unda Nyu-York banki seshanbaga emas, balki

chorshanbaga to'g'ri keladigan spot kunini Nyu-Yorkchasiga belgilaydi. Londondagi diler esa Nyu-Yorkdagi diler seshanbani spot kuni deb belgilaganini odatdagi hol deb qarashi mumkin, chunki bu kun Londonda spot kunidir. Seshanba kuni London banki, Nyu-Yorkda AQSh dollaridagi ekvivalentni olishni ko'zlab, 1000000 GBPni to'laydi va Nyu-Yorkdagi bank bu pullarni faqat chorshanba kuni to'lashini aniqlaydi. Agarda Nyu-York banki London bankiga kotirovka olishga murojaat etganida vaziyat boshqacha bo'lar edi, chunki bu holatda hisob-kitob kuni London kalendari bo'yicha aniqlanar edi hamda dushanba Nyu-Yorkda dam olishi kuni bo'lishi mumkin, ammo bunda Londondagi bankda ish kuni bo'lganligi sababli spot kuni sifatida seshanba belgilanishi mumkin.

Shunday qilib, kotirovkani amalga oshirayotgan bank mamlakatidagi bank ish kunlari spot kuni belgilanishini aniqlab beradi. Shuning uchun shartnomadagi taraflardan biri o'zining belgilagan spot kuni respondent tomonidan belgilangan spot kuniga to'g'ri kelishiga ishonch hosil qilishi kerak.

Spot-bitim amalga oshiriladigan kurs spot-kurs deb ataladi, hisob-kitoblar sanasi esa – valyutalash sanasi yoki “valyutalash spot sanasi” deyiladi. Shu sanada bitim tomonlarining har biri kontragent hisobvarag'iga mablag' kiritishi lozim.

Spot kurs – oldindan kelishuv yoki kontrakt sifatida rasmiylashtirilmagan, valyuta operatsiyalarida qo'llaniladigan (ishlatiladigan) oldi-sotdi valyuta almashuvi kursidir.⁵

“Spot” kursining kotirovkasi hozirgi daqiqaga beriladi, valyutaning o'zi esa kechi bilan 2 bank ish kundan so'ng yetkazilib beriladi.

Bir qator holatlarda vaqt (soat) mintaqalaridagi vaqtning farqlanishi joriy konvertatsiyalash operatsiyalari “spotgacha”, ya'ni butun (today yoki tod) yohud ertaga (tomorov yoki tom) sanasi bilan amalga oshirishga imkon beradi. Bunday bitimlar, misol uchun, rossiya rubliga nisbatan dollar bilan amalga oshiriladi.

⁵ Крисавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2016. 543 с.

Ish kunlari shanba va yakshanbalarni, shuningdek valyutasida bitim amalga oshirilayotgan har qanday mamlakatning banki dam olish kunlarini o‘z ichiga olmaydi.

Banklararo spot-kurslar bu – spot bitimlari uchun sotib olish va sotishning joriy narxlaridir. Butun dunyoda standartlashtirilgan uslubga ko‘ra har bir juft valyuta kotirovkalanadi. Shu bilan birga almashtirish kursi kotirovkalari ichki bozorda xalqaro foreks bozoridagidan farqlanishi mumkin.

Xalqaro standartlar tashkiloti (International Standart Organization) har bir valyutani uchta harfdan tarkib topgan kod bilan belgilaydi. Dastlabki ikki xarf odatda mamlakat nomini, uchinchi harf esa valyutani ifodalaydi, shunday bo‘lsa-da, ayrim istisnolar ham mavjud. Bu kodlar SVIFT tizimi orqali o‘tuvchi banklararo xabarlarda, xalqaro banklar tomonidan qo‘llanadi va Xalqaro standartga aylangan.

	Bid	Offer
Misol:	EUR/USD 1,1857/	1,1865

Almashtirish kurslari asosan sotib olish kursi Bid va sotish kursi – Offer yoki Ask sifatida beriladi. Bid tomoni ko‘rsatgan kurs bo‘yicha narxni kotirovkalovchi (beruvchi) bank, ya‘ni market – meyker mijozdan bazaviy valyutani sotib oladi, Offer tomoni esa market – meyker mijozga bazaviy valyutani sotadigan kursni ko‘rsatadi.

Muammolarga duch kelmaslik uchun yodda tutish lozimki, agar market-meyker bazaviy valyutani sotib olsa (ya‘ni, kotirovkalash valyutasini sotsa), bu holda mijoz shu kurs bo‘yicha bazaviy valyutani sotishi (ya‘ni, bitim amalga oshirilishidagi kotirovka valyutasini sotib olishi) mumkin. Offer tomonida ham aynan shunday bo‘ladi.

Nazarimizda, tushunish oson bo‘lish uchun bazaviy valyutani biron bir tovar sifatida ko‘rish maqsadga muvofiq: market-meyker doim tovarni imkon qadar arzon narxda sotib olishni, sotishda iloji boricha qimmatroq narxda sotishni mo‘ljallaydi. Qabul qilingan qoidaga binoan kotirovkalashda xarid kursi chapdan kotirovka qilinadi, sotish kursi esa o‘ngdan.

Spred – sotib olish va sotish narxlari o‘rtasidagi farq. U market-meykerning marjasini ifodalaydi. Kursning kuchli tebranishlari yuz bermaganligi sharti bilan spred market-meykerga daromad olish imkonini beradi.

Spot (“spot”) operatsiyalarini amalga oshiradigan dilerlar valyuta mavqeini yuritadilar.

1.4. Valyuta mavqeining mohiyati va turlari

Foreks bozorida savdo qiluvchi banklar valyutalarning har birida uzun, qisqa va yopiq pozitsiyalarni belgilab qo‘yidilar. Valyuta bitimini amalga oshirishda bank bir valyutani xarid qiladi va boshqasini sotadi. Spot (darhol yetkazib berish) shartlarida valyuta yetkazib berish bitimida u sotayotgan valyutadagi zaxiralarining bir qismi sotib olinayotganiga qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Ochiq valyuta mavqeini yuritish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Unga ko‘ra valyuta mavqei (pozitsiyasi) – tijorat banklari tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablarning yoki majburiyatlarning o‘zgarishiga olib keladigan tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari yoki majburiyatlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

Agar bank muddatli bitimni amalga oshirsa, bu holda bir valyutadagi talablarga ega bo‘lar ekan, boshqasidagi majburiyatlarni ham qabul qiladi. Natijada har ikki holatda ham bankning aktivlarida va passivlarida (pulli va majburiyatlar shaklida) ikki turlicha valyuta paydo bo‘ladi, ularning kurslari bir-biridan qat’iy nazar o‘zgaradi. Shu sabab muayyan bir paytda aktiv passivdan ortiq bo‘lishi (foyda), yohud aksincha passiv aktivdan ortiq bo‘lishi mumkin (zarar).

Bankning xorijiy valyutadagi talablari va majburiyatlari uning valyutaviy mavqeini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining “Ochiq valyuta mavqeini yuritish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Unga ko‘ra valyuta mavqei – tijorat banklari tomonidan chet el valyutasini oldi-sotdi operatsiyasini shuningdek, boshqa operatsiyalarni amalga oshirish natijasida chet el valyutasida ifodalangan talablarning yoki majburiyatlarning o‘zgarishiga olib keladigan tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari yoki majburiyatlari o‘rtasidagi nisbatni ifodalovchi ko‘rsatkichdir.

Ochiq valyuta mavqei – tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasiga mos (teng) bo‘lmagan holatdagi valyuta mavqei hisoblanadi.

Uzun valyuta mavqei – tijorat bankining chet el valyutasidagi talablarining summasi uning chet el valyutasidagi majburiyatlari summasidan ortiq bo‘lgan holdagi ochiq valyuta mavqeidir.

Qisqa valyuta mavqei – tijorat bankining chet el valyutasidagi majburiyatlarining summasi uning chet el valyutasidagi talablari summasidan ortiq bo‘lgan holdagi ochiq valyuta mavqei.

Ochiq valyuta mavqelarining jami summasi – barcha turdagi chet el valyutalari bo‘yicha ochiq valyuta mavqelarining jami yig‘indisi.

Barcha qisqa valyuta mavqelari jami summasi – barcha turdagi chet el valyutalari bo‘yicha qisqa ochiq valyuta mavqelarining jami yig‘indisi.

Barcha uzun valyuta mavqelari jami summasi – barcha turdagi chet el valyutalari bo‘yicha uzun ochiq valyuta mavqelarining jami yig‘indisi.

Tijorat bankining chet el valyutasidagi talablari – chet el valyutasi bilan bog‘liq aktivlar va ko‘zda tutilmagan holatlar (hosilaviy moliya vositalar bo‘yicha transaksiyalar).

Tijorat bankining chet el valyutasidagi majburiyatlari – chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan majburiyatlar va ko‘zda tutilmagan holatlar (hosilaviy moliya vositalar bo‘yicha transaksiyalar).

Ochiq valyuta mavqelarining limitlari – har bir chet el valyutasi turi bo‘yicha ochiq valyuta mavqelari alohida, ochiq valyuta mavqelarining

jami summasiga va barcha qisqa (uzun) valyuta mavqelari jami summasiga bankning regulyativ kapitaliga nisbatan O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan o'rnatiladigan limitlar.

Ko'zda tutilmagan holatlar bo'yicha talab va majburiyatlar – tijorat bankining chet el valyutasi bilan bog'liq bo'lgan hosila moliyaviy vositalar (valyuta derivativlari: forvard, fyuchers, opsiya va svop) xarid qilish yoki sotish yuzasidan vujudga keladigan talab va majburiyatlari.

Masalan, bank tomonidan 1.6540 kursi bo'yicha shveysariya franklariga 1 mln dollar sotib olinsa 1 mln USD summaga uzun pozitsiya va 1.654000 CHF summaga qisqa pozitsiya hosil bo'ladi. Bu pozitsiyalar quyidagi qaydlar ko'rinishida ifodalanishi mumkin.

+ 1,000,000 USD - 1,654,000 CHF

Shu tarzda bir valyutaga nisbatan boshqasini sotib olish yoki sotish bo'yicha bitim tuzilganda bir vaqtning o'zida shu ikki valyuta bo'yicha pozitsiyalar o'zgaradi.

Pozitsiyani yopish uchun uzun pozitsiyada sotish va qisqa pozitsiyada sotib olish zarur.

Ochiq valyuta mavqeini hisob-kitobi bo'yicha namunaviy misol.

1. Bankning regulyativ kapitali: 30 000 000 (ming so'mda)
2. Xorijiy valyutalar bo'yicha valyuta mavqei (nominal bo'yicha ming birlikda):

Valyutalar turi	Oldi-sotdi bo'yicha operatsiyalar		Muddatli operatsiyalar		Ochiq valyuta mavqelarining jami summasi	
	uzun	qisqa	uzun	qisqa	uzun	qisqa
AQSh dollari	50		-80		-30	
Yevro	50		-20		30	
Shveysariya franki	-100		160		60	
Buyuk Britaniya funt sterlingi	20		-		20	
Rossiya rubli	-190		30		-160	

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan elon qilingan valyuta kurslari:

AQSh dollari	10295,33
Yevro	12194,82
Shveysariya franki	11330,98
Buyuk Britaniya funt sterlingi	13170,82
Rossiya rubli	137,65

Valyutalar turi	Oldi-sotdi bo'yicha operatsiyalar		Muddatli operatsiyalar		Ochiq valyuta mavqelarining jami summasi	
	uzun	qisqa	uzun	qisqa	uzun	qisqa
AQSh dollari	514 767			-823 626		-308 860
Yevro	609 741			-243 896	365 845	
Shveysariya franki		-1 133 098		-1 812 957		-2 946 055
Buyuk Britaniya funt sterlingi	263 416				263 416	
Rossiya rubli		-26 154	4 130			-22 024
So'm					2 647 678	
JAMI	1 387 924	-1 159 252	4 130	-2 880 480		
So'm bo'yicha pozitsiya						
Netto-valyuta mavqelarining jami summasi	228 672			-2 876 350		
	Valyuta mavqelarining jami summasi				3 276 939	-3 276 939

Ochiq valyuta mavqelarining jami summasi (uzun/qisqa valyuta mavqelarning jami summasi) 3538,5 ga teng bo'lgan.

Jami ochiq valyuta mavqei limiti hisob-kitobi:

3 276 939

Limit = ----- x 100 = 10,9.

30 000 000

Alohida bir valyuta bo'yicha ochiq valyuta mavqei limiti hisob-kitobi:

a) AQSh dollari

$$\text{Limit} = \frac{308\ 860}{30\ 000\ 000} \times 100 = 1,02$$

b) Yevro:

$$\text{Limit} = \frac{365\ 845}{30\ 000\ 000} \times 100 = 1,22$$

Yuqorida ko'rsatib o'tilganlardan xulosa qilib, quyidagilarni qayd etish mumkin:

– valyutadagi uzun pozitsiya bu – shunday vaziyatki, bunda bank odatda valyutani keyinchalik qimmatroq (foyda olib) sotish maqsadida shu valyutadagi joriy majburiyatlaridan ko'ra ko'proq sotib oladi (ya'ni, valyutaning xaridi majburiyatlardan ortiq bo'ladi);

– valyutadagi qisqa pozitsiya bu – shunday vaziyatki, bunda bank odatda valyutani keyinroq, zarur bo'lib qolganda sotib olish uchun o'zida mavjud bo'lmagan valyutani sotadi (ya'ni, valyutaning sotilishi xariddan ortiq bo'ladi). Agar bank olib-sotarlik (chayqovchilik) uchun qisqa pozitsiyani egallab tursa, bu uning shu valyuta kursi tushishini kutayotganini anglatadi;

– bankning uzun pozitsiyasi ham, qisqa pozitsiyasi ham bo'lmasa (ya'ni valyutani sotib olish xaridga teng) pozitsiya yopiq hisoblanadi.

1.5. Spot shartlari asosida kross-kurslarni hisoblash

Kross-kurslar bu — ikki valyuta o'rtasidagi kurslar bo'lib, ular shu valyutalarning har birining kurslarini uchinchi valyutaga nisbatan olinganidan hosil bo'ladi. Asosan bu holatda uchinchi valyuta AQSh dollari bo'ladi.

Misol: USD /JPY = 106,20-106,25
 USD /CHF = 0,91-0,96

USDga nisbatan ushbu kurslardan biz yena va shveysariya franki o'rtasidagi kross-kursni hisoblab chiqarishimiz mumkin.

Kross-kursda bazaviy valyuta sifatida odatda ko'proq qiymatga ega bo'lgan valyuta qabul qilinadi. Bizning holatda bu CHF. Demak, shveysariya frankining yapon yenasidagi kursini aniqlab olish lozim (CHF /JPY). Bu misolda market-meyker shveysar franklarini sotib oladigan va yenalarni sotadigan narx Bid tomoni, ya'ni xarid narxi bo'ladi.

Modomiki, bevosita CHF /JPY bozori mavjud emas ekan, bu bitim ikki bosqichda AQSh dollari orqali o'tkaziladi. Market-meyker quyidagi amallarni bajarishi lozim:

1) AQSh dollariga ayriboshlash evaziga shveysar franklarini sotib olish.

Kurs $USD / CHF = 0,91/96$, demak, market-meyker 0,96 kursni kotirovkalaydi;

2) AQSh dollariga ayriboshlash evaziga yenani sotish.

USD / JPY kursi 106,20/ 25ga teng, Modomiki, dollar (bazaviy valyuta sifatida) sotilar ekan, bank Bid 106,20 tomonni kotirovkalaydi.

Bid tomon CHF /JPY uchun $106,20 / 0,96 = 110,62$ JPY uchun 1 CHF

Offer tomoni (ya'ni sotish narxi) bu — market —meyker bazaviy valyutani, bizning misolimizda CHFni sotadigan va kotirovkalash valyutasini, ya'ni JPYni sotadigan narx.

Market-meyker bunday operatsiyaki AQSh dollari ishtirokida bitimni amalga oshirish orqali ikki bosqichda o'tkazishi mumkin:

1) CHFni sotadi va dollar sotib oladi.

0,91/96 kotirovka USD xarid kursi 0,91 bo'ladi.

2) Bir dollarga 106,25 yen kurs bo'yicha yenalarni sotib oladi va AQSh dollarini sotadi. USD/ JPY kursi $106,25/0,91=116,76$ JPYga 1 CHFni tashkil etadi.

Shunday qilib, CHF /JPY kross kursi: 110,62-116,76 ni tashkil etadi.

Kross-kurslarni hisob-kitob qilishda qaysi valyuta uchinchi valyutaga nisbatan kotirovkalarda qaysi kurs bo'yicha sotib olinayotgani yoki sotilayotganini aniq belgilab olish lozim.

Turli valyutalar bazaviy bo'lib hisoblanishiga misol:

$$\text{GBP/USD} = 1,8250/55$$

$$\text{USD/JPY} = 107,90/95$$

GBP – USD kursi quyidagi tarzda hisoblanadi:

Market-meyker Bid tomonini olish uchun:

– 1,8255 kurs bo'yicha dollarga funt sterling sotib oladi;

– 107,90 kurs bo'yicha yenalarni sotadi va dollar sotib oladi;

– Bid $1,8250 \times 107,90 = 196,92$

GVR kotirovkalash bazasi sifatida qabul qilinadi.

Market-meyker Offer tomonidan olish uchun;

– 1,8255 kurs bo'yicha USD evaziga GBP sotadi;

– 107,95 kurs bo'yicha JPY sotib oladi va USD sotadi;

– Offer = $107,95 \times 1,8255 = 197,06$

GBP/JPY kross-kursi $\text{GBP/JPY} = 196,92 - 197,06$ ni tashkil etadi.

Xalqaro bozorlarda o'tkaziladigan spot shartlaridagi bitimlarning umumiy hajmida asosiy qismini, ya'ni 90 foizdan ortig'ini-chayqovchilik maqsadidagi bitimlar egallaydi. Operatsiyalarni amalga oshirishda dilerlar muayyan omillarga tayanib, maksimal foyda olish va xatarlardan sug'urtalanish maqsadida o'z faoliyatlari strategiyasini ishlab chiqadilar.

Kross-kurslarda AQSh dollari bo'lmasa ham savdo qilinayotgan va kotirovka qilinayotgan valyutaning dollarda ifodalangan kurslari kross-kurs hisob-kitobi uchun asos bo'lib xizmat qiladi. To'g'ri va teskari kotirovkalarning hisob-kitoblari bir biridan farq qiladi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro valyuta munosabatlariga ta'rif bering?
2. Xalqaro valyuta munosabatlarining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir ko'rsatgan omillar nimalardan iborat?
3. Xalqaro valyuta munosabatlari shakllanishi manbalarini ayting?

4. Valyuta munosabatlarini tartibga solish deganda nimani tushunasiz?

5. Xalqaro valyuta munosabatlarining funksiyalari nimalardan iborat?

6. Valyuta operatsiyalariga ta'rif bering?

7. Joriy valyuta operatsiyalarining mohiyatini izohlang?

8. Rezidentlar o'rtasidagi hisob-kitoblarda chet el valyutasidan foydalanishga qanday holatlarda ruxsat beriladi?

9. Joriy xalqaro operatsiyalarga nimalar kiradi?

10. Spot ("Spot") operatsiyasi va spot kursga ta'rif bering?

11. Valyuta pozitsiyasi va uning turlariga ta'rif bering?

12. Kross-kursning mohiyatini izohlang?

2-BOB: KAPITAL HARAKATI BILAN BOG‘LIQ VALYUTA OPERATSIYALARI

2.1. Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi umumiy qoidalar.

2.2. Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari amalga oshirish.

2.1. Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi umumiy qoidalar

2019-yil 22-oktabrda O‘RQ-573-son bilan yangi tahrirda tasdiqlangan “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida” qonunining 16 moddasida keltirilgan. Xususan, Kapital harakati operatsiyalari jumlasiga joriy xalqaro operatsiyalar bo‘lmagan barcha xalqaro (transchegaraviy) valyuta operatsiyalari, shu jumladan quyidagilar kiradi:

1. Investitsiya faoliyatini amalga oshirish, jumladan rezidentlar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqarida joylashgan o‘z filiallarini aylanma mablag‘lar bilan to‘ldirish;

2. Kreditlar (qarzlar) olish va berish, lizing operatsiyalarini amalga oshirish;

3. Ko‘chmas mol-mulkni sotib olish va sotish;

4. Chet davlatlardan mablag‘larni jalb etish hamda ularni chet davlatlardagi hisobvaraqlar va omonatlarga joylashtirish;

5. Intellektual mulk obyektlariga bo‘lgan mutlaq huquqni to‘liq olish yoki sotish.

O‘zbekiston Respublikasiga to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini jalb etish va ularni repatriatsiya qilish, shuningdek to‘g‘ridan to‘g‘ri chet el investitsiyalarini amalga oshirish munosabati bilan olingan huquqlardan foydalanish cheklovlarsiz amalga oshiriladi.

O‘zbekiston Respublikasi diplomatik va boshqa vakolatxonalarining ehtiyojlari uchun O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida ko‘chmas

mulk obyektlarini olish va qurish bo'yicha kapital harakati operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlarni sotib olish, shuningdek rezidentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarni norezidentlar tomonidan sotib olish tartibi qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan Markaziy bank bilan birgalikda belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2013-yil 23- noyabr, 22/2-son qarori bilan "Kapital harakati bilan bog'liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida"gi nizom (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2013-yil 17-dekabrda ro'yxatdan o'tkazildi, ro'yxat raqami 2536) mamlakatimizda kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari (keyingi o'rinlarda valyuta operatsiyalari)ni amalga oshirish tartibini belgilaydi.

Mazkur tartibda, xorijdan mablag' jalb qilish deganda O'zbekiston Respublikasi yoki uning rezidenti tomonidan xorijiy davlatlar yoki norezidentlar aktivlarining (kreditlar, zayomlar va boshqalarning) mazkur xorijiy davlatga yoki norezidentga yoxud ularning talabiga ko'ra uchinchi shaxsga shartlashilgan davrda adekvat aktivlarni, jumladan, aktivlardan foydalanganlik uchun to'lovlarni taqdim etish majburiyatini o'z zimmasiga olgan holda jalb etilishi tushiniladi.

Tijorat banklari valyuta operatsiyalari hisobini yuritadi.

O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalar tashqi qarz hisobini yuritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankida (bundan buyon matnda Markaziy bank deb yuritiladi) ro'yxatga olinadi. Ro'yxatga olish tijorat banklari tomonidan mazkur shartnomalar to'g'risidagi ma'lumotlarni xabardor qilish tartibida Markaziy bankka taqdim etish orqali amalga oshiriladi. Markaziy bank xabardor qilingandan so'ng O'zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag' jalb qilish to'g'risidagi shartnomalar ro'yxatga olingan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining diplomatiya va boshqa vakolatxonalarini ehtiyojlari uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqarida ko'chmas mulk obyektlarini olish va ularni qurish bo'yicha valyuta operatsiyalari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qaroriga binoan amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududida norezidentlar tomonidan ko'chmas mulkni olish va sotish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar muomalasi, rezidentlar tomonidan chet el valyutasidagi qimmatli qog'ozlar sotib olinishi, shuningdek rezidentlar chiqargan qimmatli qog'ozlarning norezidentlar tomonidan sotib olinishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Quyidagi operatsiyalar O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, Vazirlar Mahkamasining qarorlari yoki O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasi mavjud bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi:

– 10 000 AQSh dollari ekvivalentidan yuqori bo'lgan summada chet elda investitsiya faoliyatini amalga oshirish – rezidentlarning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi hisobvaraqlaridan chet eldagi korxonalarining ustav kapitalini shakllantirish (yoki ulushli ishtirok etish), chet eldagi o'z filiallarini aylanma mablag'lar bilan to'ldirish uchun chet elga mablag'lar o'tkazish;

– O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan norezidentlarga kreditlar va pul, tovarlar (xizmatlar) ko'rinishidagi qarzlar hamda lizing obyektlarini berish;

– O'zbekiston Respublikasi rezidentlarining O'zbekiston Respublikasi tijorat banklaridagi hisobvaraqlardan mablag'larni chet eldagi hisobvaraqlarga (omonatlarga) joylashtirish hamda ko'chmas mulkni sotib olish uchun o'tkazish.

2.2. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalari amalga oshirish

Valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun rezident tomonidan tijorat bankiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Quyidagi shaklga muvofiq ariza;

_____ rahbariga
(tijorat bankining nomi)
_____ dan
(mijoz)

ARIZA

Sizdan _____

(valyuta operatsiyasining turi)

bilan bog‘liq valyuta operatsiyasini amalga oshirishingizni so‘rayman.

_____ (ariza beruvchining lavozimi)

_____ (imzo)

_____ (ariza beruvchining F.I.O.)

20 __yil “__” _____

2. Valyuta operatsiyasi amalga oshirilishini nazarda tutuvchi hujjatning (shartnoma, kelishuv, bitim va/yoki boshqa hujjat) hamda unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning nusxalari. Bunda hujjat matni davlat yoki rus tilida bayon etilgan bo‘lishi, agar hujjat matni boshqa tilda bayon etilgan bo‘lsa, u legallashtirilgan yoki unga belgilangan tartibda apostil qo‘yilgan bo‘lishi hamda davlat yoki rus tiliga tarjima qilingan va notarial tasdiqlangan bo‘lishi kerak.

Mazkur hujjatlar taqdim etilgandan so‘ng, tijorat banki tomonidan belgilangan tartibda valyuta operatsiyasi amalga oshiriladi.

Rezidentlar hujjatlarni elektron tizim orqali qabul qilish uchun dasturiy ta‘minotga ega bo‘lgan tijorat banklariga arizani elektron shaklda taqdim etishi mumkin. Bunda rezident valyuta operatsiyasi amalga oshirilishini nazarda tutuvchi hujjatning (shartnoma, kelishuv, bitim va/yoki boshqa hujjat) yoki unga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalarning nusxalarini arizaga ilova qilishi lozim.

Valyuta operatsiyasini amalga oshirishda rezident quyidagilarga majbur:

– bir valyuta operatsiyasi bo‘yicha barcha hisob-kitob va to‘lovlarni asosiy depozit hisobvarag‘i ochilgan tijorat banki orqali valyuta operatsiyasi shartlariga muvofiq amalga oshirish;

– valyuta operatsiyasi shartlariga o‘zgartirishlar kiritilganda (shartnomaning muddati uzaytirilishi, to‘lov muddatining kechiktirilishi, qarzni so‘ndirish jadvalining o‘zgartirilishi, qarzning to‘liq so‘ndirilishi yoki shartnomaning bekor qilinishi va boshqalar) tijorat bankini xabardor qilish.

Valyuta operatsiyasini amalga oshirishda tijorat banki:

– valyuta operatsiyalari hisobini yuritish uchun raqamlangan, ip o‘tkazib tikilgan va tijorat bankining muhri bilan tasdiqlangan jurnal yuritishi;

– amalga oshirilgan har bir valyuta operatsiyasi bo‘yicha ko‘rsatilgan hujjatlar, to‘lov hujjatlari va boshqa zarur hujjatlarning nusxalari tikilgan yig‘majild yuritishi;

– hisob-kitob va to‘lovlarni valyuta operatsiyasi shartlariga muvofiq amalga oshirishi;

– O‘zbekiston Respublikasi tomonidan kafolatlanmagan xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risidagi shartnomalar va ularga kiritilgan o‘zgartirish va qo‘shimchalar ijroga qabul qilingandan keyin 5 ish kuni ichida ular to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni quyidagi shaklga muvofiq Markaziy bankka taqdim etishi.

(tijorat bankining nomi)

**tomonidan ijroga qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasi tomonidan
kafolatlanmagan**

xorijdan mablag‘ jalb qilish to‘g‘risidagi hujjatlar haqida

MA'LUMOT

Hujjat ma'lumotlari	Dastlabki ma'lumotlar	O'zgartirilgan ma'lumotlar*
Rezident to'g'risidagi ma'lumotlar		
Nomi		
STIR		
Faoliyat turi		
Joylashgan hududi		
Norezident to'g'risidagi ma'lumotlar		
Nomi		
Yuridik shaxslar uchun – ro'yxatga olingan davlat, jismaniy shaxslar uchun – fuqaroligi		

Hujjat to'g'risidagi ma'lumotlar		
Ijroga qabul qilingan sana		
Xorijdan mablag' jalb qilish shakli (<i>pul mablag'lari, tovarlar, ish, xizmatlar ko'rinishidagi zayomlar, kredit, lizing yoki norezidentlarning mablag'larini hisobvaraqlar va omonatlarga jalb qilinishi</i>)		
Raqami va sanasi		
Summasi va valyutasi		
Muddati		
Jalb qilingan mablag' so'ndiriladigan sana		
Maqsadi		
Boshqa o'zgartirish va qo'shimchalar	x	

Bank boshqaruvi raisi o'rinbosari

(F.I.O.)

(imzo)

Ijrochi

Valyuta operatsiyasini hisobga olish jurnalida quyidagi ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim:

- hujjat ijroga qabul qilingan sana;
- hujjatning raqami va sanasi;
- rezidentning nomi;
- valyuta operatsiyasining turi, summasi va valyutasi;
- valyuta operatsiyasining holati (amalda, boshqa vakolatli tijorat bankiga yoki yakunlangan);
- valyuta operatsiyasi hisobining yuritilishi tugallangan sana (boshqa tijorat bankiga o'tkazilgan yoki yakunlangan).

- Rezidentning asosiy depozit hisobvarag'i boshqa tijorat bankiga o'tkazilgan taqdirda, keyingi valyuta operatsiyalarining hisobi rezidentning asosiy depozit hisobvarag'i o'tkazilgan tijorat banki tomonidan yuritiladi.

Rezidentning valyuta operatsiyalari bo'yicha hujjatlari tijorat banklari o'rtasida tuziladigan qabul qilish-topshirish dalolatnomasi asosida o'tkaziladi.

Dalolatnomaga quyidagi shaklga muvofiq rezidentning yakunlangan valyuta operatsiyalari to'g'risidagi hamda boshqa tijorat banklaridan olingan ma'lumotlar ilova qilinadi.

ning yakunlangan valyuta operatsiyalari to'g'risida
(rezidentning nomi)

MA'LUMOT

Valyuta operatsiyasi turi	Valyuta operatsiyasi ijroga qabul qilingan sana	Valyuta operatsiyasini amalga oshirish uchun asos bo'lgan hujjatning sanasi va raqami	Valyuta operatsiyasining summasi va valyutasi	Valyuta operatsiyasi bo'yicha kelib tushgan tushumlar (tovar, ish, xizmat)	Valyuta operatsiyasi bo'yicha amalga oshirilgan to'lovlar summasi	Valyuta operatsiyasi hisobi yuritilishi tugatilgan sana	Valyuta operatsiyasining tugatilishi uchun asos
1	2	3	4	5	6	7	8

Bank rahbari

(imzo)

(F.I.O.)

Ijrochi

(imzo)

(F.I.O.)

Nazorat uchun savollar

1. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalariga qanday operatsiyalar kiradi?
2. Xorijdan mablag' jalb qilish deganda nima tushiniladi?
3. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirish uchun rezident tomonidan tijorat bankiga qanday hujjatlar taqdim etiladi?
4. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini amalga oshirishda rezident nimalarga majbur?
5. Kapital harakati bilan bog'liq valyuta operatsiyalarini hisobga olish jurnalida qanday ma'lumotlar ko'rsatilishi lozim?

3-BOB. FORVARD VALYUTA OPERATSIYALARI

- 1.1. Forvard valyuta operatsiyasining mohiyati va asosiy jihatlari.
- 1.2. Forvard bo'yicha hisob-kitob sanalari.
- 1.3. Valyuta bozorida forvard kursining aniqlanishi.

3.1. Forvard valyuta operatsiyasining mohiyati va asosiy jihatlari

Forvard valyuta bitimi - bu, valyuta bo'yicha bitim imzolangan sanadan boshlab, ikki ish kunidan keyin amalga oshiriladigan to'lovni nazarda tutuvchi bitimdir. Bu bitim aniq bir sanada, yoki ikki sana orasida amalga oshirishni nazarda tutishi mumkin. Forvard valyuta bitimiga quyidagicha aniq ta'rif berish mumkin:

– forvard valyuta bitimi, bu bank va mijoz o'rtasidagi kechiktirilmaydigan, buzilmas (bekor qilinmaydigan) va majburiy bitim;

– ko'rsatilgan xorijiy valyutaning muayyan miqdorini bitim tuzilgan paytda qayd etilgan qat'iy almashtirish kursi bo'yicha sotib olish yoki sotish bitimi;

– bitimda ko'rsatilgan kelgusidagi muayyan vaqtda valyuta yetkazib berish va uning haqini to'lash uchun bitim.

Quyidagilar ushbu bitimning ayrim o'ziga xos bo'lgan jihatlari mavjud:

a) bu voz kechib bo'lmaydigan va majburiy shartnomadir. Bitim tuzilgandan keyin mijoz bitimdan voz kechishga haqqi yo'q. Mijoz shartnomada ko'rsatilgan chet el valyutasini sotib olishi yoki sotishi shart.

b) bu bitim chet el valyutasidagi aniq bir summani tashkil etadi. Mijoz bitimda ko'rsatilgan summadan ko'proq valyutani sotib olishga ham, sotishga ham haqqi yo'q.

d) bitim kelajakdagi aniq bir sanada bajarilishi shart (ikkita aniq sananing orasida). Mijozda forvard bitimi bajarilish sanasini uzoqlashtirishga ham, yaqinlashtirishga ham vakolat yo'q.

Muddatli operatsiyalarni amalga oshirishning ijobiy tomonlaridan biri shundaki, ular o'ziga xos (xususiyatli) aktiv va passivlarga qarshi qaratilmagan bo'lsa (ayniqsa forvard operatsiyasi) manyovr uchun katta imkoniyat beradi. Spot operatsiyalari zudlik bilan amalga oshirilishi yoki qoldirilishi lozim, oddiy forvard kontraktlari esa nazorat va tuzatishlarni amalga oshirish uchun vaqt qoldiradilar.

Forvard bozori kompaniyalar moliya bo'limlari boshqaruvchilari uchun ham muhimdir, chunki ular eksport va importning milliy valyutadagi qiymatini to'lov amalga oshishidan ancha oldin aniqlashlari mumkin. Moliya bo'limi boshqaruvchisi nufuzli bank bilan muddatli shartnoma tuzgan paytda uning birdan-bir vazifasi qandaydir bir sabablarga ko'ra tovar yoki to'lov olinmay qolgan taqdirda ochiq valyuta pozitsiyasi bilan qolmaslikdan iboratdir.⁶

Professional dilerlar cheklanmagan bozor ma'lumotlariga ega bo'lgan holda o'zlarining tijorat bilan shug'ullanuvchi hamkasblariga qaraganda manyovr uchun keng imkoniyatlarga egadir. Shu bilan birgalikda muddatli shartnomalar bilan bog'liq ahamiyatli tavakkalchiliklar ham mavjud. Forvard shartnomasining muddati qanchalik uzun bo'lsa shartnoma bo'yicha kontragent moliyaviy ahvolining yomonlashish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi. Shunday ehtimol ham mavjudki, shartnomada ishtirok etayotgan taraflar spot shartlari asosidagi shartnoma shartlarini bajara olmaslik sharoitiga tushib qolishlari ham mumkin. Ammo spot shartlari asosidagi shartnomaning bekor qilinish ehtimoli, forvard kontraktning bekor qilinish ehtimoliga ko'ra pastroqdir. Bunda shartnoma ishtirokchilaridan biri tomonidan majburiyatlar bajarilganda ikkinchisi tomonidan ularning bajarilmasligi eng yomon holatni yuzaga keltiradi.

Bunday holat katta zararlarga yoki sudlashish jarayonlariga ham olib kelishi mumkin. Agarda, aybdor taraf o'z majburiyatlarini mutlaqo bajara olmasa, unda valyutadagi so'ndirilmagan qarzdorlik baribir joriy bozor kursi asosida qoplanishi lozim. Bundan chiqdi, ochiq valyuta pozitsiyasi bartaraf etilganda, keyingi zararlar paydo bo'lishi mumkin. Ammo ushbu operatsiyalar bo'yicha bekor qilingan shartnomalar yoki

⁶ Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. 9th ed. 2018. 808 p.

ko‘rilgan zararlarni operatsiyalarning umumiy hajmidagi ulushi nihoyatda kamdir.

Forvard savdosini tashkil etish nuqtai nazaridan suni ko‘rishimiz mumkinki, u o‘zida bozorning ikkita ishtirokchisi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri tuziladigan birjadan tashqari valyuta bitimini ifodalaydi. Forvard operatsiyalari bo‘yicha yakuniy hisob-kitoblar shakliga ko‘ra bunday bitimlar quyidagilarga ajratiladi:

– yetkazib berish forvardlari, valyutalashtirish sanasida tomonlar bitimda kelishilgan valyutaning to‘liq miqdorini bir-biriga o‘tkazadilar;

– hisob-kitob forvardlari (non-deliverable forward, NDF) yetkazib berish sanasida autrayt kurs joriy bozor kursi bilan taqqoslanadi va yuzaga kelgan farq bitim summasiga ko‘paytiriladi. Shu tarzda olingan qiymat forvard bitimi bo‘yicha moliyaviy natijani ifodalaydi.

Amaliy misol. Ikkita bank o‘zaro $1\text{USD}=10200\text{UZS}$ kurs bo‘yicha 1 mln AQSh dollariga teng bo‘lgan oylik forvard bitimini tuzadi. Bir oydan keyin bozorda dollar kursi 10300 so‘mni tashkil etadi. Bu holatda forvard bitimi xaridori 100 mln so‘m yutadi, sotuvchi esa ushbu summani yutqazadi. Hisob-kitob forvardida bitimni bajarish uchun sotuvchi xaridorga 100 mln so‘m o‘tkazadi.

Forvard shartnomasi tuzilayotganida uning muddati, kursi va summasi qat‘iy belgilanadi. Ammo ijro muddati (1 yilgacha) yetib kelguncha hisob raqamlari bo‘yicha hech qanday summalar o‘tkazilmaydi. Ko‘pchilik banklar o‘zlarida mijozlar tomonidan ochilgan hisob raqamlarda ma‘lum bir summa bo‘lishini xohlaydilar. Biroq forvard shartnomalari hajm jihatidan chegaralanmay, pul ta‘minotini talab etmaydilar.

Forvard valyuta bitimining shartlari qattiq hisoblanadi, va agar mijoz uning shartlarini bajara olmasa, bank mijozning forvard valyuta bitimidagi majburiyatlarni bajarmasdan ketib qolishiga yo‘l qo‘ymaydi, balki bitimning muddatini “uzaytiradi” yoki bank o‘z hisobidan majburiy ravishda “so‘ndiradi”.

Forvard valyuta bitimi *qat‘iy belgilangan*, yoki *opsionli* bo‘ladi.

a) **qat‘iy belgilangan forvard valyuta bitimi** — bu, kelajakdagi aniq bir sanada bajarilishi shart bo‘lgan bitimdir. Masalan, 1 sentyabrda

tuzilgan qat'iy belgilangan ikki oylik forvard valyuta bitimi, ya'ni ikki oydan so'ng amalga oshiriladigan bitim;

b) **opsionli forvard bitimi** – bu, mijozning xohishiga ko'ra, yoki bitim tuzilgan vaqtdan uning bajarilishigacha bo'lgan davrning ichida xohlagan vaqtda, yoki ikkita aniq sana davomida amalga oshiriladigan bitimdir.

Qayd etib o'tish lozimki, forvard valyuta bitimi sof valyuta opsionlaridan farq qiladi. Valyuta opsioni mijozga kelishilgan bitim shartlarini bajarish va bajarmaslik huquqlarini beradi. Forvardli opsion esa, mijozga uni bajarmaslik huquqini bermaydi.

3.2. Forvard bo'yicha hisob-kitob sanalari

Forvard bitimini tuzishda uning shartlari tuzilgan vaqt bo'yicha qat'iy belgilanadi va ikkala tomon uchun majburiy hisoblanadi. Forvardning muddati turli xil bo'lishi mumkin, ko'pincha bitimlar bir, ikki haftaga yoki bir, uch, olti, to'qqiz va o'n ikki oyga tuziladi. Ko'pchilik fond va valyuta bozorlarida kelgusidagi kontraktlar 30, 60, 120 (va shu kabi) kunlarga doimo navbatdagi forvard sanasigacha bo'lgan 30 kun qo'shilishi bilan to'g'ri keladi, ya'ni taqvim oy tizimi qabul qilingan. Ammo shartnomada ishtirok etuvchi ikkala tarafning manfaatdorligi mavjud bo'lgan holatda shartnomalar turli boshqa muddatlarga ham tuzilishi mumkin.

Muddatlar taqvim tizimining soddaligi shundaki, agarda spot sanasi yanvar oyiga to'g'ri kelsa, unda bir oylik forvard muddati keyingi kalendar oyga, ya'ni fevral oyiga, ikki oyligi esa mart oyiga va shu kabi to'g'ri kelishi kerak. Agarda har bir taqvim oyning davomi 30 kunni tashkil etganda hech qanday muammo bo'lmas edi. Ammo agarda spot sanasi 31-yanvarga to'g'ri kelsa, fevral oyi esa atigi 28-kundan iborat bo'lsa nima qilish kerak.

Demak, forvard muddatlari aniqlanganda spot qoidasiga rioya etilishi zarur va unga asosan operatsiyalar amalga oshirilganda hisob-kitob kuni ikkala kliring tizimlarida ham bank kuni bo'lmog'i lozim. Shanba va yakshanba dam olish kunlaridan tashqari turli davlatlarda

mahalliy hamda milliy bayramlar mavjud – bu vaziyatni ancha murakkablashtirib yuboradi.

Turli nomuvofiqliklar va amaliyotda qo‘llanilish ehtimoli kamligiga qaramasdan forvard sanalarini belgilash tamoyilini quyidagidan ko‘rishimiz mumkin:

Agar spot sanasi	4-yanvarga to‘g‘ri kelsa
unda bir oy	4-fevralga
ikki oy	4-martga
uch oy	4-aprelga
olti oy	4-iyulga
to‘qqiz oy	4-oktyabrga
o‘n ikki oy	4-yanvarga (keyingi yil)
2 yil	4-yanvarga (2 yildan keyingi) to‘g‘ri keladi.

Kam uchraydigan standart forvard hisob-kitob sanalari, masalan 5, 7, 8 oy – taalluqli oyning 4-sanasiga to‘g‘ri keladi. Haftadagi yetti kundan ikkitasi bank ish kuni bo‘lmagan kunlar hisoblanadi va to‘lovlarning forvard sanasi dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, unda oyning ushbu kuni oylik taqvim jadvali harakat muddati davomida harakatdagi kun bo‘lib hisoblanmaydi. Agarda mantiqiy forvard sanasi bank ish kuni bo‘lmagan kunga to‘g‘ri kelsa, spot qoidasiga ko‘ra ikkala kliring tizimida ham navbatdagi kelayotgan birinchi ish kuni hisob-kitoblarning forvard sanasiga aylanadi. Shunday qilib, valyuta bozoridagi bir oy 30, 31 va 35 hamda undan ortiq kunlarni o‘z ichiga olishi mumkin.

Agarda bir oylik sana, ya‘ni yuqorida keltirilganidek 4-fevralga to‘g‘ri kelsa va bu sana kliring markazlaridan birida dam olish kuni bo‘lsa, unda hisob-kitoblar kuni sifatida 5, 6 kun yoki boshqa bir sana belgilanishi mumkin.

Oylik muddat spot sanasiga to‘g‘ri keladigan oyning o‘sha sanasiga to‘g‘ri kelmasa ham forvard hisob-kitoblarining boshqa sanalari 4-sanaga to‘g‘ri kelishi mumkin (agarda u ochiq kun talablariga muvofiq bo‘lsa). Shunday qilib, agarda spot sanasi 4-yanvarga, oylik sana 6-fevralga to‘g‘ri kelsa, unda boshqa hisob-kitob muddatlari taalluqli oylarning 4-sanalariga to‘g‘ri kelishi mumkin. Amaliyotda qisqa va

uzun forvard oylari paydo bo‘ladi hamda ushbu dalilni forvardlar bozorida faoliyat ko‘rsatuvchi dilerlar hisobga olishi zarur. Valyuta va depozit bozorlarida amalda bo‘lgan oyni oxiridagi hisob-kitoblar tizimi xalqaro zayomlar haqida kelishayotgan taraflar uchun sana belgilashning noaniq (tortishuvli) amaliyotini tashkil etadi.

Agar taqvim uslubiga murojaat etilsa muammo tug‘ilishi mumkin: agar oyning oxiriga to‘g‘ri keladigan spot sanasiga forvard oyida ushbu sanaga mos sana topilmasa nima qilish kerak. Masalan, bitim 29-yanvarda tugatilgan bo‘lsa va spot sanasi 31-yanvarga to‘g‘ri kelsa, unda oylik forvard sana 31-yanvarga to‘g‘ri kelmasligi kerak, chunki fevral oyida 28 yoki 29 taqvim kunlari mavjud. Bu muammoni quyidagicha hal etish mumkin: agar spot kuni oyning so‘nggi ish kuniga to‘g‘ri kelsa, unda ushbu kunga muvofiq keladigan forvard sanalari ham oyning so‘nggi ish kuniga to‘g‘ri kelishi kerak.

Shunday qilib, 31 yanvar spot sanasiga 28 yoki 29 fevral forvard sanasi muvofiq keladi. Bunda agar fevralning 28 va 29 sanalari dam olish kuniga to‘g‘ri kelsa, unda forvard sanasi 26, 27-sanalarga yoki oyning boshqa so‘nggi ish kuniga to‘g‘ri keladi. Valyuta bitimlarini oyning oxirida amalga oshirilishi forvard oyining oxirini avvalgi qator spot sanalari uchun forvard sanasiga aylanishiga olib kelishi mumkin.

Shunday qilib, turli mamlakatlar o‘rtasida shartnomalar amalga oshirilganda oyning oxiridagi spot sanasi forvard oylarining kunlarida bir qancha anglashilmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

“Nostandart” to‘lov muddatlari deganda, bitim amalga oshishining aniq bir kunini standart forvard tuzilmasiga kiritib bo‘lmaydigan, barcha forvard sanalari ko‘zda tutiladi. Agar standart forvard hisob-kitob sanalari 1, 2, 3 va shu kabi oylarga belgilansa, mijoz esa kotirovkani 2, 5 oyga olmoqchi bo‘lsa, bu degani mijoz hisob-kitoblarning “nostandart” muddatiga kursni hamda “nostandart” sanasini belgilashni so‘rayotganligini bildiradi.

Ayrim professionallar asosan spot asosidagi nostandart forvard sanalariga ixtisoslashadilar. O‘z xizmatlari uchun haqni ular odatda

sotuvchi va sotib oluvchi kurslari o'rtasidagi marjani kengaytirish orqali o'z kotirovkalari hisobiga oladilar.

3.3. Valyuta bozorida forvard kursining aniqlanishi

Muddatli valyuta shartnomalarining xususiyatli tomoni shundaki, shartnomani tuzish va uni ijro etish paytlari orasida vaqt intervali mavjud. Shu bilan birgalikda mazkur shartnoma bo'yicha valyuta kursi shartnoma tuzilish paytida aniqlanadi.

Birjaning kotirovka byulletenlarida shartnomalar uchun kurslar e'lon qilinadi, turli muddatlarga forvard shartnomalari bo'yicha kursni belgilash uchun mukofot va diskontlar ham beriladi.

Mukofot yoki diskont miqdori "spot" kursiga nisbatan barqarorroqdir. Shuning uchun banklararo bozorda muddatli shartnoma kursi kotirovka qilinganda faqat mukofot yoki diskont aniqlanadi.

To'g'ri kotirovkada mukofot "spot" kursiga qo'shiladi, diskont esa ayiriladi. Teskari kotirovkada esa diskont "spot" kursga qo'shiladi, mukofot esa ayiriladi.

Mukofot va diskont foizlar farqi spot kurs hamda shartnoma muddati hisobga olingan formula asosida hisoblanadi. Hisob-kitoblarda foydalaniladigan foiz stavkalari jahon yoki hududiy moliya bozorlarining foiz stavkalaridir. Jahon yoki hududiy moliya bozorlarining foiz stavkalaridan foydalanilishi barcha valyutalar uchun teng sharoitlarni ta'minlaydi, masalan valyuta emitenti bo'lmish mamlakatdagi minimal zaxiralar hisob-kitoblarda ishlatilmaydi.⁷

Diskont yoki mukofot quyidagi formula asosida hisoblanadi:

Spot kurs · foizlar farqi · kunlar

Diskont/mukofot = $(360 \cdot 100) + (\text{savdo qilinayotgan valyuta foizi} \cdot \text{kunlar})$

Agarda forvard shartlari asosida valyuta "spot" shartlariga nisbatan yuqoriroq kotirovka qilinsa, unda bu xorijiy valyuta mukofot bilan kotirovka qilinadi. Diskont esa buning teskarisidir.

⁷ Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. М.: КноРус, 2019. 424 с.

Mukofot yoki diskont usuli orqali aniqlangan muddatli kurs "autrayt" kursi deb ataladi.

Mukofot bo'lganda valyuta muddatga "spot" kursga nisbatan qimmatroq, diskont bo'lganda esa arzonroq kotirovka qilinadi.

Forvard shartnomalari bo'yicha mukofot va diskontning vujudga kelish sababi tegishli valyutalar yuzasidan muddatga, odatda forvard shartnomasi muddatiga teng, qisqa muddatli depozitlar bo'yicha foiz stavkalarining farqi hisoblanadi.

Mukofot yoki diskontni hisoblashning yana boshqa bir ko'rinishdagi formulasi mavjud, u quyidagicha:

$$M/D = \frac{(DFS_v \times KS - DFS_a \times TFK) \times SR}{100\% \times 360},$$

bu yerda, M/D – mukofot yoki diskont;

DFS_v – "v" valyutasidagi depozit bo'yicha foiz stavkasi, "v"-kotirovka qilinayotgan valyuta;

DFS_a – "a" valyutasidagi depozit bo'yicha foiz stavkasi, "a"-savdo qilinayotgan valyuta;

SK – spot kurs;

TFK – tahminiy forvard kursi, u quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$TFK = \frac{(DFS_v - DFS_a) \times SK \times FShM}{100\% \times 360},$$

bu yerda, FShM – forvard shartnomasining muddati.

Forvard bitimlari, valyuta xatarini sug'urtalashdan tashqari, shuningdek uzoq muddatli chayqovchilik pozitsiyasini ochish vositasi sifatida ham qo'llanadi. Bu holatda forvard valyuta pozitsiyasi joriy valyuta kursining ijobiy o'zgarishidan forvard pozitsiyasi muddati davomida foyda olish uchun qo'llanadi. Bunda forvard bitimi to'lov kunida tuzilgan qarama-qarshi spot bitim bilan, yoki dastlabki forvard kontraktiga teng bo'lgan qisqa muddatga tuzilgan teskari forvard bitimi bilan kompensatsiya qilinadi yoki qoplanadi.

Nazorat savollari

1. Forvard valyuta bitimining mohiyati va ahamiyati.
2. Forvard valyuta bitimining o'ziga xos bo'lgan jihatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Forvard valyuta bitimi qanday turlarga ajratiladi?
4. Forvard bo'yicha hisob-kitob sanalari qanday belgilanadi?
5. Valyuta bozorida forvard kursini aniqlash tartibi qanday?
6. "Autrayt" kursining mohiyatini ayting?

4-BOB. FYUCHERS SHAKLIDAGI VALYUTA OPERATSIYALARI

4.1. Fyuchers valyuta operatsiyasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari.

4.2. Fyuchers bozori va uning iqtisodiyotdagi roli.

4.1. Fyuchers valyuta operatsiyasining mohiyati va o'ziga xos xususiyatlari

Valyutalar bo'yicha fyuchers bitimlari – bu kelajakdagi ma'lum bir sumмага ma'lum hajmdagi valyutani oldindan belgilangan kurs bo'yicha oldi-sotdi qilish bitimidir. Bu jihatlari bilan ular forvard valyuta bitimlariga o'xshaydilar, biroq, forvard bitimlaridan farqli o'laroq, ular:

a) juda oddiy tarzda bekor qilinadi;

b) valyutalar savdosi bo'yicha bitim qat'iy belgilangan standart summaga tuziladi (masalan, AQSh dollariga fyuchers bo'yicha 25000 funt sterling, AQSh dollariga fyuchers bo'yicha 125000 yevro va h.k.);

d) rasmiy birjalarda sotiladi;

e) fyuchers sotuvchilari fyuchers majburiyatlari bajarilishini kafolatlash uchun birja dilerlariga “pullik marja”ni to'lashni ko'zda tutishlari kerak.

Bitimning tugallanishigacha qayta baholanish natijasida yuzaga keluvchi taqchillikni qoplashga kiritilishi lozim bo'lgan marja tizimi — kafolatning a'zolik badalini ta'minlaydi.

Birjaga a'zo bo'lish yoki birjada operatsiyalarni amalga oshirish istagini bildirgan har qanday tomon birjada bitimlarni amalga oshirishning huquqiy va amaliy jihatlari bilan tanishishi lozim. Yana shuni hisobga olish kerakki, tashkilot yoki rasmiy shaxs nomidan birjada qatnashayotgan birja a'zosi o'zining birjaga birinchi kiritgan marjasidan ko'proq marjani talab etishi mumkin. Bunga sabab, har kuni marjaga

kerak bo'lgan mablag'ni so'rab, tashkilotni bezovta qilmaslikdir. Bu asosan, bozor nihoyatda tez o'zgaruvchan va nobarqaror holatda bo'lganida namoyon bo'ladi.⁸

Fyuchers hosilaviy moliyaviy instrumentlar turkumiga kiradi. Fyuchers operatsiyalari birjadagi muddatli operatsiyalar bo'lib, xomashyo tovarlari, oltin, valyuta, moliyaviy va kredit instrumentlarini shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etilgan bahoda sotish yoki sotib olishdan iborat. Bunda shartnomaning ijrosi kelgusida (2-3 yilda) amalga oshadi.

Fyuchers shartnomalari ijro etilgunga qadar, kafolat sifatida, ma'lum bir summa bo'nak shaklida birjaga to'lanadi. Operatsiyalar bilan bog'liq hisob-kitoblar kliring palatasi orqali amalga oshiriladi va ushbu palata sotuvchi hamda sotib oluvchi o'rtasida vositachi bo'lib, shartnomaning ijro etilishini kafolatlaydi.

Fyuchers operatsiyalarining ko'pchiligi tovar yoki boshqa bir savdo obyektlarini yetkazib berish bilan yakunlanmaydi, chunki ushbu shartnomaning asosiy maqsadi xedjinglash, ya'ni aktivlar yoki majburiyatlarni baholar, kurslar yoki foiz stavkalari o'zgarishi xavf-xataridan himoyalashdir (sug'urtalash). Buning uchun birjada naqdli operatsiyalarga parallel ravishda, summalari jihatidan teng, ammo ularga qarama-qarshi bo'lgan fyuchers operatsiyalari amalga oshiriladi.

Xomashyo tovarlari bilan fyuchers operatsiyalari XIX asrning 2-yarmidan boshlab amalga oshiriladi. Bretton-Vuds valyuta tizimining inqirozi va Yamayka valyuta tizimi sharoitida erkin suzuvchi valyuta kurslarining kiritilishi valyuta kurslari, foiz stavkalari, oltin bahosini tebranishidan himoyani talab eta boshladi. Shu sababli 1972 yildan boshlab xorijiy valyuta va oltin bilan fyuchers operatsiyalari amalga oshirila boshlandi. 1975-yildan boshlab ushbu operatsiyalar sertifikatlar, veksellar, obligatsiyalar, depozitlar bilan amalga oshirila boshladi. 1982 yilda bahosi turli fond indekslarida bo'lgan fyuchers operatsiyalari paydo bo'ladi.

⁸ Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. 9th ed. 2018. 808 p.

Tovar birjalari uchun an'anaviy bo'lmagan moliyaviy instrumentlar bilan fyuchers operatsiyalarining yig'indisi moliyaviy fyucherslar nomini oldi. Moliyaviy fyucherslar birja shartnomalariga kiradi.

Fyuchers shartnomasi ikki vazifani bajaradi: birinchidan, investorlarga bozordagi kursning noqulay o'zgarishi bilan bog'liq riskni xedjirlash imkonini beradi; ikkinchidan, spekyulantlarga bundan foyda olish imkonini beradi. Valyuta kursi qanchalik o'zgaruvchan bo'lsa, xedjirlashga talab shuncha ko'p bo'ladi. Riskning bunday o'sishiga javoban fyuchers bozorlari tashkil topgan.⁹

Fyuchers va opsionlar muddatli bitimlar bozorining eng muhim va eng likvidli vositalari bo'lib hisoblanadi, shuning uchun ular o'rtasidagi asosiy farqlarni qisqacha tavsiflab o'tish joiz. Fyuchers xaridori (sotuvchisi) u yoki bu mahsulotni kelgusida avval kelishilgan narx bo'yicha to'lash va qabul qilish (to'lovni qabul qilish va yetkazib berish) majburiyatini oladi. Opsion egasi esa, turli muddatdagi u yoki bu mahsulot miqdorini belgilangan vaqt davomida yoki kelajakda belgilangan vaqtgacha sotish yoki xarid qilish majburiyatini emas, balki huquqini qabul qiladi. Agar opsion xaridori o'z opsionidan foydalanishni xohlasa sotuvchi bu talabni qondirishga majbur.

Bu huquqqa ega bo'lish uchun opsion xaridori premiya to'laydi. Shunday qilib, fyuchers shartnomasini xarid qilib, uning xaridori narx o'zgarishi bilan bog'liq salbiy riskni cheklanmagan zararlar bilan to'liq zimmasiga oladi. Opsion bilan bo'lgan holatda esa, mahsulot bahosi xaridorning salbiy tomoniga qarab o'zgarsa, uning riski faqat to'langan premiya bilan cheklanadi.

Opsion birjada savdo qilingani kabi, birjadan tashqarida ham savdo qilinishi mumkin. Treyderlar opsionni xarid qilganlarida, hech qanday marjani to'lamasdan, faqatgina premiya bo'yicha to'lovni amalga oshiradilar. Lekin, u opsionni sotsa, u bir kun uchun ko'rilishi mumkin bo'lgan zararga teng summani marja hisobiga kiritishi lozim (bu qiymat opsion bahosining u yoki bu omil ta'sirida

⁹ Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. М.: КноРус, 2019. 424 с.

o'zgarish modeli asosida ishlab chiqilgan maxsus dasturlar yordamida amalga oshiriladi).

4.2. Fyuchers bozori va uning iqtisodiyotdagi roli

Fyuchers operatsiyalarida ko'pchilik broker firmalari, investitsiya institutlari, sanoat va savdo monopoliyalari, alohida investorlar ishtirok etadi. Shu bilan birgalikda ushbu operatsiyalarda tijorat banklari katta rol o'ynaydi. Buning uchun ular alohida maxsus shu'ba kompaniyalar yoki bo'limlarni tashkil etadi.

Fyuchers operatsiyalarini tartibga solish (muvofiqlashtirish) birja rahbariyati, markaziy banklar va moliya vazirliklariga yuklatilgan. AQShda muddatli savdo bo'yicha maxsus Federal komissiya tashkil etilgan.

Fyucherslar birjasidagi marja tizimi (kafolat badali) har qanday kamomadlarni qoplash imkonini beradi. Ushbu kamomadlar fyuchers kontraktlarining birjada kundalik asosda birja yopilishi paytiga qayta baholanishi oqibatida hosil bo'ladi. Shu sababli kafolat badali birja savdosining ishtirokchisi tomonidan shartnoma amalga oshirilgunga qadar birjaga to'lanishi lozim.

Masalan, sotib oluvchi birjada 30000 GBP hajmidagi 1 GBP = 1,5 USD kursida, ijrosi dekabrda (uchinchi chorshanba yoki navbatdagi birinchi ish kuni) bo'lgan fyuchers kontraktini sotib olmoqda. Bu degani, tuzilayotgan kontraktning qiymati 45000 USD. Sotib oluvchi birjaga 1500 USD hajmida kafolat badalini to'laydi. Birja o'z navbatida har ish kunining oxirida ijro etilmagan kontraktlarni birjaning yopilishiga bo'lgan kurs asosida qayta baholashni amalga oshiradi.

Agar ushbu ish kunining oxiriga GBPning kursi pasayib 1,48 USDni tashkil etsa, sotib oluvchi 600 USD hajmida zarar ko'radi. Bunda birja sotib oluvchidan kafolat badaliga qo'shimcha pul o'tkazishni talab etmaydi. Chunki sotib oluvchining ko'rgan zarari u hosil qilgan kafolat badali summasidan oshib ketmadi. Bizning misolimizdagi bo'nak qoldig'i 900 USD bo'ladi. Bo'nak badalini o'tadigan marja hajmiga

(1000 USD) yetkazish maqsadida birjaga 100 USD o'tkazishi kerak bo'ldi.

Aksincha, kunlik qayta baholash natijasida foyda hosil bo'lsa, unda u sotib oluvchining hisob raqamiga o'tkaziladi (minimal 1000 USD o'tadigan marja saqlangan holda).

Fyuchers bozori – bu markazlashgan bozor bo'lib, unda raqobatdoshlik asosida tovarni yetkazib berishga fyuchers kontraktlari sotiladi va sotib olinadi. Muayyan tovarga bo'lgan har bir kontrakt standartlashgan (ya'ni, kelishilgan muddatdan so'ng, belgilangan qat'iy kunda, yetkazib beriladigan ma'lum bir miqdor va sifatdagi tovarni namoyon etadi).¹⁰

Kontraktning barcha shartlari standartlashtirilganligi sababli muhokama etiladigan yagona narsa bu, tovarning bahosidir (u savdo zalida aniqlanadi).

Fyuchers bozorining iqtisodiyotdagi roli birinchidan, baholarni aniq belgilash, ikkinchidan xedjinglash uchun sharoit yaratish, ya'ni buho xavf-xatarlarini sug'urtalashdan iborat.

Fyuchers shartnomasi brokerning Hisob-kitob (kliring) palatasi oldida kelgusida ma'lum bir tovarni sotish yoki sotib olish haqidagi real majburiyati bo'lib hisoblanadi.

Kelgusida yetkazib beriladigan tovarning bahosi shartnoma tuzilayotgan paytda qayd etiladi.

Tovarga haq to'lanishi va tovarning yetkazilishi shartnomada ko'rsatilgan oyda hamda savdo Qoidalari bilan belgilangan kunlarda (etkazib berish oyning 28, 29, 30- sanalarida) amalga oshiriladi.

Fyuchers shartnomalar bozori ikki asosiy qulayliklarga ega: riskni xedjirlash orqali boshqarish va narxlarning shaffofligi. Xedjirlar fyuchers shartnomasidan narx riskining noqulayliklarini boshqalar zimmasiga, odatda foyda olish maqsadida faoliyat yuritayotgan spekyulantlarga yuklash maqsadida foydalanishadi.

Agar fyuchers bozori mavjud bo'lganida narx riskini samarali boshqarish imkoni bo'lar edi: jamiyat uchun risk qiymati yuqori bo'lar edi.

¹⁰ Красавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2016. 543 с.

Fyuchers shartnomasining yana bir afzallik tomoni uning bahosining shaffofligidadir, ya'ni bozorning haqiqiy muvozanatli narxni aniqlay olishida. Fyuchers shartnomalari bozorida markazlashgan savdo amalga oshiriladi, bunda bozorning barcha ishtirokchilari ma'lum mahsulot uchun talab va taklif to'g'risidagi axborotga ega bo'lishlari mumkin. Nisbatan muvozanatga ega narxlardan foydalanish mablag'larni to'g'ri taqsimlashga imkon beradi, chunki xaridor va ishlab chiqaruvchi joriy paytda kelajakka nisbatan qanday mahsulotni iste'mol qilish, qandaylarini ishlab chiqish, qanday ishlab chiqish va qancha iste'mol qilish kabi savollarga javob topishlari lozim.

Shu bilan birga fyuchers shartnomalari ham muayyan kamchiliklarga ega, jumladan andozalashganligi bilan, fyuchers shartnomalari xedjirlash ehtiyojlariga mos kelmasligi mumkin. Bunda xedjer bazis riskka, ya'ni fyuchers pozitsiyasi bo'yicha daromad spot pozitsiyasidagi daromad farq qilishi bo'yicha riskka uchrashi mumkin.

Nazorat savollari

1. Fyuchers bitimlarining mohiyati va ahamiyati.
2. Marja tizimi nima va qanday tartibda amal qiladi?
3. Moliyaviy fyucherslarning mohiyatini izohlang
4. Fyuchers bozorining mohiyatini va uning iqtisodiyotdagi rolini ayting?
5. Fyuchers shartnomalarining afzallik va kamchiliklari nimalarda namoyon bo'ladi?

5-BOB. OPSION SHAKLIDAGI VALYUTA OPERATSIYALARI

- 5.1. Opsion valyuta operatsiyasining mohiyati va turlari.
- 5.2. Opsion bahosini aniqlash.
- 5.3. Opsionning afzallik va kamchiliklari.

5.1. Opsion valyuta operatsiyasining mohiyati va turlari

Valyuta opsiioni uning xaridoriga ma'lum bir huquqni beradi, ayni paytda, uning zimmasiga kelajakdagi ma'lum muddatda belgilangan narx bo'yicha xorijiy valyutaning muayyan miqdorini xarid qilish yoki sotish majburiyatini yuklamaydi.

Opsion – lotincha “optio” so'zidan olingan bo'lib, tanlov ma'nosini beradi. Opsion – bu, ma'lum bir aktivni shartnomada qayd etilgan bahoda, oldindan kelishilgan sanada yoki kelishilgan ma'lum bir davr ichida sotib olish yoxud sotish huquqini (sotib oluvchi opsiioni uchun) boshqa shaxsga berilishi haqidagi ikki tarafdin shartnomadir.

Opsion shartnomasi bo'yicha hamkorlar bo'lib turli huquq va majburiyatlarga ega bo'lgan uning sotib oluvchisi va sotuvchisi hisoblanadi.

Opsion sotib oluvchisi opsiion sotuvchisidan valyutaning ma'lum bir miqdorini o'zaro kelishilgan kurs (ijro bahosi) asosida, belgilangan kunda yoki ma'lum bir davr ichida sotib olish yoki unga sotish huquqiga egadir. Opsion sotuvchisi sotib oluvchiga talab qilinayotgan valyutani o'zaro kelishilgan shartlar asosida yetkazib berishi yoki ularni undan qabul qilib olishi lozim. Ushbu majburiyatlarni o'z zimmasiga olganligi uchun sotuvchi bitim tuzilganidan keyin 2 bank ishi kunidan so'ng opsiion sotib oluvchisidan mukofotni oladi.

Opsionni sotuvchi xaridor oldida kelajakdagi muayyan muddatda qat'iy belgilangan narx bo'yicha muayyan miqdordagi xorijiy valyutalarini xarid qilish va sotish majburiyatlarini o'z zimmasiga oladi.

Opsion xaridori (shuningdek, opsion egasi deb nomlanadi) ushbu operatsiyani amalga oshirish huquqini olish evaziga belgilangan miqdordagi pulni – vositachilik haqini to‘laydi. Opsion oldindan belgilangan muddatgacha kuchga ega bo‘ladi. Ushbu muddat ekspiratsiya sanasi deb ataladi.¹¹

Valyuta opsiioni sotib oluvchiga valyutani oldindan kelishilgan kurs asosida sotib olish yoki sotish huquqini (majburiyatini emas) taqdim etganligi uchun u, ushbu orqali quyidagi ikki masalani hal qiladi:

– opsion, valyuta ayirboshlanishi paytidagi ehtimolli zararlardan kelishilgan eng kichik kurs orqali sotib oluvchini himoya qiladi;

– opsion sotib oluvchisi valyuta kursining o‘ziga manfaatli bo‘lgan paytida o‘z huquqidan foydalanmaslik hamda to‘lov muddati kelganda valyutani erkin bozorda sotib olish yoki sotish imkoniga egadir.

Shu sababli opsiionni ko‘p holatlarda sug‘urta polisi bilan tenglashtirishadi. Sotib oluvchi tomonidan opsion valyuta bozoridagi vaziyat uning uchun faqat nomuvofiq holatda bo‘lgandagina ishlatiladi.

Valyuta opsiioni birinchi marta 1982-yili Filadelfiya birjasida amalga oshirilgan edi. Opsiondan investitsiya portfelining muhim elementi va sug‘urtalashning samarali usuli sifatida foydalanish uchun uning qanday ishlashini bilish lozim.

Opsionlarning quyidagi *ikkita asosiy turi* mavjud¹²:

- “*koll-opsion*” yoki xarid qilish uchun opsion;
- “*put-opsion*” yoki sotish uchun opsion.

Masalan, koll-opsionning xaridori 1 AQSh dollariga 10500 so‘m nisbatdagi kurs bo‘yicha 100 AQSh dollarini sotib olish huquqiga ega bo‘ladi. Put-opsionning xaridori esa, xuddi o‘sha shartlarda oldindan belgilangan muddatda, masalan, joriy oyning 30 sanasiga qadar ushbu narxlar bo‘yicha AQSh dollarini sotish huquqiga ega. Opsionning sotuvchisi koll-opsion holatida opsiionni bajarishi, ya’ni sotishi lozim. Put-opsion holatida esa, opsion xaridori buni talab qilsa, muayyan tovarni sotib olishi shart, “hisob-kitob” opsiioni bajarilgan holda foyda (zararlar) pul shaklida hisoblanadi.

¹¹ Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. М.: КноРус, 2019. 424 с.

¹² Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. М.: КноРус, 2020. 542 с.

Valyuta opsiionlari valyuta riskini kamaytirish va oldini olish maqsadida foydalaniladi.

Agar ayirboshlanish kursining yaxshi tomonga o'zgarishi yuz bersa, opsiion import qiluvchi (eksport qiluvchi) undan daromad olish imkoniyatini tug'diradi (bunda u forvard valyuta bitimlaridan import qiluvchi (eksport qiluvchi)ning qat'iy belgilangan kursga bog'lanib qolishining oldini oladi).

Shuningdek, opsiionlarning amerika va yevropa turlari mavjud.

Amerika opsiioni deb, odatda, opsiionni harakat muddatini xohlagan vaqtida bajarilishiga aytiladi. Shuning uchun, opsiionni harakat muddati uning birinchi va oxirgi hisob-kitob sanasi orasida o'rnatiladi.

Yevropa opsiioni deb, odatda opsiionning faqat hisob-kitobning ma'lum bir oxirgi aniq davrida bajarilishiga aytiladi. Opsion bitimi bo'yicha hisob-kitobni amalga oshirish uchun ikki ish kuni olinadi.

Valyuta opsiionlari turli moliya institutlarida rasmiylashtirilishi mumkin, xususan bankning mijozlari uchun yoziladigan – birjadan tashqari opsiionlar va opsiion birjalaridan sotib olish mumkin bo'lgan – birja opsiionlari.

Birjadan tashqari opsiionlar odatda bank tomonidan ishbilarmon mijozga yozilib, ularning eng asosiy kamchiligi – muomalasining yo'qligi hisoblanadi. Mijoz opsiionni bajarilish sanasigacha ushlab turishi yoki uni bajarishi, yoki uning muddatini o'tib ketishiga yo'l qo'yishi kerak.

5.2. Opsion bahosini aniqlash

Opsion sotuvchisi valyutani sotishga (yoki sotib olishga) majbur, opsiionni sotib oluvchi shaxs esa buni qilishi shart emas. Ya'ni, u valyutani sotib olishi yoki sotib olmasligi (sotishi yoki sotmasligi) mumkin. Demak, opsiion sotib oluvchini almashuv kursini kelishilgan "strayk" bahodan yuqori yoqimsiz o'zgarishidan himoya qiluvchi, valyuta xatarlarini sug'urta qilish shaklidir. Agarda opsiionning almashuv kursi "strayk" bahodan ortib unga yoqimli tarafga o'zgarsa daromad olish imkonini beradi.

Opsionning “strayk” bahoga nisbatan almashuv (joriy) kursining o‘shishi “apsayd” (inglizcha “upside” – yuqori tomoni) deb ataladi. Uning “strayk” bahoga nisbatan pasayishi esa “daunsayd” (inglizcha “downside” – pastki tomoni) deb ataladi.

Opsionning 3 turi mavjud, ya’ni:

1. Sotib olishga opsion (“call option”) – bu opsionni sotib oluvchi shaxsni, valyuta kursining o‘shish xavfidan (yoki ma’lum bir sanaga hisob-kitob qilishdan) o‘zini himoya qilish maqsadida, mazkur valyutani sotib olish (yoki hisob-kitobni amalga oshirish) huquqidir (majburiyati emas).

2. Sotishga opsion (“put option”) – bu opsionni sotib olgan shaxsni, valyuta qadrsizlanishidan o‘zini himoya qilish maqsadida, shu opsionni sotishga (yoki ma’lum bir sanaga hisob-kitob qilish) huquqini (majburiyatini emas) bildiradi.

	Sall option	Put option
Sotib oluvchi	Sotib olish huquqi	Sotish huquqi
	Mukofotni to‘lash	Mukofotni to‘lash
Sotuvchi	Sotish majburiyati	Sotib olish majburiyati
	Mukofotni olish	Mukofotni olish

2. Opsion stellaj (nemischa “stellage”) yoki (“put-call option”) – bu opsion egasiga valyutani bazis bahosi bo‘yicha sotib olish yoki sotish huquqini beradi (bir vaqtning o‘zida sotib olish va sotishni emas). Opsionda uning muddati ko‘rsatiladi.

Opsion bahosi bir qator omillarga bog‘liq bo‘ladi:

- joriy valyuta kursi (spot);
- bozorning o‘zgaruvchanligi;
- ekspiratsiyagacha bo‘lgan muddatning uzunligi;
- o‘rtacha bank foiz stavkasi;
- talab va taklif munosabati.

Opsion bahosi ikki tuzilmadan tashkil topgan:

- ichki (haqiqiy) qiymat;
- tashqi (vaqtinchalik) qiymat.

Opsionning muddati – bu sana yoki ma’lum bir davr bo’lib, sana yoki davr muhlati o’tib ketisa, mazkur opsionni ishlatib bo’lmaydi.

Opsion o’z kursiga ega. Opsion kursi – bu uning strayk bahosidir (inglizcha “strike price”). Bu valyutani sotib olish (“put”) yoki sotish (“call”) mumkin bo’lgan, ya’ni opsion aktivi bahosidir.

Opsionni sotib oluvchi shaxs opsionni sotuvchi yoki uni yozib bergan shaxsga mukofot deb atalmish vositachilik haqini to’laydi.

Mukofot bu, opsionning bahosidir. Opsionni sotib oluvchi shaxsning xatari shu mukofot miqdori bilan cheklanadi, o’z navbatida opsionni sotuvchi shaxsning xatari esa olingan mukofot miqdoriga kamayadi.

Mukofotni sotib oluvchi kotirovka valyutasida to’laydi. Mukofotning hisob-kitobi uchun turli formulalardan foydalaniladi. Ulardan eng mashhuri Black-Scholes formulasidir, uni XX-asrning 70-yillarida AQShlik Black va Scholes taklif qilishgan. Valyuta opsionlari uchun Black-Scholes formulasining modifikatsiyasi bo’lmish Garman & Kohlhagen modeli ataylab ishlab chiqilgan. Opsion mukofotining katta-kichikligi quyidagi ikki komponentdan tashkil topadi: ichki qiymat va davriy qiymatdan.

Ichki qiymat (boshqacha nomi ichki qimmatligi) – bu, opsion egasini uni sotishdan olgan to’liq daromadi. Opsion mukofotining pastki chegarasi ichki qiymatga tengdir. Chunki sotuvchi opsionning strayk bahosi va joriy bahosi (“spot” kurs) sifatidagi farqdan kichik bo’lgan mukofotga rozi bo’lmaydi.


Misol. “Spot” kurs 1 AQSh dollari 10500 so’mni tashkil etadi. Opsiondagi sotib olish “strayk” bahosi 10000 so’m. Opsion egasi AQSh dollarlarini 1 AQSh dollari 10000 so’m bahoda sotib olishi va 1 AQSh dollari 10500 so’m bahoda sotishi mumkin. Bunda opsionning ichki qiymati 500 so’mni tashkil etadi.

“Ichki qiymat” tushunchasidan kelib chiqqan holda opsionlar quyidagilarga farqlanadi¹³:

1. “Puldagi opsionlar” (inglizcha “in the money option”).
2. “Pulni oldidagi opsionlar” (inglizcha “at the money option”).

¹³ Эскиндаров М., Звенова Е. Мировые финансы. Учебник. М.: КноРус, 2019. 424 с.

3. “Pulsiz opsiolar” (inglizcha “out of the money option”).



Koll opsioli (a) va put opsioli (b). (b)

Opsionning almashuv kursi uning shartnoma, strayk bahosidan yuqori bo‘lsa “puldagi opsioli” bo‘ladi. “Puldagi opsioli” mustaqil ijobiy qiymatga ega, ya‘ni fyuchers joriy bahosidan past bo‘lgan sotish bahosiga ega sotuvchi opsioli yoki sotish bahosi, fyuchers joriy bahosidan past bo‘lgan sotib olish opsioli.

Bazis bahosi taxminan joriy bahosiga teng, ya‘ni mustaqil bahosi nolga teng bo‘lgan opsioli - “pulni oldidagi opsioli” bo‘ladi.

Salbiy mustaqil qiymatga ega bo‘lgan opsioli - “Pulsiz opsioli” bo‘ladi.

Opsionning bahosiga foiz stavkasi ta‘sir etadi. Yuqori bank stavkasida opsioli jozibadorligi pasayadi. Investorda mablag‘larni joylashtirishning muqobil imkoniyati yaratiladi. Bir tomondan, opsioli sotuvchisi katta bahoni beradi, chunki u sotuvdan mablag‘larni depozitga joylashtirishdan keladigan daromad kam bo‘lgan foydaga ega bo‘lishni xohlaydi. Boshqa tomondan, opsioli xaridori shartnomani tuzishda huddi shunday daromad keltiruvchi aksiya yoki boshqa investitsiyalar xaridiga qaraganda kamroq mablag‘larni ishlatadi. Bundan tashqari, opsioli xaridi valyuta kursi va foiz stavkasi tebranishidan kelib chiqib, shartnomani bajarish (yoki bajarmaslik) huquqini beradi.

Davriy qiymat opsiolar savdosida xavf-xatarlarni aks ettiradi. Hunday xatarlarni katta yoki kichikligiga “strayk” baho, valyuta kurslarining o‘zgaruvchanligi, foiz stavkalari, valyuta bozorida talab va taklif miqdorlari ta’sir etadi.

Opsiolar joriy bahosi va “strayk” baholarining tengligi sharoitida davriy qiymat o‘zining eng katta miqdoriga yetadi. Chunki, opsiolar joriy bahosining u yoki bu tarafga og‘ish ehtimolligi nihoyatda yuqori. Agarda opsiolarning ijro sanasiga joriy bahosi (“spot” kurs) tebranish ehtimoli nolga yaqinlashsa, unda davriy qiymat ham nolga teng bo‘ladi.

Sotib oluvchi valyuta kursining pasayishidan ham yutadi. Agarda, opsiolarni ishlatilish kuniga kelib joriy kurs (“spot” kurs) opsiolar kursidan past bo‘lsa, sotib oluvchi opsiolaridan foydalanmasligi mumkin va AQSh dollarlarini, kursning pasayishi oqibatida yutgan holda, naqdli bozorda sotib olishi mumkin.

Sotib olishga opsiolar, egasiga valyutani nisbatan past kursda sotib olish va daromad olish huquqini beradi. Bu daromad quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$D=(R_1 - R_0) \cdot n - R_n$$

yoki

$$D=(R_1 - R_0 - R) \cdot n,$$

bu yerda, D – sotib olishga opsiolaridan keladigan daromad;

R_1 – opsiolar ijrosi paytidagi bozordagi valyuta kursi (spot-kurs);

R_0 – “strayk” baho (valyutani sotib olishga opsiolar kursi);

R – opsiolar mukofoti (opsiolar bahosi);

n – opsiolar bo‘yicha sotib olinayotgan valyuta miqdori.

Sotishga opsiolar, egasiga bozor tomonidan past darajada baholangan valyutani nisbatan yuqori kursda sotish va daromad olish huquqini beradi. Bu daromad quyidagi formula asosida hisoblanadi:

$$D= (R_1 - R_0 - R) \cdot n.$$

Shunday qilib opsiolarga egalik qilish uni sotib olgan shaxsga oldindan bilib bo‘lmaydigan kelgusidagi o‘zgarishlardan o‘zini himoya qilish imkonini beradi. Opsion shartnomasi, opsiolar egasi uchun ijro

etilishi majburiy bo'lgan shartnoma emas. Shuning uchun ham agarda opsiyon amalga oshirilmasa egasi uni berib yuborishi yoki ishlatmasdan qoldirishi mumkin.

Opsiyon va forvard kontraktlari o'rtasidagi asosiy farqlar:

- sotib oluvchi apsayddan foyda oladi;
- sotib oluvchi daunsayddan himoya qilingan;
- sotib oluvchi opsiyon uchun mukofot to'laydi.

Opsiyon shartnomalari bu shunday forvard shartnomalarki, ular tuzilganidan so'ng mijoz kontraktning bajarilishini talab etishi mumkin¹⁴:

a) kontrakt tuzilgan sanadan boshlab, xohlagan kunda va kelgusidagi istagan sanasigacha;

b) ikki sana orasidagi xohlagan muddatida, bu ikkala sana kelgusidagi sanalardir.

Mijoz valyuta sotilishining aniq muddatiga ega bo'lmasa, to'lov muddatini o'z ichiga oladigan, to'la oylarni qoplay oladigan opsiyon kontraktlari ishlatiladi.

Opsiyon shartnomalari qo'llanilishidan maqsad shundaki, forvard kontraktlarini yangilash yoki ularni bir necha kunga uzaytirish zaruratidan xolis bo'lishdir. Bu esa kunlik hisobda juda qimmatga tushishi mumkin. Shuning uchun mijoz opsiyon kontraktidan foydalangan holda hatto aniq muddatga ega bo'lmasa ham o'z valyuta xatarini qoplash imkoniga ega bo'ladi.

Forvardli opsiyon kontrakti mijoz va bank o'rtasida tuzilayotgan paytda, sotuvchi hamda sotib oluvchining kurslari aniqlanishi lozim, chunki bank uni kotirovka qiladi. Albatta bank o'zi uchun qulay bo'lgan kursni shu opsiyon davri uchun kotirovka qiladi. Bu masala ahamiyatli, chunki mijoz kontraktning ijro etilishini opsiyon davrining istalgan sanasida talab etishi mumkin. Bunda bank shunga ishonch hosil qilishi kerakki, mijoz bank hisobiga qulay kursga ega bo'lib qolmasin.

¹⁴ Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. 9th ed. 2018. 808 p.

5.3. Opsionning afzallik va kamchiliklari

Valyuta opsionlarining ommabopligi o'sib, undan foydalanish borgan sari kengayib bormoqda. Banklar o'z mijozlariga ularni sotishda fiol qatnashishga harakat qiladilar.

Opsionlarning afzalliklari. Standart opsionning afzalliklaridan biri – bu u bilan bo'ladigan savdoni tashkil etish osonligida. Birjadagi opsion fyuchers shartnomalar savdosidagi qoidalar bilan tartibga solinadi. Opsion ikki maqsadda amalga oshiriladi: xedjirlash va spekulyatsiya. Boshqa muddatli bitimlardan farqli ravishda, opsion operatsiyasi opsion egasiga nafaqat uni sug'urtalashga, balki unga narxning qulay o'zgarishdan foydalanish imkonini ham beradi. Masalan, forvard va fyucherslarda bitta narxni qat'iy belgilashni talab qilinadi. Opsion bo'yicha risk opsion sotuvchisi premiyasi bilan cheklangan va u narx o'zgarishi bilan bog'liq boshqa risklardan saqlangan. Xedjirlar, shuningdek, opsionni sotib, nisbatan tinch bozorda premiyani olishi mumkin. Premiya mahsulot qiymatining bir qismi bo'lganligi uchun, mazkur mahsulotga to'g'ri investitsiyalashga nisbatan narx o'zgarishi riskiga ko'proq erishish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganidek, birjadan tashqari opsion xaridorning xususiy talablarini qondira oladi. Opsion muddatli bitim sifatida investorlarga katta imkoniyatlarni taqdim etadi. Strayk bahosi va tugatish sanasi har xil bo'lgan, turli xildagi opsionlar kombinatsiyasidan foydalanib, investor o'zi xohlaganidek risk darajasini qurishi mumkin. Ba'zi kombinatsiyalar faqatgina spekulyativ operatsiya uchun mo'ljallangan bo'lib, ular investorga bozorda mos strategiyani shakllantirishga yordam beradi. Xedjing strategiyalarning mashhur usullaridan biri minmaks yoki kollar opsioni hisoblandi. U bir vaqtning o'zida “pulsiz” put opsionini xarid qilish (sotishning minimal bahosini kafolatlaydi) va “pulsiz” kol opsionini sotishda (narxni belgilangan darajadan ortib o'sishida ishtirok etishni cheklaydi) aks etadi. Koll opsionini sotishda premiya put opsionini xarid qilish xarajatiga qisqaradi. Agar koll opsionini sotishdagi premiya put opsionini xarid

qilish harajatlari bilan mos kelsa, opsiyon nol harajatli (zero cost collar) deb yuritiladi.

Opsiyonlarning kamchiligi. Forvard operatsiyasi kabi bozor ishtirokchilari kredit riskiga duch keladilar. To‘lanmasligi bois opsiyon shartnomalari birjadan tashqarida, asosan, to‘lov qobiliyati shubha tug‘dirmaydigan yirik bank va moliya korporatsiyalari tomonidan tuziladi.

Valyuta opsiyonlarining quyidagi kamchiliklari mavjuddir:

a) Baho. Valyuta opsiyonlari kompaniyalarni nafaqat yomon holatlardan, hatto, valyuta risklaridan ham himoya qiladi, balki ularga valyuta kurslarining “ijobiy” o‘zgarishidan foydalanish imkoniyatini beradi. Bu xizmat so‘zsiz qimmatli hisoblanadi. Mukofotning bahosi valyuta bilan qoplangan umumiy summaning 5 foiz atrofini tashkil qiladi, shunday bo‘lsada, summaning aniqligi kutilayotgan kursning ayirboshlanishi o‘zgarishiga bog‘liqdir.

b) “Oldindan” to‘lovning zarurligi. Valyuta opsiyonlari uning tuzilish vaqtida to‘lanadi. Bu barcha kompaniyalarga yoqmaydi, chunki ular opsiyonni amalga oshirishni istasalar ham, ular har doim naqd pulga ega bo‘lmaydilar.

d) Savdo opsiyonlarini barcha valyutalarga nisbatan olib bo‘lmaydi, shunday bo‘lsada, birjadan tashqaridagi opsiyonlar har qanday erkin konvertirlanadigan valyutaga erkin tarzda sotiladi.

e) Birjadan tashqari opsiyonlarning muomalasi mavjud emasligi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, muddatli operatsiyalar tijorat banklari uchun risk darajasi kam hisoblanadigan operatsiyalardan biri hisoblanadi. Chunki, ular mazkur operatsiyalarni xedjirlashlari, ya’ni sug‘urta qilish imkoniyatiga egadirlar.

Nazorat savollari

1. Opsiyon shartnomasining mohiyati va ahamiyatini izohlang.
2. Ekspiratsiya sanasining mohiyati nima?
3. Opsiyonlarning qanday turlari mavjud?
4. Amerika opsiyonining mohiyati qanday?

5. Yevropa opsiyonining mohiyati qanday?
6. Birjadan tashqari va birja opsiyonlarining mohiyatini izohlang.
7. Opsionning “strayk” bahosi nima?
8. Sotib olishga opsiyonning mohiyatini izohlang.
9. Sotishga opsiyonning mohiyatini izohlang.
10. Opsion bahosi qanday omillarga bog‘liq bo‘ladi?
11. Opsionning muddati nima?
12. Opsion kursining mohiyatini izohlang.
13. “Ichki qiymat” tushunchasidan kelib chiqqan holda opsiyonlar qanday tasniflanadi?
14. Opsion va forvard kontraktlari o‘rtasida qanday asosiy farqlar mavjud?
15. Opsionlarning qanday afzallik va kamchilik tomonlari mavjud?

6-BOB. VALYUTAVIY SVOP OPERATSIYALARI

- 2.1. Valyuta operatsiyalari mohiyati va ularning klassifikatsiyasi.
- 2.2. Valyuta birjasining savdo tizimi.

6.1. Valyuta operatsiyalari mohiyati va ularning klassifikatsiyasi

O‘zbekiston Respublikasining Oliy Majlisida 2003-yil 11- dekabrda tasdiqlangan “Valyutani tartibga solish to‘g‘risida”gi qonunga muvofiq valyuta boyliklari, valyuta operatsiyalari va chet el valyutasi bilan bog‘liq bo‘lgan hosila moliyaviy vositalar to‘g‘risida quyidagicha ta‘rif berilgan: Valyuta boyliklari – chet el valyutasi, chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar, chet el valtasidagi to‘lov hujjatlari va sof quyma oltin hisoblanadi. Chet el valyutasi muomalada bo‘lgan hamda xorijiy davlatda qonuniy to‘lov vositasi hisoblangan banknotlar, xazina biletleri va tangalar ko‘rinishidagi chet el pul belgilari, muomaladan chiqarilgan yoki chiqarilayotgan hamda xuddi shu xorijiy davlatning pul belgilariga almashtirilishi lozim bo‘lgan chet el pul belgilari, shuningdek hisob varaqlarda va omonatlarda bo‘lgan xorijiy davlatlarning pul birliklaridagi hamda xalqaro pul yoki hisob-kitob birliklaridagi mablag‘lardir.

Chet el valyutasidagi qimmatli qog‘ozlar “Qimmatli qog‘ozlar va fond birjasi to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni yoki xorijiy davlatlarning qonun hujjatlariga muvofiq qimmatli qog‘ozlar jumlasiga kiritilgan, qiymati chet el valyutasida ifodalangan pul hujjatlaridir. Valyuta operatsiyalariga quyidagilar kiradi:

➤ valyuta boyliklariga bo‘lgan mulk huquqining va boshqa huquqlarning o‘zga shaxsga o‘tishi hamda valyuta boyliklarini to‘lov vositasi sifatida ishlatish bilan bog‘liq operatsiyalar;

➤ valyuta boyliklarini O‘zbekiston Respublikasiga olib kirish va Xalqaro bank amaliyotida svop operatsiyalari tez-tez amalga oshirilib turadi. Ular yordamida banklar moliyalashtirish bazasini kengaytiradilar

va kamroq xarajatlar evaziga valyutalarning talab qilinadigan jamlanmasiga erishish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Valyutaviy svop operatsiyasi bu bitimda belgilangan muddat va valyuta kursi bo'yicha hisoblashish sharti asosida valyutalarni bir vaqtda sotib olish va sotish bo'yicha ikki tomonlama bitimdir.

SVOP – BU... hisob-kitoblar kunida uni tuzish paytida mavjud bo'lgan kurs bo'yicha valyutaning muayyan summasini sotib olish (sotish) bitimi bo'lib, bunda keyinroq sanada bitim tuzish chog'ida kelishilgan kurs bo'yicha mazkur valyuta summasini qaytadan sotish (sotib olish) majburiydir.

Valyutaviy svop operatsiyasi ikki qismdan iborat:

1. Valyutalarning dastlabki almashinuvi (*spot bitim*);
2. Qayta almashinuv va svop shartnomasining yopilishi (*forward bitimi*).

Svop bitimlarini muayyan vaqt davri mobaynida zarur bo'lgan valyutadan foydalanish uchun tuzadilar, ayni vaqtda ta'minot sifatida boshqa valyuta taqdim etiladi. Svop bitimi o'zaro bog'langan ikki valyuta operatsiyasi tarzida tuziladi. Uning valyuta kursi svop bitimi tuzish paytida amal qilgan dolzarb valyuta kurslari va forvard bitimi valyuta kurslari asosida hisoblab chiqariladi.

Jahon banki moliyalashtirish strategiyasining ajralmas qismini tashkil etadigan svop operatsiyalari uzoq muddatli va o'rta muddatli qarzlarning yillik 15-20%ini qamrab oladi. Rasmiy raqamlar mavjud emas, biroq valyuta va foiz svoplarining xalqaro bozorlari 80-200 mlrd AQSh dollarida baholanadi. Ular hajmi boshqa dastaklar orqali amalga oshiriladigan operatsiyalar sonidan oshadi. Buning ustiga, svop operatsiyalaridan xalqaro korporatsiyalar, rasmiy muassasalar va davlat organlari foydalana boshladilar.

Svop bitimi uchun nima zarur?

Svop bitimi uchun mijozga bankdagi hisob-kitob raqami zarur. U valyutaviy svop bitimi tuzish shartnomasini imzolashi, ushbu sohani tartibga soluvchi me'yoriy baza bilan tanishishi va albatta, yetarlicha pul summasiga ega bo'lishi kerak.

Hozirda tadbirkorlarimizda ham moliyaviy dastaklarga, shu jumladan svop bitimlariga qiziqish oshmoqda. Ularni tuzishni O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risida nizom tartibga soladi.

O'zbekiston banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda AQSh dollari, yevro, Angliya funt sterlingi, Shveysariya franki va Yaponiya ienasidan foydalaniladi. Operatsiyalar so'm va chet el valyutasi bilan, shuningdek ikki chet el valyutasi o'rtasida ham amalga oshirilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga o'zgartirishlar Adliya vazirligida davlat ro'yxatidan o'tkazildi.

Ushbu o'zgarishlarga asosan, valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda so'm va chet el valyutasi yoki ikki chet el valyutasi o'rtasidagi svop bitimini tuzishda svop bitimining bazaviy kursi Markaziy bank tomonidan belgilanadigan kurs bo'yicha emas, tomonlarning ixtiyoriga ko'ra erkin belgilanishi tartibi o'rnatildi.

Shuningdek, valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirishda chet el valyutasi sifatida taraflar ularning xohishiga ko'ra istalgan chet el valyutalaridan foydalanilishi mumkinligi belgilandi.

Markaziy bank Boshqaruvining qarori bilan O'zbekiston Respublikasi banklari tomonidan valyutaviy svop operatsiyalarini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi nizomga tuzatishlar kiritildi.

Birinchidan, valyutalarning bazaviy kursini belgilash tartibiga o'zgartirish kiritildi. Endi so'm va chet el valyutasi yoki ikki chet el valyutasi o'rtasidagi svop bitimini tuzishda svop bitimining bazaviy kursi (spot-kurs) tomonlarning ixtiyoriga ko'ra erkin belgilanadi. Ilgari spot-kurs Markaziy bank tomonidan o'rnatilgan va svop bitimi tuzilgan paytda amal qilgan valyutalar kursiga teng bo'lgan (yoki kross-kurs asosida hisoblangan – chet el valyutalari o'rtasidagi bitimda).

Ikkinchidan, ilgari xo'jalik yurituvchi subyektlar faqat joriy xalqaro operatsiyalarni amalga oshirish bilan bog'liq bo'lgan hollarda bank bilan valyutaviy svop bitimini tuzishlari mumkin edi. Endi 66terling bekor qilindi. Ya'ni yuridik shaxslarga o'z faoliyatlari jarayonida bankning

tegishli xizmatini hech qanday cheklovlarsiz olish huquqi berildi. Biroq, ushbu operatsiya bo'yicha xarid qilingan chet el valyutasi faqatgina joriy xalqaro operatsiyalar bo'yicha amalga oshirilayotgan to'lovlar uchun sarflanishi mumkinligi aytib o'tilgan.

Uchinchidan, chet el valyutalari sifatida valyutaviy svopni amalga oshirish uchun banklar ularning xohishiga ko'ra istalgan chet el valyutalaridan foydalanishlari mumkin. Ilgari aniq ro'yxat belgilangan edi: AQSh dollari, yevro, Angliya funt 67terling, Shveysariya franki va Yaponiya ienasi (ya'ni erkin almashtiriladigan valyuta).

6.2. Valyuta birjasining savdo tizimi

Forex (valyuta ayirboshlash) – erkin narxlarda banklararo valyuta ayirboshlash bozori (kotirovka cheklovlarsiz yoki belgilangan qiymatlarsiz tuziladi). Odatda “Forex bozori” birikmasi ishlatiladi (inglizcha: Forex market, FX-market). “Forex” tushunchasi odatda o'zaro valyuta ayirboshlash uchun ishlatiladi, lekin valyuta operatsiyalarining butun umumiy jarayoni uchun emas. 1976-yilda Yamayka konferensiyasi bo'lib o'tdi. Shu yili butun dunyo milliy valyutalarning erkin shakllangan valyuta kurslarini suzib o'tishga o'tdi va AQSh dollari asosiy zaxira valyutasiga aylandi.

Rivojlangan mamlakatlar rahbarlari jahon valyuta tizimini shakllantirishning yangi tamoyillarini bayon etdilar:

- oltindan xalqaro to'lovlardagi kamomadni qoplash vositasi sifatida foydalanishni rad etish;
- suzib yuruvchi valyuta kurslariga o'tish, valyuta konvertatsiyasi;
- yangi tizimning asosiy elementlari valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlatlararo tashkilotlardir;
- to'lov vositasi sifatida davlatlarning milliy valyutalari hisoblanadi;
- xalqaro valyuta operatsiyalari amalga oshiriladigan asosiy mexanizm-tijorat banklari hisoblanadi.

Bu dunyodagi haftaning besh kunida tunu kun ishlaydigan yagona bozor. Pul mablag'larining tezkor harakati, operatsiyalarning arzonligi,

yuqori likvidlik FOREXni investorlar uchun eng jozibali bozorlardan biriga aylantiradi.

FOREX bozori va boshqa barcha bozorlarning asosiy farqi shundaki, uning o'ziga xos savdo joyi yo'q. FOREX - bu aloqa vositasi bilan bog'langan, dunyoning barcha yetakchi moliya markazlariga tarqalgan va bir mexanizm sifatida kecha-kunduz ishlaydigan ulkan valyuta dilerlari tarmog'i. Valyuta savdosi telefon orqali yoki kompyuter terminallari orqali amalga oshiriladi - operatsiyalar bir vaqtning o'zida dunyoning yuzlab banklarida amalga oshiriladi.

FOREX bozorining boshqa moliya bozorlariga nisbatan bir qator xususiyatlari va muhim afzalliklari mavjud:

1. birinchi navbatda – yetakchi jahon valyutalarini bepul konvertatsiya qilish

2. har qanday bitimning deyarli 100% likvidligi. FOREXda har kuni va har soniyada amalga oshiriladigan tranzaksiyalarning katta hajmini hisobga oladigan bo'lsak, talabning yetishmasligi sababli bitimni amalga oshirib bo'lmaydigan holatlar mavjud emas (chunki bu fond va qimmatli qog'ozlar birjalarida inqirozli vaziyatlarda sodir bo'ladi)

Valyuta bozorining asosiy ishtirokchilari:

1. Markaziy banklar. Ularning vazifasi davlatning valyuta zaxiralarini boshqarish va kurs barqarorligini ta'minlashdan iborat. Ushbu vazifalarni bajarish uchun to'g'ridan to'g'ri valyuta intervensiyalari va bilvosita ta'sir – qayta moliyalash stavkasi, zaxira standartlari va boshqalarni tartibga solish orqali amalga oshirilishi mumkin.

2. Tijorat banklari. Ular valyuta operatsiyalarining asosiy qismini amalga oshiradilar. Bozorning boshqa ishtirokchilari banklarda hisobvaraqlarini yuritadilar va ular orqali ularning maqsadlari uchun zarur bo'lgan konversion va depozit-kredit operatsiyalarini amalga oshiradilar. Banklar tovar va fond bozorlarining umumiy ehtiyojlarini valyuta birjasida, shuningdek mablag'larni jalb qilish joylashtirishda jamlaydilar. Mijozlarning murojaatlarini qondirishdan tashqari, banklar o'z mablag'lari hisobidan mustaqil ravishda operatsiyalarni amalga

o'shirishi mumkin. Pirovardida xalqaro valyuta bozori (forex) - bu banklararo operatsiyalar bozori.

3. Tashqi savdo operatsiyalari bilan shug'ullanadigan firmalar. Importchilarning umumiy buyurtmalari chet el valyutasiga barqaror talabni, eksport qiluvchilar tomonidan esa uning ta'minotini, shu jumladan chet el valyutasidagi depozitlar shaklida (valyuta hisobvaraqlaridagi vaqtincha bo'sh qoldiqlar) shakllantiradi.

4. Xalqaro investitsiya kompaniyalari, pensiya va to'siq fondlari, sug'urta kompaniyalari. Ularning asosiy vazifasi mablag'larni turli mamlakatlar hukumatlari va korporatsiyalarining qimmatli qog'ozlariga joylashtirish orqali erishiladigan diversifikatsiyalangan aktivlar portfelinii boshqarishdir. Dilerlik slangida ular oddiygina fondlar deb nomlanadi.

5. Valyuta ayirboshlash. Bir qator mamlakatlarda milliy valyuta birjalari mavjud bo'lib, ularning funksiyalariga yuridik shaxslar uchun valyuta almashinuvini amalga oshirish va bozor kurslarini shakllantirish kiradi.

6. Valyuta vositachilari. Ularning vazifasi chet el valyutasi xaridorini va sotuvchisini birlashtirish va ular o'rtasida konversiyon yoki kredit-depozit operatsiyalarini amalga oshirishdir. O'zlarining vositachiligi uchun brokerlik kompaniyalari bitim summasining foizida brokerlik komissiyasini undiradilar. Ammo ushbu komissiya miqdori ko'pincha bankning kredit foizlari va bank depozitidagi stavka o'rtasidagi farqdan kam bo'ladi. Banklar ham ushbu funksiyani bajarishi mumkin. Bunday holda, ular kredit bermaydilar va tegishli risklarni o'z zimmalariga olmaydilar.

7. Xususiy shaxslar. Fuqarolar har xil operatsiyalarni amalga oshiradilar, ularning har biri kichik, ammo umuman olganda ular sezilarli qo'shimcha talab yoki taklifni shakllantirishlari mumkin: tashqi turizm uchun to'lov; ish haqi, pensiya, yig'implarning pul o'tkazmalari; valyuta qiymatini saqlash vositasi sifatida naqd pulda sotib olish / sotish; spekulativ valyuta operatsiyalari.

Savdo sessiyalarini uch davrga bo'lish mumkin:

Uzoq Sharq

Bu yerda eng faol operatsiyalar bozorda dollarni yapon iyenasiga, dollarni yevroga qarshi, yevroni iyenaga va dollarni Avstraliya va Yangi

Zelandiya dollarlariga nisbatan konversion operatsiyalari hisoblanadi. Bu vaqt ichida valyuta kurslarining tebranishlari tez-tez sezilmaydi, ammo valyutalar, ayniqsa dollarning iyenaga nisbatan bosh aylantiradigan parvozi bo'lgan kunlar bor. Yaponiya iyenasi uchun eng tipik faol davr Moskva vaqti bilan 3.00 dan 10.00 gacha.

G'arbiy Yevropa

Moskva vaqti bilan soat 9.00 da bozor Syurix, Frankfurt, Parij, Lyuksemburgning Yevropa moliya markazlarida ochiladi. Biroq, dollar kursining asosiy valyutalarga nisbatan chindan ham kuchli harakati Moskva vaqti bilan soat 10: 00dan so'ng, London bozori ochilgandan so'ng boshlanadi. Odatda bu ikki-uch soat davom etadi, shundan so'ng Yevropa banklari dilerlari tushlikka borishadi va bozor faolligi biroz pasayadi. Yevropa valyutalari uchun ikkita faoliyat davri mavjud: Moskva vaqti bilan 10.00-15.00 gacha, keyin esa – Amerika sessiyasi ochilishi bilan – Moskva vaqti bilan soat 16.00 dan 18.00 gacha, kamroq – Moskva vaqti bilan soat 22.00 gacha.

Shimoliy Amerika

Moskva vaqti bilan soat 16: 00da Nyu-Yorkda bozor ochilishi bilan Amerika banklari dilerlari ertalab ish boshlaganlarida va yevropalik dilerlar tushlikdan qaytganlarida vaziyat yana keskin tiklanadi. Yevropa bozori yopilgandan so'ng (Moskva vaqti bilan soat 18.00 da) dollarning boshqa valyutalarga nisbatan kursi keskin o'zgarishi mumkin.

Amerika va Osiyo sessiyalari eng tajovuzkor hisoblanadi. Yevropa sessiyasida esa eng katta bitimlar tuziladi. Yangi Zelandiya va Avstraliyaning mashg'ulotlari eng tinch deb hisoblanadi.

Nazorat savollari

1. Svop (“Svop”) operatsiyasi va svop kursga ta'rif bering.
2. Valyuta pozitsiyasi va uning turlariga ta'rif bering.
3. Kross-kursning mohiyatini izohlang.
4. Respublika valyuta birjasi to'g'risida nimalarni bilasiz?
5. Mamlakat valyuta siyosatini olib borish bo'yicha qanday iqtisodiy nazariyalarni bilasiz?

7-BOB. NAQD PUL (VALYUTA) O‘TKAZMALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

7.1. Xalqaro pul o‘tkazmalari mohiyati va mazmuni.

7.2. Naqd pul (valyuta) o‘tkazmalari turlari va tariflari.

7.1. Xalqaro pul o‘tkazmalari mohiyati va mazmuni

Xalqaro pul o‘tkazmalari – dunyodagi jismoniy shaxslarning mablag‘larini juda qisqa vaqt ichida o‘tkazish imkonini beruvchi noyob bank mahsulotidir. Pul jo‘natmasi yuqori himoya darajasiga ega bo‘lib, har qanday masofaga sanoqli daqiqalar ichida va naqd pulda faqatgina ko‘rsatilgan shaxsga berilishi kafolatlangan holda amalga oshiriladi. Jo‘natma uchun vositachilik haqini faqatgina pul jo‘natuvchi to‘laydi. Siz pul o‘tkazmasini qaysi usul orqali amalga oshirishingiz maqsadi, miqdori, o‘tkazmani qabul qiluvchi davlat nomi shuningdek, pul o‘tkazmasini amalga oshirish vositachilik haqi miqdoriga ko‘ra tanlashingiz mumkin.

O‘tkazmani olayotganingizda Siz nazorat raqamini, pul o‘tkazmasining miqdorini, shuningdek jo‘natuvchining ma’lumotlari va chiqish mamlakatini ko‘rsatishingiz kerak.

O‘zbekistonga jo‘natilgan pul o‘tkazmalari aprelning dastlabki 8 ish kunida mart oyining mos davriga nisbatan 3 barobarga qisqargan. Mart oyida eksport tushumlari 10 foizga kamaygan. Markaziy bank izohiga ko‘ra, shu va boshqa sabablar AQSh dollarining so‘mga nisbatan almashuv kursi oshishiga olib kelmoqda. Aprel oyida so‘mning AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi oy boshiga nisbatan 1,8 foizga oshib, 9 762 so‘mni tashkil etdi (yil boshiga nisbatan 2,7 foizga). Markaziy bank ushbu holat yuzasidan izoh berdi.

Markaziy bankning ma’lum qilishicha, so‘mning birja kursining o‘zgarishi talab va taklifning ichki va tashqi omillari ta’sirida, birinchi navbatda, joriy operatsiyalar hisobvarag‘i o‘zgarishi asosida shakllanadi.

Koronavirusga qarshi ko‘rilayotgan choralar oqibatida savdo hamda investitsiyalar bilan bog‘liq operatsiyalar sekinlashgan, bu o‘z

navbatida, import-eksport hajmlarining qisqarishiga va mos ravishda ichki valyuta bozorida faollikning pasayishiga olib kelgan.

Ma'lumotga ko'ra mart oyida eksport tushumlari hajmi oldingi oyga nisbatan 10 foizga kamaygan.

Karantin choralari va iqtisodiy faollikning sekinlashishi, shuningdek, Rossiya va Qozog'istonda milliy valyutalar kursining devalvatsiyasi tufayli transchegaraviy pul o'tkazmalarida ham pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Mart oyida mamlakatga kirib kelgan pul o'tkazmalari hajmi 296 mln dollarni tashkil etib, fevral oyiga nisbatan 23 foizga pasaygan bo'lsa, aprelning dastlabki 8 ish kunida mart oyining mos davriga nisbatan 3 barobarga qisqargan.

Ushbu omillar jismoniy shaxslar bilan operatsiyalar segmentida so'mning almashuv kursi bo'yicha ma'lum nisbatan kutilmalarning shakllanishiga olib kelgan.

Mart oyidan boshlab aholi tomonidan xorijiy valyuta sotib olish hajmining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmoqda. Xususan, mart oyida jismoniy shaxslar tomonidan chet el valyutasini sotib olish hajmining oylik o'sishi 45 foizni tashkil etgan bo'lsa, aprelning dastlabki 8 ish kunida sotib olish hajmi o'tgan oyning mos davriga nisbatan 28 foizga ko'paygan.

Sanab o'tilgan omillar, shuningdek, asosiy savdo hamkorlar milliy valyuta kurslarining sezilarli darajada qadrsizlanishi natijasida ichki valyuta bozorida milliy valyuta kursining ma'lum darajada qadrsizlanishi va shunga mos ravishda so'mning asosiy savdo hamkorlar valyutalariga nisbatan real effektiv almashuv kursi tafovutining qisqarishi kuzatilmoqda.

Mart oyidan boshlab Rossiya rublining AQSh dollariga nisbatan almashuv kursi 10,3 foizga, qozoq tengesi – 12 foizga, turk lirasi – 7,6 foizga va qirg'iz somi – 11,2 foizga qadrsizlangan. Markaziy bank so'm almashuv kursining qadrsizlanishi ehtimolini past darajada baholamoqda. Dastlabki prognozlariga ko'ra, qisqa muddatli davrda so'm almashuv kursi ma'lum bir kichik o'zgarishlardan keyin o'zining fundamental trendiga yaqin darajada shakllanadi.

Shu bilan birga, Markaziy bank tijorat banklari kassalarida konverciya operatsiyalarini amalga oshirish uchun yetarli miqdorda naqd xorijiy valyuta mavjudligini va barcha banknotalar dezinfeksiya

qilinganligini ma'lum qilgan. Banklarning ayirboshlash shoxobchalari odatdagi rejimda ishlamoqda va naqd xorijiy valyutani sotish va sotib olish bo'yicha hech qanday cheklov va to'siqlar o'rnatilmagan.

7.2. Naqd pul (valyuta) o'tkazmalari turlari va tariflari

Western Union

Sizda naqd pullarni xorijdagi do'stlaringiz yoki tanishlaringizga tezkor o'tkazish zaruriyati vujudga keldimi? Yoki, aksincha, sizning o'zingiz begona mamlakatda bo'lgan holda pulga muhtojlikni sezdingizmi? Ipoteka-bank Sizga bunday muammolarni hal qilishning tez va ishonchli usulini — Western Union pul o'tkazmalarini taklif qiladi.

Western Union o'tkazmalarining afzalliklari

1. Tez. Oluvchilar pul o'tkazmani jo'natilgandan bir necha daqiqa o'tganidan so'ng olishlari mumkin (o'tkazmani amalga oshirish muddati bir necha kunlarga yetishi mumkin bo'lgan o'tkazmalar bundan mustasno). Biroq jo'natishda o'tkazma olinadigan mintaqadagi Western Union agentlik shoxobchasining ish vaqtini ham hisobga olish kerak.

2. Kafolat. Western Union xalqaro tizimi 135 dan ortiq mamlakatlarga pul o'tkazmalarini amalga oshiradi. Western Union tufayli yer yuzining barcha nuqtalaridagi millionlab odamlar naqd pul bilan bog'liq muammolarini samarali tarzda hal qiladilar. Buning uchun Western Union eng yangi elektron texnologiyalar va o'zining kompyuter tarmog'idan foydalanadi. Har bir pul o'tkazmasi jahon talablari darajasidagi xavfsizlik tizimi bilan himoyalangan. U ko'rsatilgan manzilni, mablag'ni aniq va ko'rsatilgan muddatda olinishini kafolatlaydi.

3. Butun dunyo bo'ylab. Hozirgi vaqtda Western Union tizimining dunyodagi 200 dan ortiq mamlakatdagi 386 000 dan ortiq xizmat ko'rsatish shoxobchalari faoliyat olib bormoqda. Siz o'tkazmani jo'natishingiz yoki qabul qilishingiz mumkin bo'lgan istalgan shoxobcha — sizning xizmatangizda.

“Western Union” xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali pul jo'natish tariflari

Pul o'tkazmasi summasi (AQSh dollarida)	Komissiya AQSh dollarida
0.01 – 200.00	3%
200.01 – 2 000.00	1,7%
2 000.01 – 3 000.00	1,3%
3 000.01 dan yuqori	1%

Unistream

Yunistrim tizimi – bu Rossiya, MDH davlatlari va butun dunyo bo'ylab pul o'tkazmalaridir. Yunistrim xalqaro pul o'tkazmalari tizimining 100 ga yaqin mamlakatdagi 330000 dan ortiq xizmat ko'rsatish shoxobchalari orqali dunyoga pul mablag'larini jo'natish va olish imkoniyatini beradi.

Ushbu tizimning afzalliklari:

- o'tkazmani olish tezligi (10 – 15 daqiqa ichida)?
- quyi darajadagi tariflar (0,1 – 2 %);
- oluvchi tomonidan xarajatlar qilinmasligi;
- o'tkazmani rasmiylashtirishning qulay va osonligi;
- pul o'tkazmalarining naqd pul shaklida qabul qilinishi va berilishi.

Yunistrim o'tkazmalarini jo'natish/olish uchun nimalar zarur?

Pul o'tkazmasini amalga oshirish uchun jo'natuvchi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

- o'zi bilan birga pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasiga ega bo'lish;
- zaruriyat bo'lgan hollarda (jo'natuvchi mamlakatning qonunlariga muvofiq) valyuta manbasini tasdiqlovchi hujjatni taqdim etish;
- amaliyotlarni amalga oshiruvchi xodim elektron ko'rinishdagi "O'tkazma arizasi"ni to'ldiradi va imzolash uchun jo'natuvchiga beradi.

Pul o'tkazmasini olish uchun oluvchi quyidagilarni amalga oshirishi kerak:

- o'zi bilan birga pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi hujjatning asl nusxasiga ega bo'lish;
- o'tkazmaning nazorat raqamini bilish;
- amaliyotlarni amalga oshiruvchi xodim elektron ko'rinishdagi "Pul o'tkazmasini olish arizasi"ni to'ldiradi hamda imzolash uchun oluvchiga beradi.

“Unistream” xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi orqali pul jo‘natish tariflari

Davlatlar	Pul o‘tkazmasining jo‘natish/qabul qilish valyuta birligi	Pul o‘tkazmasi summasi (AQSh dollarida)	Komissiya AQSh dollarida
Armaniston	USD→USD	0.01 - 3 000	1%
Belarus			
Gruziya			
Qozog‘iston			
Qirg‘iziston		3 000.01 - 5 000	30\$
Rossiya			
Tojikiston			
Moldova	USD→USD	0.01 - 3 000	1,5%
		3 000.01 - 5 000	1%
Armaniston	USD→RUB	0.01 - 5 000	0%
Belarus			
Gruziya			
Qozog‘iston			
Qirg‘iziston			
Moldova			
Rossiya			
Tojikiston			
Ukraina			

CONTACT

“CONTACT” xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi Rossiya Federatsiyasidagi eng ko‘p foydalaniladigan pul o‘tkazmalari tizimi hisoblanib u 1999-yildan boshlab faoliyat yuritmoqda. Ushbu tizim hozirgi vaqtda Rossiya Federatsiyasi va unga yaqin davlatlarda xalqaro pul o‘tkazmalari sohasida liderlardan biri hisoblanadi. “CONTACT” xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi 170 tadan ortiq davlatlarda 500 mingdan ortiq xizmat ko‘rsatish shoxobchalari – bank bo‘limlari, to‘lov terminalari, to‘lovni amalga oshiruvchi bank agent filiallari va boshqa turdagi o‘tkazmalarni amalga oshiruvchi joylarda mavjud.

“CONTACT” xalqaro pul o‘tkazmalari tizimi mijozlarni o‘ziga jalb qilishda ananaviy ravishda, avvalo sifatli xizmat ko‘rsatish, qulay tariflar va pul o‘tkazmalarini jo‘natish va qabul qilishdagi keng imkoniyatlar

yordamida erishmoqda.

Jismoniy shaxslar o'rtasida ushbu tizimda hisobraqam ochmay turib:

- Rossiya Federatsiyasi, MDH davlatlari, Boltiq bo'yi va boshqa davlatlarga o'tkazmalarni amalga oshirish mumkin*;

- O'tkazmalarni Rossiya Federatsiya rublida, AQSh dollarida va Yevroda yuborish mumkin;

- Bir qancha davlatlarda o'tkazmani olish joyini aniq ko'rsatmay yuborish mumkin;

- O'tkazmani tizimda ko'rinish vaqti: 1 soniyadan boshlanadi. O'tkazmani olish vaqti o'tkazma yuborilgan va to'lab beriladigan joylardagi soatlar farqiga, shuningdek, o'tkazmani to'lab beruvchi bank ish vaqtiga bog'liq bo'ladi;

- O'tkazmaning holati haqidagi ma'lumot mijozning tizimda ko'rsatilgan mobil telefon raqamiga SMS xabarnoma orqali avtomat ravishda boradi

“CONTACT” xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali pul jo'natish tariflari

Davlatlar	Pul o'tkazmasi miqdori (AQSh dollarida)	Komissiya to'lovi
Rossiya	0.01 – 5 000.00	1%
Abhaziya	0.01 – 5 000.00	1%
Belarus	0.01 – 5 000.00	1%
Gruziya	0.01 – 5 000.00	1%
Qozog'iston	0.01 – 5 000.00	1%
Qirg'iziston	0.01 – 5 000.00	1%
Tojikiston	0.01 – 5 000.00	1%
Moldova	0.01 – 5 000.00	1%
Yujnaya Osetiya	0.01 – 5 000.00	1%
Latviya	0.01 – 4 950.00 4 950.01 – 5 000.00	1,5% 75\$
Litva	0.01 – 4 950.00 4 950.01 – 5 000.00	1,5% 75\$
Estoniya	0.01 – 4 950.00 4 950.01 – 5 000.00	1,5% 75\$
Armeniya	0.01 – 5 000.00	1,3%
Ozerbaydjon O'zbekiston	0.01 – 5 000.00	1,2%

Money Gram

Bu bir jismoniy shaxs tomonidan boshqa jismoniy shaxs foydasiga hisobraqam ochmagan holda amalga oshiriladigan AQSh dollaridagi pul mablagʻlari oʻtkazmasidir.

Ishonchlilik

MoneyGram pul oʻtkamasi joʻnatilgandan keyin oʻtkazma summasini toʻlash boʻyicha mijozlar oldidagi majburiyatlarni oʻz zimmasiga oladi. Hattoki MoneyGramning hamkori banki beqaror iqtisodiyot tufayli moliyaviy qiyinchiliklarni boshidan kechirayotgan boʻlsa ham, bu narsa mijozlarga xizmat koʻrsatishda aks etmaydi. Chunki qabul qilingan summalar boʻyicha majburiyatlarni Amerika korporatsiyasi oʻz zimmasiga oladi. MoneyGram pul oʻtkazmasini oluvchi tomonidan olinmagan yoki joʻnatuvchining rejalari oʻzgarib qolgan hollarda joʻnatilgan summa istalgan vaqtda ortga qaytarilishi mumkin. Joʻnatuvchi ham, oluvchi ham kompaniyaning butun dunyo boʻylab tarqalgan shoxobchalaridan pullarni olishi mumkin.

Qulaylik va soddalik

MoneyGram pul oʻtkazmasini yuborish yoki olish uchun faqat pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat talab qilinadi. Shu bilan birga, oluvchidan ham, yuboruvchidan ham bank hisob raqami yoki bank plastik kartasini ochish talab qilinmaydi. Muhimi, pulni yuborish vaqtida qabul qiluvchining aniq manzili yoki uning bank hisobvaragʻidagi bank rekvizitlarini koʻrsatish talab qilinmaydi. Pasportni taqdim qilgan holda, oluvchi unga yuborilgan mablagʻni dunyo boʻylab oʻng ming shoxobchalarning biridan olishi mumkin.

Tezlik

Dunyoning istalgan burchagiga pul oʻtkazish vaqti 10-15 minutni tashkil qiladi. Zamonaviy kompyuter texnologiyalari va aloqa liniyalaridan foydalanib, qabul qilingan MoneyGram pul oʻtkazmasi toʻgʻrisidagi maʼlumotlar bir necha soniya ichida uzatiladi, bu pul oluvchiga pulni dunyoning istalgan nuqtasidan 10-15 daqiqadan keyin AQSh dollarida yoki milliy valyutada olishi mumkin.

Maxfiylik

MoneyGram pul o'tkazmasini yuborganingiz yoki olganingiz haqidagi ma'lumot bank siri hisoblanadi.

Qulaylik

MoneyGram pul o'tkazmasi nafaqat pul jo'natmalari, balki 10 so'zdan iborat bepul matnni ham o'z ichiga oladi.

Pulni yuborish tartibi

– Pasport ma'lumotlari, manzilini va yuboriladigan pul miqdorini ko'rsatadigan oddiy shaklni to'ldiring.

– O'tkazma va xizmat uchun to'lov miqdorini kiriting.

– Operator Sizga pul o'tkazma kodini aytadi.

Pulni olish tartibi

Istalgan mamlakatdagi istalgan MoneyGram xizmat ko'rsatish shoxobchasiga murojaat qiling.

Pulni olish uchun arizani to'ldiring, unda pasport ma'lumotlari, manzil va yuborilgan summa ko'rsatiladi.

“Money Gram” xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali pul jo'natish tariflari

Pul o'tkazmasi summasi (AQSh dollarida)	Komissiya AQSh dollarida
0.01 - 200	3\$
200.01 - 400	6\$
400.01 - 600	9\$
600.01 - 800	12\$
800.01 - 1000	15\$
1000.01 - 2000	30\$
2000.01 - 3000	36\$
3000.01 - 4000	40\$

Tizimda mavjud bo'lgan boshqa davlatlarga

Pul o'tkazmasi summasi (AQSh dollarida)	Komissiya AQSh dollarida
100.01 - 250	18\$
250.01 - 400	24\$
400.01 - 600	34\$
600.01 - 800	39\$
800.01 - 1000	44\$

1000.01 - 1200	60\$
1200.01 - 1800	65\$
1800.01 - 2500	70\$
2500.01 - 5000	100\$

Zolotaya Korona

“Zolotaya korona -pul o‘tkazmalari” hisobraqam ochmasdan turib bir lahzadayoq pul o‘tkazish xizmati Rossiya hududida, yaqin va uzoq xorijda 50 dan ortiq xizmat ko‘rsatish punktlariga ega. Hozirgi vaqtda 550 dan ortiq banklar mazkur xizmatdan muntazam foydalanishmoqda.

“Zolotaya korona – pul o‘tkazmalari” o‘z mijozlarini quyidagilar bilan ta‘minlaydi:

- “Tezlik”- mijoz pul jo‘natmalarini bir necha daqiqalar ichida olish mumkin.

- “Qulaylik” – pul jo‘natmalarini yuborayotganda faqatgina yuborilayotgan davlat va shahar ko‘rsatilsa bas. Mijoz mazkur jo‘natmani o‘ziga qulay punktdan olishi mumkin.

- “Nazorat” – pul o‘tkazmalarini holatini on-line usulida “Zolotaya korona -pul o‘tkazmalari” sayti orqali nazorat qilish imkoniyati mavjud.

- “Hammabop” – pul o‘tkazmalar uchun komissiya eng past narxlarda (0%-1, 5% largacha) amalga oshiriladi.

Pul o‘tkazmalar valyutasi – rubl, AQSh dollari, yevro va milliy valyutalarda amalga oshiriladi.

Xorijiy valyutalar o‘tkazmalarida 0% li maxsus tarif qo‘llaniladi.

- Valyutalarni konvertatsiya qilish pul jo‘natmalarini o‘tkazish vaqtida RNKO (To‘lov markazi) kursi bo‘yicha amalga oshiriladi.

- Rasmiylashtirish chog‘ida jo‘natuvchi jo‘natma valyutasini oluvchiga qulay tarzda o‘zi tanlaydi va RNKO (To‘lov markazi) kursi bo‘yicha valyutani konvertatsiya qilish komissiyasi 0% ni tashkil qiladi*.

- Mazkur tarif 10. 06. 2015 yildan buyon amal qiladi.

Pul o‘tkazmalarini olish uchun:

- Shaxsini tasdiqlovchi hujjat;

- Bank operatoriga o‘tkazma raqamini ma‘lum qilish;

• O'tkazma miqdori va olishga qulay bo'lgan valyutani ma'lum qilish.

“Zolotaya Korona” xalqaro pul o'tkazmalari tizimi orqali pul jo'natish tariflari

Mahsus tariflar	Komissiya miqdori
Rossiyaga 5 000 AQSh dollari yuborilganda	30AQSh dollari
“Nol” tarifi *	komissiya olinmaydi **

Nazorat savollari

1. Naqd pul (valyuta) o'tkazmalarining turlari?
2. Naqd pul (valyuta) o'tkazmalari ishtirokchilari?
3. Komission yig'im va amalga oshirish tartibi?
4. Mamlakatimizda milliy valyutaning chet el valyutasiga nisbatan kursi qanday belgilanadi?
5. O'zbekistonda valyuta o'tkazmalari qanday tartibga solinadi?

8-BOB. XALQARO TO'LOV KARTALARI VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI

8.1. Xalqaro to'lov kartalarining turlari va ishlash mexanizmi.

8.2. Xalqaro to'lov kartalarini ochish va undan foydalanish imkoniyatlari.

8.1. Xalqaro to'lov kartalarining turlari va ishlash mexanizmi

Mamlakatimiz Prezidentining 2017-yil 2-sentyabrdagi “Valyuta siyosatini liberallashtirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida”gi farmoniga binoan, valyuta sohasini tartibga solishning bozor mexanizmlari joriy qilindi. Unga asosan, eksport salohiyatini oshirishni rag'batlantirish, to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiyalarni jalb etish, yuridik va jismoniy shaxslarning chet el valyutasini erkin sotib olishi va sotishi hamda o'z mablag'ini xohishiga ko'ra erkin tasarruf etish imkoniyati yaratildi. Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida Markaziy bank va O'zbekiston banklar assotsiatsiyasi banklararo chakana to'lov tizimida mijozlarga xizmat ko'rsatishda so'm plastik kartalari orqali hisob-kitoblarni amalga oshirishda bank va nobank kredit tashkilotlari uchun amaldagi tavsiyaviy tariflar rejasiga ayrim o'zgartish va qo'shimchalar kiritdi. Xalqaro to'lov (konversiya) kartalaridan foydalanish keng yo'lga qo'yildi. Ilgari respublikamizda tijorat banklaridan xalqaro (konversion) to'lov kartalariga tushirib olingan xorij valyutasini chet elda naqdlashtirishda komissiya chegirmasi va kunlik limitlar mavjud edi. Bugungi kunda xalqaro (konversion) to'lov kartalaridan faqat xorijiy davlatlarda foydalanish mumkin. Bankomatlardan naqd xorijiy valyuta yechib olishda operatsiya summasining 1 foizi miqdorida haq olinadi.

Do'kon va mehmonxonalarda, to'lov kartasi qabul qilinadigan barcha joylarda karta orqali to'lovni amalga oshirish mumkin. To'lov kartalari barcha davlatlarda ishlatilishi mumkin, davlatlar bo'yicha

cheklov yoki naqd xorijiy valyutani yechib olish bo'yicha limit o'rnatilmagan. Shu o'rinda e'tiborga olish zarur, xorijiy banklar o'z bankomatlaridan naqd pullarni yechib olish uchun ma'lum bir limit o'rnatish amaliyotidan ham foydalanishi mumkin. Odatda bu limit bitta operatsiyaga nisbatan joriy qilingan bo'lib, operatsiyalar sonining o'zi cheklanmagan bo'ladi. Misol uchun, ba'zi davlatlarda bankomatlardan xorijiy valyutani bir kecha-kunduzda 100 AQSh dollarigacha naqdlashtirish mumkin bo'lsa, ba'zi mamlakatlarda bu chegara 2 ming AQSh dollarigacha, yoki umuman, cheklov bo'lmasligi mumkin.

Xalqaro to'lov tizimlari operatorlari (VISA, MasterCard va boshqalar) talablariga ko'ra, banklar tomonidan 35 dan 100 AQSh dollarigacha kamaytirilmas qoldiq (sug'urta depoziti) o'rnatilgan bo'lib, undan mijoz foydalana olmaydi. Ushbu sug'urta depoziti mablag'lar ortiqcha sarflanganida bank tomonidan ishlatiladi. Mablag'larning ortiqcha ishlatilishi kurslarning o'zgarishi yoki xorijiy bank tomonidan to'lov kartasi bo'yicha operatsiyalar amalga oshirishda o'rnatilgan komissiyadan hosil bo'lishi mumkin. Ushbu qoldiq pul plastik karta yopilganidan so'nggina mijozga qaytariladi.

Qayd etish joiz, kartadagi valyuta mablag'laridan xorijda o'qish yoki davolanish uchun talab etiladigan hujjatlar (invoyslar) taqdim etilganida bevosita O'zbekistondagi bankdan turib to'lovni amalga oshirishda foydalanish mumkin. Respublika hududida esa xalqaro (konversion) to'lov kartasidagi mablag'lar joriy ayirboshlash kursi bo'yicha faqat milliy valyutada yechib olinadi.

Xalqaro plastik karta – bu, mohiyatan, ko'pchilik foydalanadigan o'sha karta, faqat unda muayyan chet el valyutasiga o'tkazilgan pullar saqlanadi. U xaridlar, otelda, restoranlarda, kafeda hisob uchun to'lovni amalga oshirish hamda chet elda bankomatlardan pullarni yechib olish uchun mo'ljallangan.

O'zbekistonda faqat debit karta ochish mumkin, ya'ni undan foydalanish uchun dastlab foydalanish rejalashtirilayotgan mablag'larni bank hisobvarag'iga kiritish zarur.

Plastik kartalarni ishlatishning qulayliklari:

1. Hisobvaraqlarni boshqarish. Karta egasi hisob raqamidan hufaning istagan kuni yoki vaqtida pul mablag'larini yechib olishi mumkin.

2. Xavfsizlik. Karta naqd pulning deyarli o'rnini egallaydi va naqd pulni katta miqdorda o'zi bilan olib yurishga hojat qolmaydi. O'z mavbatida, pulni yo'qotish xavfi ham kamayadi.

3. Qulaylik. Kartaning bu afzalligi, ayniqsa, chet elda karta egasining hayotini osonlashtiradi. Katta miqdorda valyuta olib yurishning hojati bo'lmaydi, chunki barcha xarajatlarni karta bilan to'lash mumkin. Bundan tashqari, bankomatlar yordamida hisobingizdan naqd pulni yechib olish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Bugungi kunda 200 dan ortiq mamlakat to'lov operatsiyalarida bank kartalaridan foydalanmoqda.

4. Internet orqali xizmatlar uchun to'lovlar/xaridlar. Internet orqali biznes jadal rivojlanmoqda. Har yili onlayn-do'konlar soni ko'paymoqda hamda bank kartalarini to'lov sifatida qabul qiluvchi boshqa xizmat turlari soni oshmoqda.

Karta vositasida amalga oshirilgan operatsiyalarning ishonchligi ta'minlash.

Kartaning oldi tarafida egasining nomi, kartaning raqami, amal qilish muddati, kartani bergan bank nomi va to'lov tizimining logotipi ko'rsatilgan. Teskari tomonida esa karta egasining imzosi va magnit tasmasi mavjud. Ushbu tasma karta haqidagi elektron ma'lumotlarni saqlaydi. So'nggi yillarda kartaga o'rnatilgan chip ma'lumot tashuvchi sifatida keng ishlatilmoqda. Agar Siz kartani yo'qotsangiz uning amal qilish muddatini to'xtatish uchun darhol kartani bergan bankka murojaat qilishingiz kerak. Shunda, yo'qotilgan karta orqali amalga oshiriladigan har qanday operatsiyalar bloklanadi va hech kim pulingizni ishlata olmaydi. Bir necha kun ichida bank kartani qayta chiqarib beradi. Karta orqali o'tkazilgan operatsiyalarni kuzatish uchun SMS-xabarnoma funksiyasini yoqish tavsiya etiladi. Bank kartangizga mablag'lar kelib tushganda yoki ularni sarflaganingizda bankingizdan SMS keladi. Agar Siz bajarmagan chiqim operatsiyalarini ko'rsangiz, kartani tezda bloklashingiz mumkin.

Bank kartasi yordamida mobil ilovalar orqali barcha bank xizmatlaridan foydalanish mumkin.

Xalqaro plastik kartalar turlari

Mamlakatimiz banklari quyidagi xalqaro plastik kartalar turlarini taklif qiladi.

1. O‘zbekistonda MasterCard 2 turda:

• **Maestro** – boshlang‘ich darajadagi karta, u bo‘yicha barcha operatsiyalar majburiy elektron avtorizatsiya va PIN-kodni kiritish bilan amalga oshiriladi, bu esa karta xavfsizligi darajasini oshiradi. Kartadan MasterCard, Tsirrus va ES Yevropa tarmog‘i xalqaro bankomatlar tizimidan naqd pullarni yechib olish mumkin. Shuningdek u Maestro va EDC Yevropa tizimi xalqaro tizimlari terminallari o‘rnatilgan barcha joyda xarid uchun to‘lovni amalga oshirish imkonini beradi.

• **Standard**– Internet orqali xarid qilish mumkin emas. Buning uchun yaxshisi MasterCard Standard kartasidan foydalangan ma‘qul. Bu karta funksiyalarning standart to‘plamini o‘z ichiga oladi va Maestrodan ancha yuqori darajadagi himoya bilan farq qiladi. U bilan mehmonxonani, chiptalarni bronlash va to‘lovni amalga oshirish, hatto ta‘lim uchun to‘lovni amalga oshirish, bankomatlardan naqd pul yechib olish, xarid qilish hamda xizmat uchun hisob-kitobni amalga oshirish mumkin. Operatsiyalarni amalga oshirish uchun avtorizatsiya talab etilmaydi. Standard kartalarni qabul qiluvchi xizmat ko‘rsatish shoxobchalarining miqdori Maestro kartalarini qabul qiladiganlarga nisbatan ko‘proq.

2. Visa uch turda bo‘ladi:

• **Electron** – o‘ziga xos xususiyati shundan iboratki, har qanday operatsiya karta rekvizitlari, uning amal qilish muddatlari va karta hisobvarag‘ida yetarlicha mablag‘lar mavjudligi elektron tarzda tekshirilgandan keyingina amalga oshiriladi. Shu tufayli Visa Electron eng himoyalangan va juda ommalashgan karta hisoblanadi;

• **Classic** – Visa logotipi bo‘lgan deyarli barcha shoxobchalarda to‘lov uchun qabul qilinadi. Uning yordamida siz Internet yoki telefon bo‘yicha xarid uchun to‘lovni amalga oshirishingiz mumkin. Undan ham elektron, ham mexanik to‘lov terminallari hamda bankomatlarda

foydalanish mumkin. Karta yordamida mehmonxonalarda nomerni, avlochiptalarni va boshqa tovarlarni bronlash mumkin;

• **Gold** – Ushbu karta saqlovchilariga Visa Electron va Visa Classic kartalari saqlovchilariga nisbatan ancha yuqori darajadagi servis ko'rsatiladi. Ko'pgina do'kon va restoranlar Visa Gold saqlovchilari uchun muayyan imtiyozlar taqdim qiladi.

3. UnionPay Classic plastik kartalari

Bugungi kunda UnionPay kartalaridan dunyoning 156 ta mamlakatida foydalanish mumkin. UnionPay kartalarini qabul qiladigan savdo nuqtalarining umumiy soni 27 millionni tashkil etadi. UnionPay 2002-yilda Xitoyning milliy to'lov tizimi sifatida yaratilgan. UnionPay aksiyadorlari safida Xitoyning barcha yirik banklari bor. 2005-yildan boshlab UnionPay xalqaro biznes bilan shug'ullanishga kirishdi va UnionPay kartalari Xitoy hududidan tashqarida ham qabul qilina boshladi. UnionPay tizimi 2012-yilda UnionPay xalqaro biznesi bilan shug'ullanadigan o'zining UnionPay International shu'ba korxonasini ta'asis etdi. Bugungi kunda UnionPay kartalari dunyoning 156 ta mamlakatida qabul qilinadi. UnionPay kartalarini qabul qiluvchi savdo nuqtalarining umumiy soni 27 milliondan iborat, ulardan 10 millionga yaqini Xitoy hududida joylashgan, UnionPay kartalarini qabul qiluvchi bankomatlar soni esa butun dunyo bo'ylab 1,9 millionni tashkil etadi va ulardan 700 mingtasi Xitoyda joylashgan. UnionPay kartalarini qabul qilish bo'yicha eng rivojlangan mintaqalar – Janubiy-Sharqiy Osiyo, G'arbiy Yevropa va AQSh. MDH mamlakatlari bo'yicha UnionPay kartalari Rossiya, Belarusiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Ozarbayjon va Gruziyada qabul qilinadi. UnionPay muomaladagi kartalar soni bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinni egallaydi.

Bugungi kunga qadar 4,7 milliard UnionPay kartalari muomalaga chiqarilgan. Xitoydan tashqari UnionPay kartalari dunyoning 40 ta mamlakatida chiqariladi. Xitoy hududidan tashqarida chiqarilgan kartalar soni taxminan 50 milliontaga yaqin.

8.2. Xalqaro to'lov kartalarini ochish va undan foydalanish imkoniyatlari

Xalqaro plastik kartalarni olish uchun pasport, STIR va hisobvaraqqaga tushirish uchun chet el valyutasi zarur bo'ladi. Kartaning qiymati o'rtacha 20 yevro yoki 20 AQSh dollarini, kartani sug'urtalash qiymati 100–120 AQSh dollarini tashkil qiladi. Visa va MasterCard kartalari xalqaro to'lov tizimlari sirasiga kiradi. Chiqarilgan mamlakatidan qat'iy nazar ular Visa va MasterCard logotipi bo'lgan har joyda cheklovlersiz qabul qilinishi lozim. Biroq safar qilishdan oldin, safar qilish mo'ljallanayotgan mamlakat ushbu to'lov tizimlaridan biriga kirishini tekshirgan ma'qul. Bu axborotni xalqaro plastik kartalar beradigan bankda aniqlab olish mumkin.

Xalqaro plastik kartani qanday olish mumkin?

O'zbekistonda ularni quyidagi banklarda ochirish mumkin:

Hamkor bank

Kapital bank

Agrobank

Trastbank

Aloqa bank

Ipoteka bank

O'zsanoatqurilishbank

Asia Aliance Bank

KDB Bank Uzbekistan va b.q.

To'lov kartalari bilan yuzaga keladigan muammolar va ularni hal qilish usullari:

Karta yo'qotilgan taqdirda nima qilish kerak? Karta yo'qotilgandan keyin kartadagi mablag'larni blokirovka qilish uchun birinchi navbatda uni bergan bankni xabardor qilish kerak. Bu holatda karta yo'qotilganligi haqida xabardor qilingandan keyin hisobvaraqqdan ishlatilgan pullar bank tomonidan qoplanadi. Agar bankda, firibgarlik operatsiyasi (hisobvaraqqdan hisobdan chiqarish) karta topilgandan so'ng, biroq bu haqda bank xabardor qilingunga qadar sodir bo'lganligi

aniqlansa, u holda hisobvaraqdan hisobdan chiqarilgan pullar qoplanmaydi.

Karta yo'qotilmagan, biroq hisobdan chiqarish karta saqlovchining ruxsatisiz amalga oshirilgan. Bunday vaziyatda voqealar rivoji turli variantda bo'lishi mumkin. Masalan, pulni hisobdan chiqarish bo'yicha operatsiya bir joyda amalga oshirilgan, bu vaqtda esa karta saqlovchisi boshqa joyda bo'lgan (ochiq-oydin firibgarlik). Yoki aynan bitta xarid ikki marta amalga oshirilgan (bu variantda buning sababi nafaqat firibgarlik, balki texnik nosozlik ham bo'lishi mumkin). Yoxud kassir yunglishib, karta bo'yicha muvaffaqiyatsiz operatsiya to'g'risida xabar beradi, haqiqatda esa tranzaksiya amalga oshirilgan bo'ladi. Shunga o'xshash barcha holatlarda bankka yozma ariza berish kerak. Bunda karta hisobvarag'idan g'ayriqonuniy hisobdan chiqarishga e'tiroz bildirish mumkin bo'lgan aniq muddatni belgilash zarur. Ishning holatini aniqlashtirish jarayonida bank karta saqlovchisidan hujjatlarning qo'shimcha paketini talab qilishga haqli. Qaerdadir Indoneziyada (basharti karta saqlovchisi o'z mamlakatidan tashqariga chiqmagan bo'lsa) karta bo'yicha tranzaksiya aniqlangan taqdirda viza mavjud bo'lmagan pasport nusxasi va xodim bu vaqtda chet elda bo'lmaganligi yoki ta'tilga chiqmaganligi to'g'risida ish joyidan ma'lumotnoma shunday qo'shimcha hujjatlar bo'lishi mumkin. Banklar o'zlari aybdorni aniqlay olmagan taqdirda, ishga to'lov tizimi (Visa, MasterCard) qo'shiladi. O'zini jabrlanuvchi tomon deb hisoblaydigan bank, tegishli to'lov tizimiga chamasi aybdor bankdan zarur summani hisobdan chiqarib berishni so'rab murojaat qiladi. Bu summa muhokamasiz hisobdan chiqariladi. Agar ko'rsatilgan summa hisobidan chiqarilgan bank e'tiroz bildirsa, u holda u hisobdan chiqarishga shikoyat berishi mumkin. Bu holatda ham to'lov tizimi hakamlik o'tkazadi va aybdor bankni aniqlaydi. Hisobdan chiqarishga ruxsat berilmagan pullarni qaytarish jarayoni bir necha kundan bir necha oygacha cho'zilishi mumkin. Bunda ularni qaytarishni rad qilish varianti ham istisno qilinmaydi. Masalan, bankomatlar, ayniqsa bitta shahar doirasida joylashgan bankomatlar orqali amalga oshirilgan tranzaksiyalar bo'yicha

nizolashish yetarlicha murakkab. Mijoz tomonidan bankni qasddan aldash fakti aniqlansa, mijoz jinoiy javobgarlikka tortiladi.

Bankomat kartani qaytarmayapti. Bu quyidagilar oqibatida sodir bo'lishi mumkin:

- ketma-ket uch marotaba noto'g'ri PIN-kodni kiritish;
- bankomat ishida nosozlik;
- mijoz kartasini olishi uchun ajratilgan vaqt limitining tugashi.

Har bir bankomatda uni servis jihatidan qo'llab-quvvatlovchi bank bo'limining telefon raqami bor. Bankomatdan nari ketmay u yerga qo'ng'iroq qiling va ishlamayotgan bankomatning joylashgan joyini ma'lum qiling. Agar kartani bermagan bankomat ishi va servisiga javob beradigan bank bilan bog'lanishning iloji bo'lmagan bo'lsa, emitent-bankka qo'ng'iroq qilib, kartani blokirovka qilishni so'ragan ma'qul. Telefon raqamlari bankomatda ko'rsatilmagan yoki ular yaxshi ko'rinmagan taqdirda, o'z bankingizning mijozlarni qo'llab-quvvatlash koll-markaziga qo'ng'iroq qiling. Bankdan kartani olganda albatta karta bergan bankning telefon raqamini yozib oling. Bu unda mablag'larning saqlanishiga ko'mak beradi. Karta bankomat bilan yuzaga kelgan muammo haqida bankka xabar berilgandan keyin bir necha kundan keyin qaytariladi. Uni olish uchun ariza yozishga to'g'ri keladi. Kartadan yechib olinishi rejalashtirilgan summani bank bo'limidan olish mumkin, biroq buning uchun uning raqamini bilish hamda yoningizda pasport yoki boshqa shaxsni tasdiqlovchi hujjat bo'lishi lozim.

Kartani qabul qilishda uning saqlovchisiga konvert beriladi, unda RIN-kod va bankning texnik qo'llab-quvvatlash xizmat raqami ko'rsatilgan bo'ladi, uni qayergadir panaroq joyga yozib qo'yish yoki yaxshisi eslab qolgan ma'qul. Agar karta yo'qotilsa, darhol bankning qo'llab-quvvatlash xizmatiga qo'ng'iroq qilib, yo'qotish to'g'risida xabar berish va karta tiklangunga qadar yoki u topilguncha blokirovka qilib qo'yish uchun RIN-kodni aytish kerak. XPKni blokirovkadan chiqarish yoki tiklash faqat O'zbekistonda bankka u yo'qotilganligi yoki blokirovka qilish to'g'risida ariza berilgandan so'ng amalga oshiriladi. Ariza faqat karta saqlovchisi tomonidan berilgan taqdirda ko'rib chiqiladi. Qarindoshlar yoki yaqinlardan qabul qilinmaydi. Bu

choralar pul mablag'larini himoya qilish, ya'ni karta saqlovchisining ruxsatisiz uning kartasidagi pullarni hech kim tasarruf qila olmasligi uchun qabul qilinadi.

"Tijorat banklari tomonidan bank kartalarini emissiya qilish va ularni muomalada bo'lishi tartibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq tijorat banklari tomonidan bank kartasini emissiya qilish, xizmat ko'rsatish va undan foydalanish bilan bog'liq munosabatlarni huquqiy tartibga solish mazkur Nizom va O'zbekiston Respublikasining boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlari, shuningdek to'lov tizimi qoidalari hamda to'lov tizimi ishtirokchilari o'rtasida tuzilgan shartnomalarga asosan amalga oshiriladi.

To'lov tizimi ishtirokchilarining o'zaro munosabatlari mazkur Nizom, qonunchilikning boshqa hujjatlari hamda ularga asosan tuzilgan shartnomalar va o'rnatilgan qoidalarga binoan boshqariladi. O'zbekiston Respublikasi rezident banklari mahalliy, xorijiy va xalqaro to'lov tizimlariga a'zo bo'lish huquqiga ega. O'zbekiston Respublikasi rezident banklari - xorijiy va xalqaro to'lov tashkilotlarining a'zolari, agar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligida boshqasi o'rnatilmagan bo'lsa, bank kartalarini emissiya qilish, ularga xizmat ko'rsatish va operatsiyalarni amalga oshirishda tegishli to'lov tashkiloti tomonidan qabul qilingan qoidalaridan foydalanadi.

Bank kartalarini foydalanishga taqdim etish, bank kartalarini emissiya qiluvchi tijorat banki hamda uning mijozlari o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Shartnomalar bevosita mijoz ishtirokida yozma shaklda yohud masofadan xizmat ko'rsatish tizimlarida joylashtirilgan ofertani qabul qilish yo'li bilan tuzilishi mumkin. Bank kartalarini foydalanishga taqdim etish to'g'risidagi shartnoma shartlari to'lov tashkiloti qoidalariga mos kelishi zarur. Bank kartasi egasi tomonidan kartadan foydalangan holda amalga oshirishi mumkin bo'lgan operatsiyalarning turlari hamda ularni amalga oshirish qoidalari, bank kartasini foydalanishga taqdim etish to'g'risidagi shartnoma bilan belgilangan bo'lishi zarur. Bank kartalarini foydalanishga taqdim etish to'g'risidagi shartnomada, karta hisobvarag'idagi pul mablag'larini, imzo, PIN-kod va boshqa

vositalardan foydalangan holda tassarruf etish huquqi, aynan vakolatli shaxs tomonidan berilganligiga ishonch hosil qilish tartibi ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

Bank karta egasidan bank kartasining yo'qolganligi yoki o'g'irlanganligi to'g'risida ariza olinganda, emitent bank kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yishi hamda bank kartasini muomaladan chiqarish choralarini ko'rishi zarur.

To'lov tashkiloti, to'lov tizimi qoidalariga muvofiq ayrim emitentlar tomonidan emissiya qilingan bank kartalari orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish to'g'risidagi qarorni qabul qilishga haqlidir. Emitent quyidagi xolatlarda bank kartasi orqali operatsiyalar o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin:

- ✓ bank kartasi yoki uning rekvizitlaridan noqonuniy foydalanishni tasdiqlovchi holatlar mavjudligida;

- ✓ bank kartasini foydalanish vakolatiga ega bo'lmagan shaxs tomonidan ishlatilganda;

- ✓ bank kartalarini taqdim etish to'g'risidagi shartnomada ko'rsatilgan boshqa holatlarda.

Yuqorida ko'rsatilgan holatlar yuzaga kelganda, bank kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish yoki bank kartasini muomaladan chiqarish to'g'risida qaror qabul qilish tartibi to'lov tashkiloti qoidalariga asosan o'rnatiladi. Bank kartasi orqali operatsiyalarni o'tkazishni vaqtincha to'xtatib qo'yish hamda bank kartasini muomaladan chiqarish va bu haqda mijozga xabar berish tartibi to'lov tashkiloti qoidalariga hamda bank kartalarini foydalanishga taqdim etish to'g'risidagi shartnomaga asosan amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. Xalqaro to'lov kartalarining ishlash mexanizmi qanday?
2. Xalqaro to'lov kartalarining afzalliklari va kamchiliklari?
3. tijorat banklari tomonidan xizmat ko'rsatiladigan xalqaro to'lov kartalari va ular bilan bog'liq operatsiyalar qanday tartibga solinadi?
4. Xalqaro to'lov kartalarining ishtirokchilari kimlar?

9-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARNING AKKREDITIV SHAKLI

9.1. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklini mohiyati va turlari.

9.2. Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar.

9.1. Xalqaro hisob-kitoblarni akkreditiv shaklining mohiyati va turlari

Hujjatli (dokumentar) akkreditivlar uchun mo'ljallangan Soddalashtirilgan qoidalar va udumlarga muvofiq akkreditiv bu kelishuvdir hamda ushbu kelishuvga muvofiq bank mijozning iltimosiga ko'ra hujjatlarga muvofiq uchinchi shaxs (foydasiga akkreditiv ochilgan benefitsiarga) foydasiga to'lovni amalga oshirish yoki to'lovni, benefitsiar tomonidan qo'yilgan tratta akseptini, yoki hujjatlar negotsiatsiyasini (sotib olinishini) amalga oshirish majburiyatini o'z zimmasiga oladi. Akkreditiv bo'yicha bankning majburiyati mustaqil hisoblanib, tomonlarning tijorat kontrakti bo'yicha huquqiy munosabatlariga bog'liq emas.

Ushbu qoida banklar va ularning mijozlari manfaatlarini himoyalashga qaratilgandir: eksportyorga hujjatlar rasmiylashtirilishidagi talablar cheklovini va to'lovni faqat akkreditiv shartlari asosida olinishini, importyorga esa eksportyor tomonidan akkreditivning barcha shartlarini aniq bajarilishini ta'minlaydi.

Hujjatli (dokumentar) akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblarda quyidagi taraflar ishtirok etadi:

– importyor (buyruq beruvchi), u akkreditiv ochish to'g'risida bankka murojaat etadi;

– akkreditivni ochuvchi emitent-bank;

– avizo qiluvchi bank, ushbu bankka eksportyorga uning foydasiga akkreditiv ochilganligi to'g'risida xabar berish va akkreditiv matnini, uning haqqoniyligini tasdiqlagan holda topshirish topshirig'i beriladi;

– foydasiga akkreditiv ochilgan benefitsiar-eksportyor.

Hujjatli (dokumentar) akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar tartibi:

1. Akkreditiv ochishga arizani taqdim etish.

2. Emitent-bank tomonidan akkreditiv ochilishi va akkreditivni avizo qiluvchi bank orqali benefitsiarga yuborilishi.

3. Benefitsiarni, uning foydasiga akkreditiv ochilganligi to'g'risida ogoh etilishi (avizo qilinishi).

4. Tovarni eksportga jo'natilishi.

5. Akkreditiv bo'yicha to'lovni olish maqsadida benefitsiar tomonidan hujjatlar to'plamini rasmiylashtirilishi va bankka taqdim etilishi.

6. Avizo qiluvchi bank tomonidan hujjatlarni emitent-bankka yuborilishi.

7. Olingan hujjatlarni emitent-bank tomonidan tekshirilishi va ularga haq to'lash (akkreditivning barcha shartlari bajarilganidan so'ng).

8. To'lov amalga oshirilib bo'lingan hujjatlarni emitent-bank tomonidan akkreditiv bo'yicha buyruq beruvchiga topshirilishi.

9. Eksport tushumining avizo qiluvchi bank tomonidan benefitsiar hisobvarag'iga olinishi.

Hujjatli (dokumentar) akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar tartibi

Akkreditiv hisob-kitob shaklining sxemasi asosan quyidagidan iborat. Importyor bankka akkreditiv ochilishiga ariza taqdim etadi. Akkreditivni ochgan importyor banki eksportyor mamlakatida joylashgan o'zining vakil banklaridan biriga uni avizo qiluvchi bank sifatida tayinlagan holda akkreditiv xatini yo'llaydi hamda ochilgan akkreditiv haqidagi ma'lumotni benefitsiarga yetkazish to'g'risida ushbu avizo qiluvchi bankka topshiriq beradi. O'z foydasiga ochilgan akkreditiv haqidagi ma'lumotni (tovar to'lovini ta'minoti sifatida) olgandan so'ng, benefitsiar tovarni jo'natishga kirishadi hamda odatda jo'natilgan tovarlar bo'yicha hujjatlarni avizo qiluvchi bankka taqdim etadi.

O'z navbatida avizo qiluvchi bank mazkur hujjatlarni to'lov undirish maqsadida emitent bankka jo'natadi. Hujjatlar to'g'ri rasmiylashtirilganligini tekshirib bo'lganidan so'ng akkreditivni ochgan

bank to'lovni amalga oshiradi. Agarda hujjat akkreditiv shartlariga muvofiq bo'lsa emitent-bank pullarni avizo qiluvchi bank yo'riqnomalariga muvofiq ravishda o'tkazadi va tovarlarni qabul qilib olayotgan importyorga hujjatlarni topshiradi. Mazkur tovarlar evaziga kelib tushgan tushum eksportyor hisobvarag'iga olinadi.

Akkreditivning shartlariga muvofiq hujjatlarga haq to'lash vakolatiga ega bo'lgan bank (ijro etuvchi bank) sifatida avizo qiluvchi bank ham tayinlanishi mumkin. Bunday holatda avizo qiluvchi bank eksportyor tomonidan unga taqdim etilgan hujjatlarga muvofiq ravishda o'sha zahoti haq to'laydi hamda ushbu to'langan summani (qoplanmagan akkreditivlar holatida) emitent bankdan undirilishini talab etadi. Agarda ijro etuvchi bank va emitent bank o'rtasida vakillik munosabatlari o'rnatilmagan hamda vakillik hisobvaraqlari ochilmagan bo'lsa unda hisob-kitoblarda uchinchi (ramburslovchi) bank ishtirok etadi va ushbu bankda yuqorida zikr etilgan ikkala bankning vakillik hisobvaraqlari ochilgan bo'ladi.

Bunda akkreditiv ochilayotgan paytda emitent-bank yo'riqnomalar (ramburs vakolati)ni ramburslovchi bankka beradi, ya'ni ijro etuvchi bank talabnomalariga akkreditivning harakat muddati davri mobaynida va akkreditivda belgilangan summa hajmida haq to'lash to'g'risida farmoyish beradi.

Akkreditivning xilma xil turlari mavjud va ular quyidagi belgilariga ko'ra tasniflanadi:

1. Emitent-bank tomonidan akkreditiv shartlariga o'zgartirish kiritilishi yoki uni bekor qilinishining mumkinligi nuqtai nazaridan akkreditivning quyidagi turlari farqlanadi:

a) chaqirib olinmaydigan akkreditiv – bu, akkreditivni manfaatdor taraflar roziligisiz o'zgartirmaslik va bekor qilmaslik to'g'risidagi emitent-bankning qat'iy majburiyatidir;

b) chaqirib olinadigan akkreditiv – bu, benefitsiarni oldindan ogohlantirmasdan har qanday paytda o'zgartirish kiritilishi yoki bekor qilinishi mumkin bo'lgan akkreditivdir. Agarda akkreditiv xususida maxsus ko'rsatma bo'lmasa, ushbu akkreditiv chaqirib olinmaydigan akkreditiv hisoblanadi.

2. Akkreditiv bo'yicha boshqa bankning qo'shimcha majburiyatlari nuqtai nazaridan akkreditivlar tasdiqlangan va tasdiqlanmagan akkreditivlarga farqlanadi. Agarda emitent-bank o'zining chaqirib olinmaydigan akkreditivini tasdiqlash yuzasidan boshqa bankka vakolat bersa yoki ushbu haqida unga iltimos qilsa, unda (agar ko'zda tutilgan barcha hujjatlar taqdim etilgan va akkreditivning barcha shartlari bajarilgan bo'lsa) bunday tasdiq tasdiqlovchi bankning emitent-bank majburiyatiga qo'shimcha bo'lmish to'lov, aksept yoki tratta negotsiatsiyasi bo'yicha qat'iy majburiyatini bildiradi.

3. Akkreditivning takrorlanishi mumkinligi nuqtai nazaridan rollover (revolver, qayta tiklanadigan) akkreditivlari qo'llaniladi.

Akkreditivlarning ushbu turi kontrakt qiymatining bir qismiga ochiladi hamda ochilgan akkreditiv summasi to'liq ishlatib bo'linganidan so'ng (hujjatlarning bir qator to'plami uchun) akkreditivning dastlabki summasini tiklanishi sharti bilan davom etadi. Qabul qilingan qoidaga muvofiq akkreditiv matnida uning umumiy summasi ko'rsatiladi hamda mazkur akkreditiv bo'yicha yalpi majburiyatlar ushbu summa hajmidan ortiq bo'lmasligi kerak. Muomala xarajatlarini qisqartirish imkonini beruvchi rollover akkreditivlari uzoq vaqt mobaynida, davriy ravishda yetkazib beriladigan tovarlar bo'yicha yirik summalarga tuzilgan kontraktlar yuzasidan hisob-kitoblarda keng qo'llaniladi.

4. Ikkinchi benefitsiarlar (tovarlarni bevosita yetkazib beruvchilar)ni akkreditivdan foydalanish imkoniyati nuqtai nazaridan o'tkaziladigan (transferabelli) akkreditivlar farqlanadi. Subyetkazuvchilar tomonidan amalga oshiriladigan tovarni komplektli yetkazib berilishida akkreditiv benefitsiar ko'rsatmasiga binoan ikkinchi benefitsiar tomonidan o'zining mamlakatida yoki boshqa mamlakatda to'la yoki qisman o'tkazib berilishi mumkin. Transferabelli akkreditiv bir marotaba (undan ko'p emas) o'tkaziladi.

5. Valyuta qoplanishining mavjudligi nuqtai nazaridan qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar farqlanadi. Qoplanish bilan akkreditiv ochilayotganda emitent-bank akkreditiv summasiga teng bo'lgan valyutani odatda avizo qiluvchi bankga o'tkazadi. Akkreditivlarni

qoplashning boshqa shakllariga depozit va blok qilingan hisobvaraqlar, yuqoridagi depozitlari hamda boshqa shu kabilar kiradi. Zamonaviy sharoitda qoplanmagan akkreditivlar nisbatan kengroq qo'llaniladi.

6. Akkreditivni amalga oshirilishi imkoniyatlariga qarab uning quyidagi turlari farqlanadi: hujjatlarga qarshi to'lovi bilan akkreditivlar; akkreditivning barcha shartlari bajarilishi sharoitida emitent-bank tomonidan trattalar akseptini ko'zda tutgan, akseptli akkreditivlar; to'lov kuchiktirilishi bilan akkreditivlar; hujjatlar negotsiatsiyasi bilan akkreditivlar.

Hujjatli (dokumentar) akkreditivdan farqli o'laroq pul akkreditivi – bu, oluvchiga ma'lum bir muddat mobaynida pul to'lanishi haqidagi buyruqqa ega bo'lgan, albatta ushbu hujjatda mavjud barcha shartlarga rioya etilgan holatdagi nomli hujjatdir.

Akkreditivning yana bir turi bo'lib erkin negotsiatsiyali sirkulyarli akkreditiv hisoblanadi. U, uni bajarishga ixtiyori bo'lgan har qanday bankka qaratilishi mumkin. Mazkur turdagi akkreditivlar chaqirib olinmaydigan bo'lib hisoblanadi va odatda ishbilarmon doiralarda taniqli bo'lgan, yuqori mavqega ega, yirik banklar tomonidan chiqariladi.

Zamonaviy sharoitlarda kompensatsion va “bek-tu-bek” akkreditivlari ham qo'llaniladi. Ushbu akkreditivlarning iqtisodiy mazmuni quyidagilardan iborat. Xorijlik sotib oluvchi topshirig'iga binoan foydasiga akkreditiv ochiladigan benefitsiar, tovar ishlab chiqaruvchi emas, balki vositachi bo'lib hisoblanadi. Shu sababli so'nggi sotib oluvchiga tovar yetkazib berilishini ta'minlash uchun u ushbu tovarni sotib olishi lozim. Agarda mahsulot ishlab chiqaruvchi firma bilan hisob-kitoblar hujjatli (dokumentar) akkreditiv shaklida amalga oshiriladigan bo'lsa, unda vositachi tashkilot mazkur akkreditiv ochilishining kafolati sifatida uning foydasiga importyor banki tomonidan ochilgan dastlabki akkreditivni bankka taklif etishi mumkin.

Ayrim mamlakatlar, ayniqsa AQSh kontragentlar tomonidan kontrakt yuzasidan o'z zimmalariga olgan majburiyatlarni bajarilishining kafolati sifatida xizmat qiluvchi zaxirali kafolatli akkreditiv (“stend-bay”)dan foydalanadilar.

Taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha importyor tomonidan haq to'lanmasligi sharoitida eksportyor to'lovni olish uchun importyor bankiga murojaat etishi mumkin. Xususan, "stend-bay" akkreditivi ko'psonli sotib oluvchi va banklarning ishtirokidagi neft bilan savdoda qo'llaniladi. Ushbu savdo jarayonidagi ishtirokchilar sonining ko'pligi mazkur savdoning so'nggi bo'g'ini sifatidagi importyorga hujjatlar kechikib kelishiga sabab bo'lgan.

Qizil yoki yashil bandli akkreditiv

Tarixiy jihatdan ushbu turdagi akkreditivlar qayta ishlanmagan tovarlarni (paxta, g'alla, rezina kauchuk va boshqalarni) Sharqiy mamlakatlardan Yevropaga eksport qilishda ishlatilgan va sotuvchiga avans to'lovini to'lash bilan bog'liqdir.

Qizil bandli akkreditiv – emitent bankka benefitsiar (eksportyor) bankiga savdo hujjatlari taqdim etilguncha kelishilgan summani oldindan to'lash huquqini beradi. O'sha yillarda akkreditivlar bank xati shaklida chiqarilganida, bunday band alohida ahamiyat kasb etganligi sababli hujjatda qizil rang bilan ko'rsatilgan va shu sababli shunday nom berilgan. Mazkur akkreditiv shartlarida ushbu avans to'lovi kafolatlangan asosga ega ekanligi (tovarlarni ishlab chiqarish, buyurtma berish yoki saqlash) aniq ko'rsatilishi kerak.

Odatda, avans to'lovi yetkazib beruvchi tomonidan tegishli shartlar bajarilmaganda avans to'lovini qaytarish kafolati asosida amalga oshiriladi.

Yashil bandli akkreditiv – oldindan avans to'lovini (vakolatli bankning tanlovi bilan) omborning tovarlariga vaqtincha kvitansiyasi bilan, ya'ni ombordagi tovarlar borligini bilgan holda amalga oshiriladi, u tovarlar ombordan jo'natilganidan keyin omborning tovarlariga vaqtincha kvitansiyasi akkreditiv hujjatlarga almashtiriladi.

Hisob-kitoblarning akkreditiv shakli eng murakkab va qimmat hisob-kitob shaklidir. Akkreditiv bo'yicha operatsiyalar (hujjatlarni avizo qilish, tasdiqlash, tekshirish, to'lash operatsiyalari)ni bajarganligi uchun banklar hisob-kitoblarning boshqa shakllariga nisbatan (masalan inkasso) kattaroq vositachilik haqi oladilar. Bundan tashqari importyor

akkreditiv ochish uchun odatda foizini to'lagan holda bank kreditidan foydalanadi. Bu esa ushbu hisob-kitob shaklini yanada qimmatlashtiradi.

Akkreditiv hisob-kitob shakli importyor kapitalini immobilizatsiyasi va sochilib ketishiga olib keladi. Chunki u tovarlar olingunga va sotilgunga qadar akkreditiv ochishi kerak. Biroq shu bilan birgalikda ushbu hisob-kitob shakli unga bank orqali eksportyor tomonidan shartnoma shartlarining bajarilishini nazorat qilish imkonini beradi. Eksportyor uchun akkreditiv shaklidagi hisob-kitoblar, bo'nak to'lovlaridan so'ng, eng qulay hisob-kitob shakli bo'lib hisoblanadi. Chunki ushbu hisob-kitob shakli to'lovni bank tomonidan o'z zimmasiga olganligi to'g'risidagi majburiyatni o'z ichiga olgan yagona hisob-kitob shaklidir (banklarning kafolat berish operatsiyalaridan tashqari).

Shunday qilib, eksportyor uchun chaqirib olinmaydigan akkreditiv inkasso hisob-kitob shakliga qaraganda quyidagi imtiyozlarga ega: hisob-kitoblarning ishonchliligi va tovarlarga to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilishini kafolatlanganligi, chunki ushbu to'lovni bank amalga oshiradi; agarda bank to'lovni tovarlar jo'natilganidan so'ng, ushbu haqda taqdim etilgan hujjatlar bo'yicha darhol amalga oshirsa to'lovni tez olinishi, (aksincha bo'lganda, eksportyor akkreditivdan to'lov olingunga qadar o'z bankida milliy valyutada kredit olishi mumkin); akkreditivni xorijiy valyutada ochilishida importyor tomonidan eksportyor mamlakatiga valyutani o'tkazish to'g'risida ruxsatnoma olinishi.

9.2. Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3229) 7-bobi akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblarga bag'ishlangan bo'lib, unda

mamlakatimizda akkreditiv hisob kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilangan.

Mazkur nizom keltirilganidek, akkreditivga ariza mablag'larni to'lovchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan summani oluvchining akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar uchun ochilgan bank hisobvarag'iga o'tkazishida qo'llaniladigan to'lov hujjati hisoblanadi.

Akkreditiv bo'yicha hisob-kitob qilinganida to'lovchining topshirig'i bilan va uning ko'rsatmalariga muvofiq akkreditiv ochgan bank (bank-emitent), mablag'larni oluvchi yoki u ko'rsatgan shaxs hujjatlarni taqdim etgan va akkreditivda nazarda tutilgan boshqa shartlarni bajargan taqdirda to'lovni amalga oshirish majburiyatini oladi.

Akkreditiv bo'yicha xalqaro hisob-kitoblarda chet el banklari ishtirok etganda, ushbu operatsiyalar Xalqaro savdo palatasining standartlari asosida amalga oshiriladi.

Akkreditivning amal qilish muddati va u bo'yicha hisob-kitob qilish tartibi mablag'larni to'lovchi va oluvchi o'rtasidagi shartnomada belgilab qo'yiladi.

Bunda shartnoma quyidagilarni o'z ichiga olishi shart:

- mablag'larni to'lovchining banki nomi;
- akkreditivning turi va uni bajarish usuli;
- akkreditiv ochilganligi haqida mablag'larni oluvchini xabardor qilish usuli;
- akkreditiv bo'yicha mablag'lar olish uchun mablag'larni oluvchi tomonidan taqdim etiladigan hujjatlarning to'liq ro'yxati va aniq tavsifi;
- tovarlar jo'natilganidan (xizmatlar ko'rsatilganidan, ishlar bajarilganidan) keyin hujjatlarni taqdim etish muddatlari, ularni rasmiylashtirishga qo'yiladigan talablar.

Mazkur yuqorida nazarda tutilgan talablarga rioya qilinmaganda akkreditiv bo'yicha shartnoma tuzilmaydi va akkreditiv ochilmaydi.

Akkreditiv qoplangan (deponentlangan) va qoplanmagan bo'lishi mumkin.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki uni ochish vaqtida mijozning mablag'larini yoki unga berilgan kreditni to'lovchining banki

majburiyatlari amal qilib turadigan butun muddatga mablag'larni oluvchining banki ixtiyoriga o'tkazadi.

Qoplanmagan akkreditiv ochilgan taqdirda mablag'larni to'lovchining banki mablag'larni oluvchining bankiga akkreditivning butun summasini to'lovchining bankiga mablag'larni oluvchining bankida yuritilayotgan hisobvarag'idan o'chirish huquqini beradi.

Akkreditivlar banklar tomonidan 1-son kartotekada va "Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari" 22602 balans hisobvarag'ida hisobga olinadi. Mablag'larni oluvchi uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankda akkreditivlar bo'yicha alohida depozit hisobvaraqlari ochiladi.

1-son kartoteka – bu banklarda to'lov muddatini kutayotgan to'lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraqqidir;

Qoplangan va qoplanmagan akkreditivlar o'zgartirish kiritish tartibiga ko'ra chaqirib olinadigan va chaqirib olinmaydigan turlarga bo'linadi. Akkreditivda uning chaqirib olinmasligi nazarda tutilmagan bo'lsa, bunday akkreditiv chaqirib olinadigan akkreditiv hisoblanadi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchi bilan oldindan kelishilmasdan o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin. Akkreditivning chaqirib olinishi to'lovchining banki uchun hech qanday majburiyatni vujudga keltirmaydi.

Chaqirib olinadigan akkreditiv shartlarini o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha mablag'larni to'lovchining topshiriqlari mablag'larni to'lovchining banki orqali beriladi va mablag'larni to'lovchining banki tomonidan mablag'larni oluvchining bankiga, oluvchining banki tomonidan esa mablag'larni oluvchiga xabar beriladi.

Mablag'larni oluvchining banki akkreditivni o'zgartirish yoki bekor qilish bo'yicha xabarnoma olmagan taqdirda, chaqirib olinadigan akkreditiv bo'yicha barcha operatsiyalarni amalga oshirishga majbur.

Chaqirib olinmaydigan akkreditiv mablag'larni oluvchining roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Mablag'larni oluvchining banki chaqirib olinmaydigan akkreditivni mablag'larni to'lovchining banki bilan tuzilgan shartnoma asosida

tasdiqlashi mumkin. Bunda chaqirib olinmaydigan akkreditiv tasdiqlangan akkreditiv hisoblanadi.

Tasdiqlangan akkreditivlarda mablag'larni oluvchining banki to'lovni amalga oshirish bo'yicha qo'shimcha majburiyatlar oladi. Tasdiqlangan akkreditiv mablag'larni oluvchining banki roziligisiz o'zgartirilishi yoki bekor qilinishi mumkin emas.

Akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar, agar qonun hujjatlarida boshqacha tartib belgilab qo'yilgan bo'lmasa, naqd pulsiz tartibda amalga oshiriladi.

Akkreditivni boshqa shaxslar nomiga qayta rasmiylashtirish taqiqlanadi.

Mablag'larni to'lovchi akkreditiv ochish uchun unga xizmat ko'rsatuvchi bankka shartnomani ilova qilgan holda ikki nusxada akkreditivga ariza bilan murojaat qiladi. Bunda arizaning (to'lov hujjatining):

1. Birinchi nusxasi to'lovlar amalga oshirilgandan so'ng bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi;

2. Ikkinchi nusxasi mablag'larni to'lovchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilinadi.

Akkreditiv summasi bir vaqtning o'zida ko'zda tutilmagan holatlar balansdan tashqari hisobvarag'iga kiritiladi.

Qoplangan akkreditivda nazarda tutilgan summa mablag'larni oluvchining bankida ochilgan hisobvaraqqa mablag'larni to'lovchining arizasiga (to'lov hujjati bilan) asosan o'tkaziladi. Bunda mablag'larni oluvchining banki akkreditivda nazarda tutilgan summa mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga kelib tushganligi haqida uni xabardor qiladi.

Mablag'larni oluvchining bankiga to'lov tizimi orqali kelib tushgan akkreditivga arizalar bank tomonidan ikki nusxada chop etilib, uning bir nusxasi bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi, ikkinchi nusxasi - 1-son kartotekada hisobga olinadi.

Akkreditivning muddati tugaganiga qadar mablag'larni oluvchi va to'lovchi o'rtasida tuzilgan shartnomada belgilangan va mablag'larni oluvchi tomonidan akkreditiv shartlari bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlar ikki nusxada taqdim qilingan taqdirda, tegishli summa uning

hisobvarag'iga o'tkazib beriladi. Bunda bank tomonidan mablag'larni oluvchining akkreditiv shartlariga rioya qilganligi hamda ularning bajarilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni to'g'ri rasmiylashtirganligi tekshirilishi shart.

Mablag'larni to'lovchi va oluvchi o'rtasida tuzilgan akkreditiv bo'yicha shartnomada belgilangan shartlarning bittasi bajarilmagan taqdirda ham akkreditiv bo'yicha to'lovlar amalga oshirilmaydi.

Mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga mablag'larni o'tkazishda bank tomonidan to'rt nusxada memorial order rasmiylashtirilib, uning "To'lov maqsadi" grafasida to'lov qaysi shartnoma asosida amalga oshirilayotgan bo'lsa, shu shartnomaning tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi. Bunda memorial orderning:

✓ birinchi nusxasi tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi bilan birga bankning buxgalteriya kunlik hujjatlari yig'majildiga tikib qo'yiladi;

✓ ikkinchi va uchinchi nusxalari ularga tasdiqlovchi hujjatlar nusxasi ilova qilingan holda mablag'larni to'lovchining bankiga yuboriladi;

✓ to'rtinchi nusxasi shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirma bilan birga mablag'larni oluvchiga beriladi hamda akkreditiv bo'yicha to'langan summa 1-son kartotekadan hisobdan chiqariladi.

Mablag'larni to'lovchining banki tomonidan akkreditivning ijro etilganligi to'g'risidagi hujjat mablag'larni oluvchining bankidan olinganidan so'ng, akkreditiv summasi 1-son kartotekadan hisobdan chiqariladi va mablag'larni oluvchining banki tomonidan taqdim qilingan memorial orderning bir nusxasi tasdiqlovchi hujjatlar ilova qilingan holda mablag'larni to'lovchiga beriladi.

Akkreditiv mablag'larni oluvchining bankida:

• akkreditiv muddati tugagan bo'lsa;

• mablag'larni oluvchining akkreditiv amal qilish muddati tugagunga qadar undan foydalanishdan voz kechishi haqidagi arizasiga ko'ra, agar bunday voz kechish mumkinligi akkreditiv shartlarida nazarda tutilgan bo'lsa;

• mablag'larni to'lovchining akkreditivni butunlay yoki qisman chaqirib olish haqidagi talabiga muvofiq, agar bunday chaqirib olishga akkreditiv shartlari bo'yicha yo'l qo'yilsa, yopiladi.

Akkreditiv yopilganligi haqida mablag'larni oluvchining banki mablag'larni to'lovchining bankini xabardor qilishi kerak.

Akkreditiv mablag'larni to'lovchiga xizmat ko'rsatuvchi bank tomonidan xabarnoma olingan kunda "Mijozlarning akkreditivlar bo'yicha depozitlari" 22602 balans hisobvarag'i tegishli summadan kam bo'lmagan summaga kamaytiriladi yoki yopiladi.

Qoplangan (deponentlangan) akkreditivning foydalanilmagan summasi akkreditiv yopilishi bilan bir vaqtda mablag'larni to'lovchining bankiga qaytarib berilishi kerak. Mablag'larni to'lovchining banki qaytarib berilgan summalarni mablag'larni to'lovchining mablag'lari deponentlangan hisobvarag'iga kiritib qo'yishi shart.

Akkreditivdan to'liq foydalanilmaganligi sababli, mablag'lar to'lovchining bankiga qaytarilgan taqdirda, bank tomonidan ochilgan 1-son kartoteka qaytarilgan summaga teng miqdorda kamaytiriladi.

Akkreditiv bo'yicha qisman to'lovlar amalga oshirilgan taqdirda, mablag'larni to'lovchining banki va mablag'larni oluvchining banki amalga oshirilgan qisman to'lovlarni 1-son kartotekadan hisobdan chiqarib boradi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklini mohiyatini aytib bering.
2. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shakli turlarini aytib, bir biridan farqlab bering.
3. Hujjatli (dokumentar) akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblarda kimlar, ya'ni, taraflar ishtirok etadi?
4. Hujjatli (dokumentar) akkreditiv bo'yicha hisob-kitoblar tartibini aytib bering.
5. O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomda akkreditivlar bo'yicha hisob-kitoblar bo'yicha nimalar belgilangan?
6. Akkreditiv bo'yicha shartnoma o'z ichiga nimalarni olishi shart?
7. 1-son kartoteka nima?
8. Tijorat bankidagi 22602 balans hisobvarag'i qanday hisobvaraqa?

10-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARNING INKASSO SHAKLI

10.1. Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shaklini mohiyati.

10.2. Mamlakatimizda inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar.

10.1. Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shaklini mohiyati

Inkasso – bu, mijozning topshirig'iga asosan bank tomonidan importyordan unga jo'natilgan tovarlar va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovni olinishi hamda ushbu mablag'larni eksportyorning bankdagi hisobvarag'iga olgan holdagi bank operatsiyasidir. Inkasso operatsiyalari inkasso bo'yicha Soddalashtirilgan qoidalarga muvofiq ravishda eksportyordan olingan yo'riqnomalarga asosan banklar tomonidan amalga oshiriladi. Inkasso hisob-kitob shaklida quyidagi taraflar ishtirok etadilar:

1) ishonib topshirayotgan shaxs-mijoz – bu, o'z bankiga inkasso operatsiyasini amalga oshirishga topshiriq beruvchi shaxs;

2) inkasso qilish bo'yicha operatsiya o'tkazishni ishonib remitent-bankka topshiriq beruvi shaxs;

3) valyuta mablag'larini oluvchi hamda inkasso qilish bo'yicha operatsiyani amalga oshiruvchi bank;


4) to'lovchi bo'lmish importyorga hujjatlarni taqdim etib, eksportyor nomidan chiquvchi bank;

5) to'lovni to'lovchi.

1. Eksportyor importyor bilan tovarlarni hujjatli (dokumentar) inkasso hisob-kitob shartlari asosida sotish to'g'risida kontrakt tuzadi va unga tovarlarni jo'natadi (1a).

2. Eksportyor o'z bankiga inkasso-topshiriqnomasi va tijorat hujjatlarini yo'llaydi.

Hujjatli (dokumentar) inkasso bo'yicha hisob-kitoblar tartibi



3. Eksportyor banki olgan ushbu inkasso-topshiriqnomasi va tijorat hujjatlarini importyor nomidan chiquvchi bankka (importyor bankiga) jo'natadi.

4. Importyor nomidan chiquvchi bank mazkur hujjatlarni importyorga taqdim etadi.

5. Importyor hujjatlarga qarata inkasso qilish operatsiyasini amalga oshiruvchi bankka (yoki o'zining bankiga) to'lovni amalga oshiradi.

6. Inkasso qilish operatsiyasini amalga oshiruvchi bank remitent-bankka (yoki eksportyor bankiga) to'lovni o'tkazadi.

7. O'tkazib berilgan summani remitent-bank eksportyor hisob raqamiga oladi.

Oddiy va hujjatli (dokumentar) inkasso bir-biridan farqlanadi. Oddiy (sof) inkasso tijorat hujjatlarisiz yuborilgan moliyaviy hujjatlar bo'yicha to'lov undirilishini anglatadi. Hujjatli (dokumentar) (tijorat) inkasso esa tijorat hujjatlari bilan birgalikda yuborilgan moliyaviy hujjatlar yoki faqat tijorat hujjatlari inkassosini anglatadi. Bunda qandaydir bir hujjatlarga qarata to'lovni amalga oshirish majburiyati banklar zimmasiga yuklatilmagan.

Eksportyor tovarlarni jo'natganidan so'ng importyordan to'liq va aniq yo'riqnomalar keltirilgan inkasso topshiriqnomasida ko'rsatilgan

shartlari asosida, valyutaning ma'lum bir summasini olish to'g'risida o'z bankiga topshiriq beradi.

Inkasso-topshiriqnomasining ikki asosiy ko'rinishi mavjud:

- a) hujjatlar to'lovga qarata to'lovni amalga oshiruvchiga beriladi;
- b) akseptga qarata beriladi.

Ba'zi paytlarda hujjatlarni importyorga, uning belgilangan muddatlarda to'lovni amalga oshirish bo'yicha yozma tarzdagi majburiyatiga qarata to'lovsiz asosda berilishi amaliyoti qo'llaniladi. Bunday shartlardan foydalangan holda importyor sotib olingan tovarni sotish hamda olingan tushum evaziga inkasso bo'yicha eksportyorga to'lovni amalga oshirish imkoniyatlariga ega bo'ladi. Eksportyor tomonidan valyuta tushumi olinishini tezlashtirish maqsadida bank trattalar hisobini yuritishi (ularni diskont bilan sotib olish yoki garovga olish) yoki tijorat hujjatlari garovi ustidan kredit taqdim etishi mumkin.

Shunday qilib, inkasso hisob-kitob shakli kredit munosabatlari bilan bevosita bog'liqdir. Inkasso tijorat krediti shartlari asosidagi kontraktlar bo'yicha hisob-kitoblarning asosiy shakli bo'lib hisoblanadi. Bunda eksportyor odatda unga tijorat hujjatlari (hujjatli inkasso)ni taqdim etilishi evaziga to'lovchi tomonidan akseptlanishi uchun trattani inkassoga taqdim etadi. To'lov muddati yetib kelganda akseptlangan veksellar to'lovni undirish maqsadida inkasso (sof inkasso) qilinishi uchun yuboriladi.

Inkasso shakli bo'yicha hisob-kitoblar asosiy majburiyati tovar hujjatlariga qarata to'lovni amalga oshirishdan iborat bo'lgan importyorga mablag'larni o'z ichki muomalasidan oldindan chiqarib, chetda band qilinishiga zarurat qoldirmaydigan ma'lum bir imtiyozlarni beradi. Biroq agarda tovar olinishini tezlashtirish maqsadida konosament asl nusxalaridan birining sotib oluvchiga bevosita jo'natish amaliyoti qo'llanilmayotgan bo'lsa importyor tomonidan tovarlar uchun haq to'lanmagunga qadar eksportyor hamon tovarga egalik qilishning yuridik huquqini o'zida saqlab qoladi.

Shu bilan birgalikda hisob-kitoblarning inkasso shakli eksportyor uchun ahamiyatli bo'lgan kamchiliklarga ega.

Birinchidan importyor tomonidan tovarlarga haq to'lamaslik xavf-xatarini eksportyor o'z zimmasiga oladi. Importyor tomonidan tovarlarga haq to'lanmasligi bozor konyunkturasi yoki to'lovchi moliyaviy holatining yomonlashuvi bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Shu sababli importyorning to'lov qobiliyati va lafzililigiga bo'lgan eksportyorning ishonchi inkasso hisob-kitoblarining muhim sharti bo'lib hisoblanadi.

Ikkinchidan inkasso bo'yicha valyuta tushumining kelib tushishi va tovarlarning importyorga jo'natilishi orasida, ayniqsa uzoq masofalarga tovar yetkazishda, sezilarli vaqt uzilishlari mavjud. Inkasso hisob-kitobiga xos bo'lgan ushbu kamchiliklarni bartaraf etish uchun amaliyotda mazkur hisob-kitob shaklini amalga oshirilishida quyidagi qo'shimcha shartlar qo'llaniladi:

1) importyor eksportyor bankining tovar hujjatlarini inkassoga qabul qilganligi va jo'natganligi to'g'risidagi telegrammasi (telegraf inkassosi)ni olishi bilanoq tovarlar uchun to'lovni to'laydi. Inkassoning ushbu turi amaliyotda keng tarqalmagan;

2) importyor tomonidan to'lovni amalga oshirilmasligi holatida bank eksportyor oldida inkasso bo'yicha haqni to'lash to'g'risidagi majburiyatni o'z zimmasiga olgan holda importyorning topshirig'iga binoan eksportyor foydasiga to'lov kafolatini beradi.

To'lovning qo'shimcha kafolati odatda tijorat krediti yuzasidan hisob-kitoblarda qo'llaniladi, chunki to'lovning kechiktirilishi holatida to'lovchi moliyaviy holatida ro'y bergan ehtimolli o'zgarishlar sababli hujjatlar bo'yicha importyor tomonidan haq to'lanmaslik xatari o'sadi. Ba'zida importyorning banki veksel "avali"ni amalga oshiradi. Aval (to'lov kafolati) – bu, vekselni kafillikdir. Avalchi-bank odatda bankning to'lov kafolati aniq kimga berilganligi to'g'risidagi shartlashuv bilan vekselning yuz qismida o'z imzosini qo'ygan holda, to'lov yuzasidan majburiyatni o'z zimmasiga oladi. O'zgacha bo'lganda esa o'tkaziladigan veksel taqdim etuvchisi (eksportyor) uchun aval berilgan deb hisoblanadi;

3) immobilizatsiya qilingan resurslarni qoplash maqsadida eksportyor bank kreditga murojaat etadi.

10.2. Mamlakatimizda inkasso topshiriqnomalari bo'yicha hisob-kitoblar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3229) 6-bobi inkasso topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblarga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakatimizda inkasso hisob kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilangan.

Inkasso topshiriqnomasi unda ko'rsatilgan mablag'larni to'lovchining banki hisobvarag'idan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarish bo'yicha mablag'larni oluvchining topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjati.

Inkasso topshiriqnomasi mablag'larni to'lovchining faqat asosiy talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga taqdim etilishi mumkin, bundan chet el valyutasidagi bank hisobvaraqlariga taqdim etiladigan inkasso topshiriqnomasi mustasno.

Quyidagilar inkasso topshiriqnomalarini taqdim etish huquqiga ega:

a) davlat soliq xizmati organlari – o'z muddatida to'lanmagan byudjet tizimiga o'tkaziladigan soliqlar va yig'implarni undirish to'g'risida;

b) bojxona organlari – o'z muddatida to'lanmagan bojxona to'lovlarini undirish to'g'risida;

d) davlat ijrochilari va undiruvchilar ijro hujjatlari bo'yicha pul mablag'larini undirish to'g'risida;

e) O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi – O'zbekiston Respublikasining berilgan davlat kafolatlari bilan amalga oshirilgan to'lovlar va ular bilan bog'liq xarajatlar summasini qarz oluvchidan undirish hamda byudjet ssudasi yoki kredit liniyasi, shu jumladan foizlarni qaytarish to'g'risida;

d) O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Qishloq xo‘jaligini davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (bundan buyon matnda Jamg‘arma deb yuritiladi) – Jamg‘arma mablag‘lari hisobidan tijorat agentlariga (“O‘zpaxtasanoat” AJ, “O‘zdonmahsulot” AJ, “O‘zagrolizing” AJ, “O‘zmashlizing” MChJ) ajratilgan maqsadli mablag‘larni qaytarish bo‘yicha majburiyatlar tijorat agentlari tomonidan bajarilmagan taqdirda, ularning bank hisobvaraqlariga.

“Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ijro hujjatlari hisoblanadi. Ya’ni 7-modda bo‘yicha quyidagilar ijro hujjatlari hisoblanadi:

1) sudlar o‘zlari qabul qiladigan sud hujjatlari asosida beradigan ijro varaqalari;

2) hakamlik sudining qarorlarini majburiy ijro etish yuzasidan sudlar beradigan ijro varaqalari;

3) chet el sudlari va arbitrajlar qarorlari asosida O‘zbekiston Respublikasi sudlari beradigan ijro varaqalari;

4) sud buyruqlari;

5) alimentlar to‘lash to‘g‘risidagi notarial tarzda tasdiqlangan kelishuvlar;

6) notariuslarning ijro xatlari;

7) mehnat nizolari komissiyalari o‘z qarorlari asosida beradigan guvohnomalar;

8) ma‘muriy huquqbuzarliklar to‘g‘risidagi ishlarni ko‘rib chiqish vakolatiga ega organlar (mansabdor shaxslar) chiqargan qarorlar;

9) o‘zboshimchalik bilan turar joyni egallab olgan yoki avariya holatida deb topilgan uylarda yashayotgan shaxslarni ma‘muriy tartibda ko‘chirish to‘g‘risidagi prokurorlarning qarorlari;

10) davlat ijrochilarining qarorlari;

11) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda boshqa organlarning hujjatlari.

ИНКАССО ТОПШИРИҚНОМАСИ РАҚАМИ

Хужжатнинг	[]		
Маълумот қўлувчиси nomi	[]		
ИЛТИ	[]		
Маълумот қўлувчиси каттабери	[]	Маълумот қўлувчиси С/Д/и	[]
Маълумот қўлувчиси филиали nomi	[]	Маълумот қўлувчиси филиали	[]
Сўра	[]		
Маълумот сўрашчиси nomi	[]		
КРЕДИТ	[]		
Маълумот сўрашчиси каттабери	[]		
Маълумот сўрашчиси филиали nomi	[]	Маълумот сўрашчиси филиали	[]
Сўра (бу филиал)	[]		
Тўлов тарзи	[]		
Рекв	[]	Бил. Буланчир	[]
	(Ф.И.О., тизм.)		(Ф.И.О., келг)
	Ташқилоти	Маълумоти	Бил. тарзи ва тартиби
Бил.	[]	[]	[]

Ijro varaqasi, sud buyrug'i sudyaning elektron raqamli imzosi bilan tasdiqlangan elektron hujjat tarzida axborot tizimi orqali taqdim etilishi mumkin.

Ijro hujjatining asl nusxasi yo'qolgan taqdirda, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan tartibda beriladigan uning dublikati undiruv uchun asos bo'ladi.

Inkasso topshiriqnomasi ijro hujjatlari asosida taqdim etilganda, unga ijro hujjatining asl nusxasi, agar asl nusxasi yo'qolgan bo'lsa – dublikati ilova qilinadi, bundan elektron shaklda taqdim etilgan holatlar mustasno.

Mablag'larni ijro hujjatlarining nusxalari asosida hisobdan chiqarish taqiqlanadi.

Ijro hujjatlari asosida taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasining "To'lov maqsadi" grafasida ijro hujjatining nomi, tartib raqami va sanasi ko'rsatiladi.

Inkasso topshiriqnomalarining to'g'ri taqdim etilishi bo'yicha javobgarlik inkasso topshiriqnomasini taqdim etgan organlar zimmasiga

yuklatiladi. Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha to'lovlarni mablag'larni to'lovchilarning hisobvaraqlaridan so'zsiz ravishda hisobdan chiqarishga oid e'tirozlar bank tomonidan ko'rib chiqilmaydi.

Inkasso topshiriqnomalari bo'yicha mablag'larni undirib olishni to'xtatib qo'yish yoki chaqirib olish inkasso topshiriqnomasini taqdim etgan organ tomonidan yoki undiruvchining arizasiga ko'ra yoxud sud qaroriga muvofiq amalga oshiriladi.

Inkasso topshiriqnomasi sud qaroriga asosan yoki to'lovchi tugatilganligini tasdiqlovchi ma'lumot mavjud hollarda bekor qilinishi mumkin.

Inkasso topshiriqnomasi mablag'larni to'lovchi yoki oluvchining bankiga qog'oz va elektron shaklda taqdim etilishi mumkin.

Qog'oz shakldagi inkasso topshiriqnomasi mablag'larni to'lovchining bankiga taqdim etilganda, undagi rekvizitlar mablag'larni oluvchining banki tomonidan tekshiriladi hamda tekshirgan mas'ul xodimga birlashtirilgan shtamp bilan tasdiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi byudjet tizimi byudjetlarining shaxsiy g'azna hisobvaraqlariga mablag'larni undirishni nazarda tutuvchi inkasso topshiriqnomalari mablag'larni oluvchining banki tomonidan tasdiqlanishi talab etilmaydi.

Inkasso topshiriqnomasi bitta operatsiya bo'yicha takroran taqdim etilishi mumkin emas, bundan dastlabki inkasso topshiriqnomasi mablag'larni to'lovchining bankiga kelib tushmagan hollar mustasno.

Qog'oz shakldagi inkasso topshiriqnomasi mablag'larni oluvchi yoki to'lovchining bankiga uch nusxada taqdim qilinadi. Bunda inkasso topshiriqnomasining:

- birinchi va ikkinchi nusxalari ijro uchun bankda qoldiriladi;
- uchinchi nusxasi qabul qilish sanasi ko'rsatilgan holda inkasso topshiriqnomasini qabul qilib olgan mas'ul xodim tomonidan imzolaniadi va unga birlashtirilgan bank shtampi bilan tasdiqlanib, inkasso topshiriqnomasini taqdim etgan shaxsga qaytarib beriladi.

Mablag'larni oluvchining bankiga taqdim etilgan inkasso topshiriqnomasining birinchi va ikkinchi nusxalari "To'lov hujjatlarini

rasmiylashtirish” jurnalida qayd etilgan holda pochta xizmati orqali mablag‘larni to‘lovchining bankiga yuboriladi.

Elektron shakldagi inkasso topshiriqnomasi to‘lov hujjatlarini taqdim etish tizimi orqali mablag‘larni to‘lovchining bankiga elektron raqamli imzo bilan tasdiqlangan holda ijro uchun yuboriladi. Mablag‘larni to‘lovchining banki tomonidan to‘liq bajarilgan qog‘oz shakldagi inkasso topshiriqnomasining:

– birinchi nusxasi bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikib qo‘yiladi;

– ikkinchi nusxasi shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birga mablag‘larni to‘lovchiga taqdim etiladi.

Elektron shaklda taqdim etilgan inkasso topshiriqnomalarning hisobi bankda dasturiy ravishda yuritiladi.

Mablag‘larni to‘lovchining banki tomonidan to‘liq bajarilgan elektron shakldagi inkasso topshiriqnomasining nusxasini shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirma bilan birga mablag‘larni to‘lovchiga taqdim etish tartibi bank va mijoz o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Mablag‘larni oluvchining bankiga to‘lov tizimi orqali kelib tushgan elektron shakldagi inkasso topshiriqnomalari ro‘yxat ko‘rinishida chop etiladi va bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig‘majildiga tikib qo‘yiladi.

Elektron shakldagi inkasso topshiriqnomasining nusxasini mablag‘larni oluvchiga uning shaxsiy hisobvarag‘idan ko‘chirmaga ilova qilgan holda taqdim etish tartibi mijoz va bank o‘rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Mablag‘larni to‘lovchining hisobvarag‘ida yetarli mablag‘ bo‘lmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi bank tomonidan 2-son kartotekada hisobga olinadi va mablag‘larning yetarli bo‘lgan qismi doirasida to‘lov amalga oshiriladi, bunda inkasso topshiriqnomasining orqa tomonida qisman to‘lov amalga oshirilgan sana, qisman to‘langan summa va qoldiq ko‘rsatilib, imzo qo‘yiladi.

2-son kartoteka – muddatida to‘lanmagan to‘lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvaraqlar Inkasso topshiriqnomasi

bo'yicha summaning qolgan qismi mablag'larning kelib tushishiga qarab to'lab boriladi.

To'lov hujjatlarini taqdim etish tizimi orqali yuborilgan inkasso topshiriqnomasi asosida amalga oshirilgan qisman to'lovlar hisobi dasturiy ravishda yuritiladi.

Mablag'larni to'lovchining hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lmagan taqdirda, inkasso topshiriqnomasi 2-son kartotekada hisobga olinadi hamda mablag'larning kelib tushishiga qarab to'lab boriladi.

Inkasso topshiriqnomasi 2-son kartotekada hisobga olinganligi va to'lov summasi haqida u kelib tushgan kundan keyingi operatsiya kunidan kechikmay mablag'larni oluvchining bankiga yoki mablag'larni oluvchiga xabar beriladi.

Mablag'larni to'lovchining banki inkasso topshiriqnomasining o'z aybi bilan bajarilmaganligi yoki lozim darajada bajarilmaganligi uchun qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javobgar bo'ladi.

Nazorat uchun savollar

1. Xalqaro hisob-kitoblarning inkasso shaklini mohiyatini aytib bering.

2. Inkasso hisob-kitob shaklida qanday taraflar ishtirok etadi?

3. Hujjatli (dokumentar) inkasso bo'yicha hisob-kitoblar tartibi.

4. Inkasso-topshiriqnomasining qanday asosiy ko'rinishlari mavjud?

5. Hisob-kitoblarning inkasso shakli eksportyor uchun ahamiyatli bo'lgan qanday kamchiliklarga ega?

6. Kimlar inkasso topshiriqnomalarini taqdim etish huquqiga ega?

7. "Sud hujjatlari va boshqa organlar hujjatlarini ijro etish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasida nazarda tutilgan hujjatlar ijro hujjatlarini aytib bering.

8. 2-son kartoteka qanday hisobvaraqa?

11-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARDA TO'LOV TOPSHIRQONOMASI VA CHEKLARDAN FOYDALANISH

11.1. Bankning pul o'tkazmasi, bo'nak shaklidagi va ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblar.

11.2. Mamlakatimizda to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar.

11.3. Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish.

11.1. Bankning pul o'tkazmasi, bo'nak shaklidagi va ochiq hisobvaraq bo'yicha hisob-kitoblar

Bankning pul o'tkazmasi, pul o'tkazmasini oluvchi shaxsga ma'lum bir summani to'lashdan iborat bo'lgan bir bankning boshqa bir bankga topshirig'idan iboratdir. Banklar xalqaro hisob-kitoblarning ko'pgina holatlarida o'z mijozlarining topshiriqlari asosida pul o'tkazmalarini amalga oshiradilar. Ushbu operatsiyalarda quyidagi taraflar ishtirok etadi: pul o'tkazmasini o'tkazuvchi qarzdor-shaxs; o'tkazma to'g'risidagi topshiriqni qabul qilgan o'tkazuvchi shaxsning banki; o'tkazma oluvchining hisob raqamiga o'tkazma summasini oluvchi bank; o'tkazmani oluvchi shaxs.

Bank o'tkazmasi shakli asosida inkassoga haq to'lash, yakuniy hisob-kitoblar bo'yicha to'lovlar hamda bo'nak to'lovlari amalga oshiriladi. Bundan tashqari o'tkazma vositachiligida qayta hisoblashlar va boshqa operatsiyalar bajariladi.

Bank o'tkazmasi pochta yoki telegraf orqali, tegishli pochta yoki telegraf to'lov topshiriqnomalari bilan zamonaviy sharoitda esa SVIFT tizimi orqali amalga oshiriladi.

Bank o'tkazmalari boshqa to'lov shakllari bilan bir qatorda ishlatilishi mumkin (masalan, inkasso hamda kafolatlar bilan). Eksportyor o'tkazmalarni bank kafolati bilan bir qatorda ishlatishni afzal ko'radi. Chunki importyor tomonidan tovarlar uchun haq to'lanmagan taqdirda mazkur bank o'zining kafolati evaziga eksportyorga haq to'lab beradi. Sotib olingan tovarlarga pul o'tkazmasini amalga oshirishda importyor ko'p holatlarda bank kreditidan foydalanadi. Mazkur kreditning muddati akkreditiv holatidagi kredit muddatidan qisqaroqdir.

Bank pul o'tkazmasining iqtisodiy mazmuni tovar yoki xizmatlarga ular yetkazib berilmasdan turib (bo'nak to'lovlari) yoki ularni importyor tomonidan olinganidan so'ng (ochiq hisobvaraq shaklidagi hisob-kitoblar) pul to'lanayotganligiga bog'liq bo'ladi.

Bo'nak shaklidagi hisob-kitoblar. Mazkur hisob-kitoblar eksportyor uchun nihoyatda samaralidir, chunki tovarlar yetkazib berilgunga qadar importyor tomonidan ularga haq to'lanadi (ba'zida tovarlar ishlab chiqarilgunga qadar). Agarda importyor tovarlarga bo'nak shaklida haq to'lasa, unda u eksportyorni kreditlagan bo'ladi. Masalan, kontrakt qiymatining bir qismiga bo'lgan bo'nak to'lovlari xorijda obyektlar qurilishi bilan bog'liq kontraktlar shartlariga kiritiladi. Qiymati yuqori bo'lgan hamda alohida buyurtma asosida ishlab chiqarilgan jihoz, suv kemalari, havo kemalarining importi sharoitida ham qisman amalga oshiriladigan bo'nak to'lovlari qo'llaniladi. Xalqaro amaliyot talablariga muvofiq bo'nak shaklidagi to'lovlar kontrakt summasining 10 foizidan 33 foizigachasini tashkil etadi. Kontrakt shartlarining bajarilmasligi va tovarlar yetkazilmasligi holatida eksportyor banki olingan bo'nakni eksportyorning topshirig'iga asosan bo'nak to'lovi summasi hajmida, importyor foydasiga qaytarish to'g'risida kafolat beradi. Bundan tashqari bir qator tovarlarga bo'nak bilan haq to'lash tartibi qabul qilingan. Ushbu tovarlarga qimmatbaho metallar, yadro

yoqilg'isi, qurol-aslaha va boshqa shu kabilar kiradi. Zikr etilgan hisob-kitob shartlariga importyorning roziligi uning mazkur tovarlar yetkazib berilishi yoki manfaatlari kafolatlarda mavjud bo'lgan eksportyor tazyiqiga bog'liqdir.

Ochiq hisobvara q bo'yicha hisob-kitoblar. Ularning mohiyati tovarlar olinganidan so'ng importyorning eksportyorga bo'lgan muntazam to'lovlaridadir. Joriy qarzdorlik summasining hisobi savdo bo'yicha hamkorlarning kitoblarida yuritiladi. Xalqaro hisob-kitoblarning ushbu shakli ochiq hisobvara q bo'yicha kredit bilan bog'liqdir. Ochiq hisobvara q bo'yicha qarzdorlikni so'ndirish bilan bog'liq hisob-kitoblar tartibi kontragentlar o'rtasida tuzilgan kelishuv shartlari bilan belgilanadi. Odatda belgilangan muddatlardagi muntazam to'lovlar ko'zda tutiladi (tovar yetazib berilganidan so'ng yoki oyning boshida yoki oxirida importyor tomonidan tovarlar qayta sotib bo'linganidan so'ng). Hisob-kitoblarning solishtirma tekshiruvi amalga oshirilganidan so'ng ochiq hisobvara q bo'yicha qarzdorlikning yakuniy so'ndirilishi banklar orqali, odatda bank o'tkazmasi yoki chekidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Shu sababli bank statistikasi ochiq hisobvara q bo'yicha hisob-kitoblarni ko'p holatlarda bank o'tkazmalari sifatida hisobga oladi.

Ochiq hisobvara q quyidagi shaxslar o'rtasidagi hisob-kitoblarda ishlatiladi:

- an'anaviy savdo aloqalari bilan bog'liq firmalar o'rtasida;
- tovarlar eksporti yuzasidan transmilliy korporatsiya va uning xorijiy filiallari o'rtasida;
- eksportyor va broker firmasi o'rtasida;
- eksportyor ishtirokidagi aralash mulkchilikka asoslangan firmalar o'rtasida;
- ombordan sotishga mo'ljallangan, konsignatsiyaga jo'natilayotgan tovarlarga.

Tovarlarni muntazam yetkazib berish holatlarida uzoq muddatli samarali hamkorlikni o'zaro ishonch bilan qo'llab-quvvatlanishi hamda sotib oluvchi nufuzli firma bo'lgan sharoitda, odatda ochiq hisob vara q bo'yicha hisob-kitoblar qo'llaniladi. Mazkur hisob-kitob shakliga xos bo'lgan xususiyatli taraflardan biri shundaki,

tovarlar pullar harakatiga nisbatan tezroq harakatlanadi. Hisob-kitoblar tijorat krediti bilan bog'liq bo'lgan holda tovar yetkazib berish jarayonidan ajratilgan hamda ushbu holatda eksportyor odatda importyorni kreditlaydi. Agar kontragentlar o'rtasida tovarlar o'zaro yetkazib berilsa (bir-biridan sotib olsa) va hisob-kitoblar tovar yetkazib berilganidan so'ng ochiq hisobvara q bo'yicha amalga oshirilsa, unda ushbu hisob-kitoblar kontokorrent (yagona hisobvara q)da aks ettiriladi, ikki taraflama kreditlash hamda o'zaro talablar hisobi amalga oshiriladi.

Ochiq hisobvara q bo'yicha hisob-kitoblar importyor uchun nihoyatda qulaydir. Chunki u tovarlar eksportyor tomonidan yetkazib berilganidan so'ng haq to'laydi va foydalanayotgan kredit uchun foiz sifatida alohida haq to'lamaydi hamda yetkazib berilmagan yoki qabul qilinmagan tovar uchun haq to'lash xataridan holis bo'ladi. Eksportyor uchun esa ushbu hisob-kitob shakli nisbatan yoqimsizdir. Chunki ushbu hisob-kitob shakli to'lovni o'z vaqtida amalga oshirilishining ishonchli kafolatlariga ega emas, eksportyorning muomaladagi kapital harakati tezligini pasaytiradi va ayrim holatlarda bank kreditiga murojaat etishga majbur etadi. Ushbu hisob-kitob shaklidan bir tomonlama foydalanish sharoitida importyor tomonidan tovarlarga haq to'lamaslik xatari eksportyor tomonidan tovarlarni to'liq yetkazib bermaslikning bo'nak to'lovlaridagi xatariga o'xshashdir.

Ochiq hisobvara q bo'yicha hisob-kitob shakli asosan taraflar o'rtasida o'zaro ishonch mavjud bo'lgan hamda kontragentlar navbatma-navbat sotuvchi va sotib oluvchi rolida maydonga chiqayotgan holatlarda qo'llaniladi. Bir tomonlama hisob-kitoblarda ochiq hisobvara q bo'yicha hisob-kitoblar kamdan-kam qo'llaniladi.

Eksport hisobiga olingan erkin ayirboshlanadigan valyutadagi daromadlar hisobi yuritiladigan "eskrou" maxsus hisobvara g'ini ochish to'g'risidagi kelishuvdan ba'zi holatlarda foydalaniladi. Ushbu ko'rinishdagi hisobvara qning mavjudligi importyorning to'lov qobiliyatiga eksportyor ishonchini oshiradi.

Barter bitimlari bo'yicha hisob-kitoblar (jahon tovar almashuvining 10-15%) umum qabul qilingan shakllarda (ochiq hisobvara q, akkreditiv va boshqalar) amalga oshiriladi.

11.2. Mamlakatimizda to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki Boshqaruvining 2020-yil 15-fevraldagi 3/12-son Qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasida naqd pulsiz hisob-kitoblar to'g'risida"gi Nizomning (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2020-yil 13-aprelda ro'yxatdan o'tkazilgan, ro'yxat raqami 3229) 4-bobi to'lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblarga bag'ishlangan bo'lib, unda mamlakatimizda to'lov topshiriqnomalari bilan hisob kitoblarni amalga oshirish tartibi belgilangan.

To'lov topshiriqnomasi mijozning unga xizmat ko'rsatuvchi bankka o'z hisobvarag'idan topshiriqnomada belgilangan summani mablag'larni oluvchining hisobvarag'iga o'tkazish to'g'risidagi topshirig'i nazarda tutilgan to'lov hujjatidir.

TO'LOV TOPSHIRIQNOMASI RAQAMI

Хисоб саноти: **Yilning boshidagi sano:** **Yilning oxiridagi sano:**

Маблағнинг тузилган йили:

СЎММ

Маблағнинг тузилган суммаси: **Маблағнинг тузилган СЎММ:**

Маблағнинг тузилган бекка номи: **Маблағнинг тузилган бекка номи:**

Сўма:

Маблағ тузилган йили:

КЎРСАТКИ

Маблағнинг тузилган қўсалари:

Маблағнинг тузилган бекка номи: **Маблағнинг тузилган бекка номи:**

Сўма (с/б):

Тўлов тартиби:

Тўлов тартиби:

Тўлов тартиби:

Қўсалар:

① И.С. (с/б): **Бек қўсалари:** **② И.С. (с/б):**

Бек:

① И.С. (с/б): **Мақбулга:** **Бек тўлов тартиби:**

Бек: **И.С. (с/б):** **И.С. (с/б):**

To'lov topshiriqnomalari bilan tovarlar (ishlar, xizmatlar), soliqlar va yig'imlar hamda qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa to'lovlar bo'yicha hisob-kitoblar amalga oshirilishi mumkin.

Soliqlar hamda yig'implarni to'lash uchun to'lov topshiriqnomalari soliq to'lovchilarning O'zbekiston Respublikasi Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali va O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining rasmiy veb-saytidagi shaxsiy kabineti orqali taqdim etilishi mumkin.

Bank hisobvarag'i shartnomasida boshqacha tartib nazarda tutilgan bo'lmasa, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan mijozning hisobvarag'ida mablag'lar mavjud bo'lgandagina qabul qilinadi, bundan soliqlar va yig'implar bo'yicha taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari mustasno.

Mijozning hisobvarag'ida mablag' bo'lishi yoki bo'lmasligidan qat'iy nazar, mijozning soliqlar va yig'implar bo'yicha taqdim etgan to'lov topshiriqnomalari bank tomonidan ijro uchun qabul qilinadi.

Mijozning hisobvarag'ida yetarli mablag' bo'lmagan taqdirda, bank tomonidan mijozning soliqlar va yig'implar bilan bog'liq to'lov topshiriqnomalari 2-son kartotekada hisobga olinadi va mablag'larning yetarli bo'lgan qismi doirasida qisman to'lov amalga oshiriladi, bunda to'lov topshiriqnomasining orqa tomonida qisman to'lov amalga oshirilgan sana, to'langan summa va qoldiq ko'rsatiladi hamda imzo qo'yiladi. To'lov topshiriqnomasidagi summaning qolgan qismi mablag'larning kelib tushishiga qarab qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

2-son kartoteka – muddatida to'lanmagan to'lov hujjatlari hisobi yuritiladigan balansdan tashqari hisobvara

Tizim orqali taqdim qilingan to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshirilgan qisman to'lovlar hisobi dasturiy ravishda yuritilishi mumkin.

Mijozning hisobvarag'ida mablag' bo'lmagan taqdirda, soliqlar va yig'implar bo'yicha taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari 2-son kartotekaga kirim qilinadi hamda mablag'larning kelib tushishiga qarab qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'lanadi.

Mijoz tomonidan soliqlar va yig'implar bo'yicha taqdim etilgan to'lov topshiriqnomalari tegishli soliq organining yozma yoki

elektron shakldagi murojaati hamda sud qarori asosida 2-son kartotekadan chaqirib olinishi mumkin.

To'lov topshiriqnomasining "Hujjat sanasi" grafasidagi sana u bankka taqdim etilgan sana bilan bir xil bo'lishi kerak, ular mos kelmagan taqdirda, to'lov topshiriqnomasi bank tomonidan ijro uchun qabul qilinmaydi.

Agar valyutalash sanasi dam olish kuniga to'g'ri keladigan bo'lsa, benefitsiarning banki valyutalash sanasi deb belgilangan kundan keyingi birinchi ish kunida pul mablag'larini benefitsiarning bank hisobvarag'iga o'tkazadi.

Mijoz pensiyalar, alimentlar va boshqa to'lovlarni to'lash bo'yicha mablag'larni o'tkazishga asos bo'lgan to'lov topshiriqnomalarini barcha zarur hujjatlar (ma'lumotnomalar, o'tkazmalar ro'yxati va boshqalar) bilan birga, ushbu to'lovlarni amalga oshiruvchi tashkilot yoki bankka taqdim etadi.

Ushbu hujjatlar bankka mijoz bilan tuzilgan shartnomada belgilangan shakllarda taqdim qilinishi mumkin.

Xo'jalik yurituvchi subyektning kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlari uchun o'z hisobvarag'idagi mablag'lardan foydalanishi Xo'jalik yurituvchi subyektlarning bank hisobvaraqlaridan pul mablag'larini hisobdan chiqarish tartibi to'g'risidagi yo'riqnomaga (ro'yxat raqami 2342, 2012-yil 15-mart) muvofiq to'lov topshiriqnomalari asosida amalga oshiriladi. Bunda to'lov topshiriqnomasining "To'lov maqsadi" grafasiga "Kechiktirib bo'lmaydigan ehtiyojlar summasi hisobidan" deb yozib qo'yiladi.

Qog'oz shakldagi to'lov topshiriqnomalari bankka ikki nusxada taqdim qilinadi. Bunda to'lov amalga oshirilgandan so'ng, to'lov topshiriqnomasining:

- birinchi nusxasi bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi;
- ikkinchi nusxasi mablag'larni to'lovchining shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilingan holda mablag'larni to'lovchiga taqdim qilinadi.

Tizimdan foydalanuvchilardan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiya tarmoqlari orqali olingan elektron shakldagi to'lov topshiriqnomasi dasturiy nazoratdan o'tkaziladi va qayta ishlash uchun uzatiladi. Elektron shakldagi to'lov topshiriqnomasi to'lov amalga oshirilganidan so'ng, ro'yxat ko'rinishida chop etiladi va bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

Mablag'larni to'lovchining banki tomonidan ijro etilgan to'lov topshiriqnomasining nusxasini mablag'larni to'lovchiga uning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilgan holda taqdim etish tartibi mijoz va bank o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

Mablag'larni oluvchining bankiga to'lov tizimi orqali kelib tushgan elektron shakldagi to'lov topshiriqnomalari ro'yxat ko'rinishida chop etiladi va bankning buxgalteriya kunlik hujjatlar yig'majildiga tikib qo'yiladi.

Mablag'larni oluvchining bankiga to'lov topshiriqnomasi kelib tushganligi haqida mablag'larni oluvchiga xabar berish hamda to'lov topshiriqnomasining nusxasini mablag'larni oluvchiga uning shaxsiy hisobvarag'idan ko'chirmaga ilova qilgan holda taqdim etish tartibi mijoz va bank o'rtasida tuziladigan shartnomada belgilanadi.

11.3. Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish

Xalqaro hisob-kitoblarda eksportyor tomonidan importyorga qarata chiqarilgan o'tkaziladigan veksellar ishlatiladi. *Tratta* – bu, qonun bilan belgilangan shaklda tuzilgan hamda o'zida kreditor (*trassant*)ning qarz oluvchi (*trassat*)ga belgilangan muddatda ma'lum bir summani vekselda qayd etilgan shaxs (*remitent*)ga yoki taqdim etuvchiga to'lash to'g'risidagi shartsiz buyrug'ini mujassam etgan hujjatdir. Veksel bo'yicha to'lov javobgarligi importyor yoki bank sifatidagi akseptant zimmasidadir. Banklar tomonidan

akseptlangan trattalarni “hisobga olish” operatsiyasi orqali naqd pulga oson aylantirish mumkin. Trattalar chiqarilishi va ularga haq to‘lanishining shakllari, rekvizitlari hamda shartlari 1930-yilda Jeneva veksel konvensiyasi tomonidan qabul qilingan “Birxillashtirilgan veksel qonuni”ga asoslangan veksel qonunchiligi bilan muvofiqashtiriladi. XII–XIII asrlarda paydo bo‘lgan va taqdim etuvchi (odatda savdogar)ga mahalliy valyutada ma’lum bir summa to‘lash to‘g‘risidagi iltimosni o‘zida mujassam etgan yo‘llanma xatlar trattalarning dastlabki shakllari edi. Tovar-pul munosabatlarining taraqqiy etishi va xo‘jalik aloqalarining globallashuvi munosabati bilan veksel universal kredit hisob-kitob hujjatiga aylandi. Trattadan inkasso va akkreditivga qo‘shimcha ravishda foydalanish, kredit hamda valyuta tushumini olish huquqini beradi.

Vekseldan foydalangan holdagi hisob-kitoblarda eksportyor tratta va tovar hujjatlarini importyordan valyutani oluvchi o‘z bankiga inkassoga beradi. Importyor faqat to‘lovni amalga oshirganidan yoki trattani akseptlaganidan so‘ng ushbu hujjatlarning egasiga aylanadi. Tovarlarini eksport asosida kreditga yetkazib berishda vekselga haq to‘lash muddati tomonlarning o‘zaro kelishuvi bilan belgilanadi. To‘lov vositasi sifatida bir vekseldan foydalangan holda ustiga yoziladigan o‘tkazish yozuvi (indosament) orqali turlicha bo‘lgan bir nechta pul majburiyatlarini to‘lash mumkin. Indosamentlarning quyidagi turlari farqlanadi: nomli (“x” buyrug‘i asosida to‘lang, imzo “u”); blankali (“u” imzosi); chegaralangan (faqat “x”ga to‘lang, imzo “u”); aylanmasiz (aylanmasiz “x”ning buyrug‘iga asosan to‘lang, imzo “u”); shartli (masalan, tanlovdan so‘ng “x”ning buyrug‘iga asosan to‘lang, imzo “u”).

Retrattra to‘lanmagan yoki akseptlanmagan o‘tkaziladigan veksel egasi tomonidan vekselning qiymati plyus xarajatlar summasiga trassant yoki indossantga qarata yozib berilgan qarama-qarshi o‘tkaziladigan vekseldir.

Xalqaro hisob-kitoblarda shuningdek dastlab XV asrda kassirlarning kvitansiyalari ko‘rinishida paydo bo‘lgan cheklar ham ishlatiladi. Agarda to‘lov chek orqali amalga oshirilsa, unda qarzdor (sotib oluvchi) mustaqil ravishda chek (mijoz cheki)ni chiqaradi yoki ushbu chek (bank

cheki)ni yozishni bankka topshiradi. Chekning shakli va rekvizitlari milliy hamda xalqaro qonunchilik (1931-yil Chek Konventsiyasi) bilan muvofiqlashtiriladi. Chek taqdim etilishi zahoti unga haq to‘lanishi (inkassatsiya qilinishi) lozim.

Nosavdo toifadagi xalqaro hisob-kitoblarda to‘lov vositasi sifatida yo‘l cheklari va yevrocheklar ishlatiladi. Yo‘l (sayyohlik) cheki bu, unda ko‘rsatilgan valyuta summasini chekning egasiga to‘lash (buyruq) to‘g‘risidagi to‘lov hujjatidir. Yo‘l cheklari yirik banklar tomonidan milliy va xorijiy valyutalarda yozib beriladi. Chek egasining imzo namunasi chek ustiga unga chek sotilayotgan paytda qo‘yiladi.

Yevrochek – bu, yevrovalyutadagi chekdir. Ushbu chek mijozning oldindan amalga oshirilgan naqdli to‘lovisiz va nisbatan yirik summalarda, bir oygacha muddatga bo‘lgan krediti hisobiga bank tomonidan yozib beriladi; “Yevrochek” (1968-yildan boshlab) kelishuvining ishtirokchisi bo‘lmish har qanday davlatda unga haq to‘lanadi. Yevrocheklarning yagona (bir xildagi) shakli, ularga haq to‘lash egalari tomonidan kafolat kartochkalari taqdim etilgandagina amalga oshishi, yevrocheklarni qayta ishlash ustidan elektron tizim yordamida nazorat qilinishi xalqaro turizm bo‘yicha hisob-kitoblarning takomillashishiga ko‘maklashadi.

Nazorat uchun savollar

1. Bankning pul o‘tkazmasi.
2. Bo‘nak shaklidagi hisob-kitoblar.
3. Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar.
4. Ochiq hisobvaraq bo‘yicha hisob-kitoblar importyor va eksportyor uchun qulayliklari va noqulayliklari.
5. Mamlakatimizda to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar tartibi.
6. Mijozning hisobvarag‘ida yetarli mablag‘ bo‘lmagan taqdirda, to‘lov topshiriqnomasini amalga oshirish tartibi.
7. Xo‘jalik yurituvchi subyektning kechiktirib bo‘lmaydigan ehtiyojlari uchun to‘lovlarni amalga oshirish tartibi.
8. Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish.
9. Yevrochek nima va u bilan amaliyotlar qanday amalga oshiriladi?

12-BOB .XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA TO‘LOV BALANSINI BOSHQARISH

12.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari.

12.2. To‘lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar.

12.3. To‘lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o‘tkazib yuborishlar.

12.4. Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modeli.

12.5. To‘lov balansiga ta‘sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari.

12.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari

To‘lov balansi – bir mamlakatning boshqa malakatlarga ma’lum bir davr mobaynida haqiqatda o‘tkazgan valyutaviy to‘lovlari va tushumlari o‘rtasidagi nisbatni, mamlakatning xalqaro pullar harakatini o‘zida aks ettiruvchi hujjatdir. Agar to‘lov balansida valyutaviy tushumlar to‘lovlardan ortib ketsa, to‘lov balansi aktiv, aksincha bo‘lsa passiv hisoblanadi.

Joriy operatsiyalar balansi (xususan, tovarlar eksporti va importi o‘rtasidagi nisbatni o‘zida aks ettiruvchi savdo balansi, xizmatlarning sof eksportini, investitsiyalardan olingan daromadlarni va bir tomonlama pul o‘tkazmalarini o‘zida aks ettiruvchi “ko‘rinmas” joriy operatsiyalar balansi) va kapital harakati balansi (mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi va unga xorijiy kapitalni kirib kelishini o‘zida aks ettiradi) to‘lov balansining tarkibiy qismlaridan hisoblanadi.

To‘lov balansi mamlakatning xalqaro iqtisodiy aloqalarga kirishish, xalqaro to‘lovga qobillik, jahon savdosiga qatnashish darajasini o‘zida namoyon etuvchi muhim ko‘rsatkich va vosita hisoblanadi. To‘lov balansi tushunchasini dastlab Djeym Denem-Styuart o‘zining “Siyosiy iqtisod tamoyillari to‘g‘risida tadqiqot (Inquiry into the Principles of

Political Economy)» (1767-yil) asarida qoʻllagan. Styuart toʻlov balansini mustaqil tushuncha sifatida chet elda fuqorolarning xarajatlari, xorijga foiz toʻlovlari, qarzning asosiy summasi va qarz boʻyicha toʻlovlar, valyuta koʻrinishidagi qarzlarni boshqa mamlakatlarga taqdim etishdan tashkil topadi deb koʻrsatgan. Shunday qilib, dastlabki toʻlov balansi faqat haqiqatda amalga oshirilgan xalqaro valyutaviy toʻlovlarni oʻzida aks ettirgan, biroq barcha intellektual, moliyaviy va moddiy aktivlar bilan bogʻliq tashqi iqtisodiy operatsiyalar (rezidentlar va norezidentlar oʻrtasidagi operatsiyalar)ni toʻliq namoyon etmagan. Biroq hozirgi kundagi toʻlov balansini tuzish tartibi, mantiqiy va konseptual asoslariga avvalgi toʻlov balansi tayanch, negiz sifatida olingan.

Iqtisodiy bilimlar tarixida merkantilistlar davridan boshlab tashqi iqtisodiy operatsiyalar takomillashib bordi. Mamlakatga xorijiy valyutalarning kirib kelishi aktiv kredit operatsiyalari deb qaralgan. Shuning uchun, toʻlov balansining kredit qismida mamlakatning iqtisodiy boyligi (aktivlari), qimmatliklarning chiqib ketishi, uning oʻrnini toʻldiruvchi valyutalarning mamlakatga kirib kelishi bilan bogʻliq operatsiyalar “+” ishorasi bilan yozilgan. Debet qismida esa mamlakatning xorijiy aktivlarni sotib olishi oʻrniga valyutalarni xarajati yozilgan boʻlib, unga “-” ishorasi qoʻyilgan.

Toʻlov balansini tuzishda buxgaltegiyada qoʻllaniladigan ikki yoqlama yozuv tamoyilidan foydalaniladi. Har bir xalqaro operatsiya debet va kredit koʻrinishida toʻlov balansida aks etadi. Bunda, debetning jami qiymati balansning kredit qismini jami qiymatiga teng boʻlishi lozim. Tovarlar va xizmatlar eksporti, xorijdan kapitalni kirib kelishi xorijiy valyutani mamlakatga kirishini bildirgan holda, toʻlov balansida “+” (plyus) ishorasi bilan koʻrsatiladi va balansining kredit summasi shakllantiriladi. Balansning debet qismi tovarlar va xizmatlar importi, xorijiy valyutada kapitalning chetga chiqib ketishi natijasida yuzaga keladi va u “-” (minus) ishorasi bilan koʻrsatiladi. Toʻlov balansida iqtisodiy operatsiyalar bozor narxida koʻrsatiladi, yaʼni iqtisodiy boylıklar oʻzaro almashtirilishidagi haqiqatdagi bahosi boʻyicha aks ettiriladi.

To'lov balansini taqdim etish shakllari va uning qoldig'i. To'lov balansini taqdim etish "neytral" va "tahliliy" ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. *Neytral shakl*da taqdim etilgan to'lov balansini tovarlar, xizmatlar va joriy o'tkazmalar joriy operatsiyalarda to'planadi. Kapital o'tkazmalar, to'g'ridan to'g'ri investitsiyalar, portfel investitsiyalar, moliyaviy hosila vositalar, boshqa investitsiyalar va zaxira aktivlari kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida jamlanadi. Ushbu bo'limlar tengligini ta'minlash maqsadida "Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddasi qo'shiladi va umumiy natija nolga tenglashtiriladi.

Shu bilan bir qatorda, XVF to'lov balansini tuzishning muqobil shakli bo'lgan "tahliliy" shaklda to'lov balansini taqdim etishni ham mamlakatlarga tavsiya etadi. Bunda, tezkor ma'lumotlar umumlashtiriladi, qayta tasniflanadi, guruhlanadi. Bunda, mustaqil ravishda rezidentlar va norezidentlar tomonidan o'zaro amalga oshirilgan joriy va kapital harakati bilan bog'liq tashqi iqtisodiy operatsiyalar mamlakat xalqaro iqtisodiy munosabatlariga tenglashtirilgan holda, to'lov balansini aktiv yoki passiv bo'lishiga sabab bo'ladi. Barcha qolgan operatsiyalar, xususan davlatlar tomonidan amalga oshirilgan saldoni moliyalashtirish yoki undan foydalanish bilan bog'liq balanslashtiruvchi operatsiyalar to'lov balansini tartibga solish operatsiyalari etib belgilangan.

To'lov balansining qoldig'i mavjud bo'lmaydi, chunki to'lov balansining moddalarini (neytral taqdimotda) qoldig'i nolga tenglashtiriladi. Biroq, "sof eksport" qiymati mamlakat YalMga kiritilgan bois joriy operatsiyalar qoldig'i to'lov balansini qoldig'i sifatida qayd etiladi. Joriy operatsiyalar hisobi qoldig'ini baholab, to'lov balansini defitsit (passiv) yoki profitsit (aktiv) deb aytish mumkin.

12.2. To'lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar

To'lov balansini tarkibi. To'lov balansini tuzishning turlicha uslubiyati mavjud bo'lib, hozirgi kunda Xalqaro valyuta fondi (XVF)

taklif etgan metodika (uslubiyat)dan, ya'ni to'lov balansini moddalarining tasnifidan mamlakatlar amaliyotida keng qo'llaniladi. Mazkur uslubiyatda obyektiv reallik ko'proq ko'rinadi, xususan to'lov balansi ikkita yirik bo'limga ajratilgan. Bu, bitimlarning hisobini yuritishning ikki tomonlama xususiyatidan, ya'ni savdo va moliyaviy jihatidan kelib chiqan holda yaratilgan. Xususan, tovarlar va xizmatlar eksporti norezidentlar oldida rezidentlarning talablarini oshiradi (to'lov balansida "+" ishorasi bilan aks ettiriladi), bu esa, o'z navbatida norezidentlar oldidagi moliyaviy majburiyatlarning kamayishiga olib keladi ("-" ishorasi bilan belgilanadi). Har ikkita hisob-kitob yozuvlarining yig'indisi nolga teng bo'lishi lozim. Tovarlarni va xizmatlar eksporti natijasida mamlakatda valyuta zaxiralari to'planib boradi va ular import operatsiyalari to'loviga xizmat qilishi mumkin.

Agar mamlakatda import operatsiyalari to'lovi uchun yetarlicha valyuta zaxiralari mavjud bo'lmasa, u xorijdan qarz mablag'larini jalb etishi mumkin. Bu kabi qarz mablag'larini davlatlar o'zlarining tovarlar va xizmatlar eksportini doimiy oshirib borish orqali qoplashi mumkin. Bunday holatda, bitimning savdo qismi (tovarlarni va xizmatlarning mamlakatga kirib kelishi) bo'yicha chet elliklar oldida so'ndirishni talab qiluvchi ("-" ishorasi bilan belgilanadigan) mamlakat qarzdorligining paydo bo'lishiga olib keladi. Mamlakatga norezidentlarning kreditlarini jalb etish esa mamlakatning chet elliklar oldida moliyaviy majburiyatlarini ortishiga sabab bo'ladi va "+" ishorasi bilan aks ettiriladi.

Mazkur holatni yanada yaqqolroq tasavvur etish uchun, haqiqatda mamlakatga kirib kelgan va chiqib ketgan valyutaviy tushum va to'lovlar nisbatini olish mumkin.

Mamlakatning to'lov balansi sanoat korxonalarini balansiga o'xshab emas, balki bank balansiga o'xshash holda tuziladi. Masalan, O'zbekistondagi korxonalar 100 ming AQSh dollarlik mahsulotni eksport qilib, to'lovni uch oy davomida olishga sotib oluvchi bilan kelishgan. O'zbekiston to'lov balansida dastlab mazkur summa tovarlar eksporti sifatida balansining kredit qismida yoziladi va bu xorijdan to'lovni talab qilish huquqini beradi. So'ngra ushbu summa qisqa muddatli kapital

sifatida to'lov balansining debet qismida aks ettiriladi va u O'zbekistondan qisqa muddatli kapitalning chiqib ketishini anglatadi. Ya'ni O'zbekistonlik eksportyor xorijiy importyorga 3 oylik kredit bergan deb hisoblanadi. Bunda O'zbekistonning xorijdagi aktivlari ortadi va to'lov balansining kapital qismi debetlanadi. Mazkur operatsiyani quyidagi shaklda yozish mumkin:

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	Kredit (+)	Debet (-)
Tovarlar eksporti, ming AQSh dollarida	100	-
Qisqa muddatli kapital chiqishi ming AQSh dollarida	-	100

Qaytarmaslik sharti bilan boshqa mamlakatlarga taqdim etiladigan iqtisodiy boyliklar (mahsulotlar, xizmatlar va moliyaviy aktivlar) to'lov balansi moddalarida ikki yoqlama yozuv tamoyili asosida qanday aks ettiriladi degan tabiiy savol paydo bo'ladi. Bu kabi operatsiyalar uchun to'lov balansida alohida "Bir tomonlama o'tkazmalar" moddasi mavjud. Masalan O'zbekiston boshqa mamlakatdan ijtimoiy yordam sifatida 10 mln AQSh dollari miqdoridagi mahsulotlarni oldi. O'zbekiston to'lov balansida bu operatsiya quyidagi ko'rinishda aks ettiriladi:

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	Kredit (+)	Debet (-)
Ijtimoiy yordam (import), mln. AQSh dollarida	-	10
Bir tomonlama o'tkazmalar, mln AQSh dollarida	10	-

Shunday qilib, to'lov balansining kredit qismida mahalliy aktivlar (mahsulotlar, moddiy va moliyaviy boyliklar)ning chetga chiqib ketishi (kamayishi), aksincha esa, ya'ni xorijiy mamlakat aktivlari (mahsulotlar, moddiy va moliyaviy boyliklar)ning mamlakatga kirib kelishini (ortishini) ko'rsatadi. Passiv (majburiyatlar)ga nisbatan esa mazkur qonuniyat teskari amal qiladi. Masalan. O'zbekiston AQShdan 10 mlrd AQSh dollari miqdorida mablag'ni qarzga oldi, O'zbekiston bu yerda

nafaqat aktivga ega bo'lmogda, balki passiv (AQSh oldida majburiyat)ga ega bo'lmogda. Bunda to'lov balansida aktivning hisobi debet, passivning hisobi esa kredit bo'ladi. Bu O'zbekiston to'lov balansida quyidagicha aks ettiriladi.

Tashqi iqtisodiy operatsiyalar	Kredit (+)	Debet (-)
Aktiv, mlrd AQSh dollarida	-	10
Passiv, mlrd AQSh dollarida	10	-

Xalqaro iqtisodiy operatsiyalarni to'lov balansining debet yoki kredit qismida aks ettirishning umumiy qoidasi quyidagi jadvalda keltirilgan.

Operatsiya	Kredit (+)	Debet (-)
Tovarlar va xizmatlar	Tovarlar va xizmatlar eksporti	Tovarlar va xizmatlar importi
Investitsiyalardan daromadlar va mehnatga haq to'lash (ish haqi)	Norezidentlar ¹⁵ dan tushgan (olingan) tushum	Norezidentlarga to'lovlar
Bir tomonlama o'tkazmalar	Mablag'larni olish	Mablag'larni berish
Moliyaviy aktivlar bilan operatsiyalar	Uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish	Uzoq va qisqa muddatli kreditlarni berish

To'lov balansi ikkita yirik bo'limga bo'linadi, ya'ni joriy operatsiyalar hisobi (current account balance) bo'limi hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi (capital and financial account) bo'limi. XV F mamlakatlar to'lov balansini ikki xil ko'rinishda, ya'ni jamlangan va operatsiyalari batafsil, to'liq ko'rsatilgan holda e'lon qiladi.

To'lov balansi moddalarini XV F ning davriy nashrlarida beriladigan to'liq tarkibi tuzilishi:

¹⁵Mazkur jadvalda iqtisodiy jihatdan rezident (yuridik jihatdan fuqaroligi bo'yicha emas), ya'ni qaysi davlat chegarasida yashayotgan bo'lsa, o'z iqtisodiy-manfaatli faoliyatini olib borayotgan bo'lsa, fuqaro o'sha davlat rezidenti sifatida qaraladi.

№	TO'LOV BALANSI		Summa	
	Balansning bo'lim va moddolari		DEBET	KREDIT
1	JORIY OPERATSIYALAR HISOBI			
	A	Savdo balansi		
	V	Xizmatlar balansi		
	S	Joriy o'tkazmalar		
	1 BO'LIM JAMI			
2	KAPITAL VA MOLIYAVIY VOSITALAR BILAN OPERATSIYALAR HISOBI			
	A	Kapital bilan operatsiyalar hisobi		
	V	Moliyaviy hisob		
	1	To'g'ridan to'g'ri investitsiyalar		
	2	Portfel investitsiyalar		
	3	Boshqa investitsiyalar		
	4	Zaxira aktivlari		
	2 BO'LIM JAMI			
YAKUNIY BALANS (1+2)				

Joriy operatsiyalar hisobi. To'lov balansining ushbu bo'limi tovarlar, xizmatlar va bir tomonlama o'tkazmalar bilan bog'liq xalqaro bitimlari natijasida olingan mamlakatning sof daromadlari qiymatini ko'rsatadi va u quyidagicha hisoblanadi:

$$\begin{array}{r}
 \text{Joriy} \\
 \text{operatsiyalar} \\
 \text{hisobi balansi}
 \end{array}
 =
 \begin{array}{r}
 \text{Ekspordan} \\
 \text{daromadlar}
 \end{array}
 -
 \begin{array}{r}
 \text{Importga} \\
 \text{xarajatlar}
 \end{array}
 -
 \begin{array}{r}
 \text{Chet elga} \\
 \text{sof} \\
 \text{o'tkazma-} \\
 \text{lar}
 \end{array}$$

Chet elga sof o'tkazmalar firmalar, uy xo'jaliklari va hukumat tomonidan chet elga o'tkazmalardan ushbu mamlakat rezidentlariga xorijdan yuborilgan o'tkazmalarni chegimasiga teng.

To'lov balansining joriy operatsiyalar hisobining ijobiy qoldig'i va chet el aktivlari o'rtasidagi bog'liqlik quyidagi ko'rinishga ega:

$$\begin{array}{r}
 \text{Joriy operatsiyalar} \\
 \text{hisobining ijobiy qoldig'i}
 \end{array}
 =
 \begin{array}{r}
 \text{Chet elda aktivlarning} \\
 \text{sof ortishi}
 \end{array}$$

Chet elda aktivlarning sof ortishi – bu mahalliy rezidentlar egalik qiluvchi xorijdagi aktivlarining ushbu mamlakatda norezidentlar egalik qiluvchi mahalliy aktivlardan ortishi tushiniladi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar hisobining taqchilligi chet eldagi aktivlarning sof kamayishini ifodalaydi. Ya'ni:

$$\text{Joriy operatsiyalar hisobining taqchilligi} = \text{Chet eldagi aktivlarning sof kamayishi}$$

Bunda mamlakat qarzdor hisoblanadi. Masalan, O'zbekiston yana chet elga sotish uchun aktivlarga ega. Biroq, biz sekinlik bilan chet eldan jalb etiladigan qarzlarni ko'paytirishimiz, kelajakda ularni asosiy qarz summasi bilan birga foiz to'lovi bilan qaytarishga majbur bo'lamiz. Natijada, har bir mamlakat to'lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi balansi o'zaro tenglashadi.

Joriy operatsiyalar balansidagi defitsit mamlakatning boshqa mamlakat oldidagi qarzdorini ortishini o'zida aks ettiradi. Agar mamlakat joriy operatsiyalar balansida defitsit yuzaga kelsa, u albatta mazkur taqchillikni har qanday yo'l bilan bo'lsa ham (boshqa bir mamlakatdan qarz olish, o'z valyuta zaxirasidan foydalangan holda va h.k.) to'lashi zarur.

To'lov balansida joriy operatsiyalar hisobidagi defitsit (taqchillik) quyidagi yo'llar orqali moliyalashtirilishi mumkin:

– chet elga ma'lum bir qism milliy aktivlarni sotish, ya'ni xorijiy mamlakatga to'g'ridan to'g'ri yoki portfel investitsiya shaklida turli milliy aktivlari yoki mablag'larni qo'yish;

– chet el banklaridan, hukumatlaridan yoki xalqaro tashkilotlardan tashqi qarz olish yordamida;

– mamlakat Markaziy bankida saqlanayotgan rasmiy valyuta zaxiralaridan foydalanish orqali, ularni taqchillikni bartaraf etish uchun sarflash hisobiga.

Ba'zan, mamlakatlar joriy operatsiyalar hisobidagi taqchillikni moliyalashtirish imkoni qolmaganda, ya'ni moliyalashtirish uchun tashqi kredit olib bo'lmasa, mamlakat valyuta zaxirasi minimum darajaga yetib qolgan bo'lsa, xorijga qilinadigan xarajatlarini qisqartirish yoki chet elga tovarlar va xizmatlarni sotish orqali daromadlarini oshirish yo'li bilan defitsitni bartaraf etadi.

Tashqi savdo balansi. To'lov balansining birinchi bo'limi bo'lgan joriy operatsiyalarning dastlabki moddasi mamlakatning tashqi savdo balansi hisoblanadi. XVF eksport va importni bir xil tartibda baholashni taklif etgan bo'lib, unga ko'ra eksport qiluvchi mamlakat chegarasidagi bahoda aniqlanadi. Shuning uchun, eksport va import baholash uchun

FOB (free on board) baholardan foydalanish talab etiladi. CIF (Cost, Insurance and Freight) baholaridan esa, import operatsiyalarida kengfoydalaniladi va ba'zan ularga tegishli to'g'irlashlar ham kiritiladi. Bunday to'g'irlashlar AQSh, Germaniya, Fransiya kabi mamlakatlar to'lov balanslarida bo'lib, 1990-yillarda mazkur mamlakatlar importining 3-4 foizi FOB narxlarida amalga oshirilgan. O'sha paytda Yaponiyaning tashqi savdosida dengiz orqali yuklarni o'tkazish qariyb 10%dan yuqori bo'lgan.

Bir tomonlama o'tkazmalar va xizmatlar balansi. Joriy operatsiyalar hisobining ikkinchi asosiy qismi xizmatlar balansi hisoblanadi. Xalqaro savdoda xizmatlar muhim ahamiyatga ega. Xizmatlar balansida transport xizmatlari, jumladan yuk yo'lovchilarni tashish, sug'urta, elektron, tele-kosmik, telegraf, telefon, pochta va boshqa turdagi aloqa xizmatlari, xalqaro turizm, ishlab chiqarish va ilmiy-texnik tajribalarni o'zaro almashish, ekspert xizmatlari, chet elda diplomatik, savdo va boshqa vakolatxonalarini saqlash, ma'lumotlar berish, ilmiy-ma'naviy va madaniy hamkorlik xizmatlari, reklama, yarmarka va turli yig'inlar uchun yig'imlar va h.k. bo'yicha to'lovlar va tushumlar aks etadi.

Shuningdek, joriy operatsiyalar balansida bir tomonlama o'tkazmalar, xususan olingan daromadlar, ya'ni xorijga qo'yilgan investitsiyalardan olingan daromadlar yoki chet el investitsiyalariga to'lovlar ham asosiy rol o'ynaydi. To'lov balansining aynan ushbu moddasi mamlakatda xorijiy tadbirkorlikni rivojlanishida muhim ahamiyatga ega. Mamlakatdan tashqarida olingan daromadlarni investor o'z mamlakatiga o'tkaza olmasligi davlatga xorijiy investitsiyalarni kirib kelishiga keskin to'siq bo'lishi mumkin. Shuning uchun ham, XVF ustavida alohida 8-kelishuv moddasi (2 (a), 3 va 4 qismlari) bo'lib, unga ko'ra o'ziga xalqaro operatsiyalar bo'yicha majburiyat oluvchi mamlakat XVF bilan kelishmasdan turib, joriy operatsiyalar bo'yicha to'lovlar va turli o'tkazmalarni amalga oshirishda diskriminatsion valyuta cheklovlarini o'rnatishi mumkin emas. XVF a'zosi bo'lgan jahondagi ko'plab mamlakatlar (hozirgi kunda 150dan ortiq mamlakatlar) XVFnning 8-kelishuv moddasini qabul qilishgan. O'zbekiston esa, mazkur moddani 2003-yilda o'zida qo'llash bo'yicha majburiyat olgan, ya'ni qabul qilgan.

Joriy o'tkazmalarga turli ko'rinishdagi bir tomonlama o'tkazmalar, shuningdek, qaytarmaslik sharti bilan beriladigan mablag'lar, to'lovlar ham qo'shiladi. Ularni ikki ko'rinishga bo'lish mumkin, ya'ni davlat operatsiyalari va shaxsiy maqsadlar uchun bir tomonlama o'tkazmalar. Davlat operatsiyalari bilan bog'liq bir tomonlama o'tkazmalarga bir mamlakatning boshqa bir mamlakatga iqtisodiy yordam tariqasida bergan subsidiyasi, yoki beg'araz yordami, xalqaro tashkilotlarning to'lovi, moliyaviy grantlari, foizsiz ajratmalari va h.k. kiradi. Shaxsiy maqsadlarda foydalaniladigan operatsiyalar xorijdagi ishchilarning, mutaxassislarning, qarindoshlarning o'z vataniga, oilasiga shaxsiy extiyoj yoki boshqa turli maqsadlar uchun yuborgan mablag'lari bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi. To'lov balansining ikkinchi bo'limi kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobini o'zida aks ettirib, u turli shakldagi investitsiyalarning xalqaro harakatini, xususan aktivlarni sotishdan, masalan mahalliy aksiyalarni, obligatsiyalarni, ko'chmas mulk va kompaniyalarni chet elga sotishdan olingan daromadlar, shuningdek, chet eldan rezidentlarning aktivlarni sotib olish uchun qilgan xarajatlarini hisobga oladi. Mazkur bo'limda jalb etilgan va berilgan savdo kreditlari va bo'nak(avans) to'lovlari, ssuda va qarzlar, naqd xorijiy valyuta, joriy operatsiyalar hisobidagi qoldiqlar va depozitlar, muddati o'tkazib yuborilgan qarzdorlik, hukumatlararo kelishuvlar asosida yetkazib beriladigan tovarlar bo'yicha qarzdorlik, eksport mahsulotlari bo'yicha olinishi kutirayotgan kontagentning moliyaviy qarzdorligi, import operatsiyalariga berilgan bo'naklar bo'yicha qarzdorlik aks ettiriladi.

$$\begin{array}{l}
 \text{Kapital va moliyaviy} \\
 \text{vositalar bilan} \\
 \text{operatsiyalar hisobi}
 \end{array}
 =
 \begin{array}{l}
 \text{Aktivlarni} \\
 \text{sotishdan tushgan} \\
 \text{tushumlar}
 \end{array}
 -
 \begin{array}{l}
 \text{Xorijda aktivlarni} \\
 \text{sotib olish uchun} \\
 \text{qilingan xarajatlar}
 \end{array}$$

Mamlakatning aktivlari bilan bog'liq barcha xalqaro bitimlar (ularni sotish va sotib olish) kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida o'z aksini topadi. Masalan, O'zbekiston chet elga qarz mablag'larini bersa, u o'z aktivlarini sotgan bo'ladi, ya'ni uni kelajakda sotib oluvchi asosiy qarzga qo'shimcha foiz to'lovi bilan qaytarib

to'laydi. Mazkur operatsiya kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobining "kredit" qismida aks etadi.

Shuningdek, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida kapital transfert (o'tkazma)lar (mulkni asosiy kapitalga qaytarmaslik sharti bilan o'tkazish) ham yoziladi. Unga aeroport, kasalxonalar, yo'l qurilishi va h.k. kabi investitsion grantlar, hukumat tomonidan qarzdorlikni "so'ndirish" operatsiyalari kiradi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i (saldosi) uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish va taqdim etishda namoyon bo'lib, ular aktivlar bilan barcha bitimlardan xorijiy valyutalarni sof tushimini ko'rsatadi. Kreditlarni taqdim etish chet el aktivlarini (aksiya, obligatsiya, ko'chmas mulk va h.k.) sotib olishga qilingan xarajat hisoblansa, kreditlarni olish aktivlarni sotishdan kelgan tushim sifatida baholash mumkin.

Uzoq muddatli kreditlar to'g'ridan to'g'ri yoki portfel investitsiyalar ko'rinishida taqdim etiladi. Korxonaga to'g'ridan to'g'ri investitsiya kiritish, korxonalar mulkining asosiy qismiga egalikni anglatadi va mazkur korxonalar faoliyati ustidan nazorat qilish imkonini beradi. Qolgan barcha uzoq muddatli investitsiya shakllarini portfel investitsiya deb hisoblash mumkin. Shuningdek, portfel investitsiya asosan korxonalar mulkiga egalik qilish imkonini beruvchi qimmatli qog'ozlarining bir qismini (odatda o'z mulkining 10%gacha bo'lgan qismini) olish hisobiga shakllanadi.

Aktivlar bilan bog'liq barcha xalqaro bitimlar (Markaziy bankka tegishli rasmiy valyuta zaxiralaridan tashqari) shartli ravishda xalqaro kapital harakati hisobiga ajratiladi. Kapital harakati hisobidagi ijobiy qoldiq mamlakatga kapitalni sof kirib kelishi hisoblanadi, aksincha esa, kapitalning sof chiqib ketishi yuzaga keladi. Kapitalning sof chiqib ketishida kapital harakati hisobida defitsit yuzaga keladi, ya'ni chet eldan aktivlarni sotib olishga ketgan xarajatlarni shu kabi aktivlarni xorijga sotishdan olingan daromadlardan ortib ketganligini ko'rsatadi.

Joriy operatsiyalar balansi moddalarini kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobidagi uzoq va qisqa muddatli kreditlarni olish va taqdim etish hamda kapital transfertlar orqali to'ldirish mustaqil rasmiy hisob-kitoblar balansini olish imkonini beradi.

Rasmiy hisob kitoblar balansi "Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar" moddalarini o'zi ichiga olgan. Nazariy jihatdan olganda har bir bitim

to'lov balansida debet va kredit ko'rinishida ikki marta aks etsa ham, amaliyotda mazkur talab ba'zan bajarilmay qoladi. Amalga oshirilgan bitimlar turli holatlar va ma'lumotlarni hisobga olgan holda har doim ham vaqt va sonli ko'rinishda ifodalab bo'lmaydi. Ba'zi iqtisodiy boyliklar oqimi statistik hisobdan chetda qolib ketishi mumkin, ayniqsa bunday holatlarga noqonuniy ravishda amalga oshirilgan bitimlar misol bo'la oladi. Bunday hisobdan qolib ketgan iqtisodiy oqimlarni faqat balansning jami kredit va debet qiymatini hisoblagan holda aniqlash mumkin.

To'lov balansi ikki yoqlama yozuv tamoyili asosida nolga tenglashtiriladi. Bu esa, mamlakatning barcha qarzlari to'lanishi kerakligini anglatadi. Shuning uchun, joriy operatsiyalar hisobidagi defitsit kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobidagi ijobiy qoldiqqa teng bo'lishi lozim. Agar rezidentlar chet elga mahsulotlar, xizmatlar va aktivlarni sotishdan olingan daromadlarga nisbatan xorijiy mahsulotlar, xizmatlar va aktivlarni sotib olishga ko'proq xarajat qilsalar, ya'ni rasmiy hisob-kitoblar balansi defitsit bilan chiqsa, ushbu taqchilikni (qarzdorlikni) so'ndirish Markaziy bank tomonidan rasmiy xorijiy valyuta zaxiralarini qisqartirish hisobiga amalga oshiriladi (agar Markaziy bank valyuta kursini tartibga solib turish majburiyati bo'lmasa).

To'lov balansida jami xorijdan tushgan valyutalar xorijga jami to'langan (o'tkazilgan) valyutalarga teng bo'lishi zarur. Agar to'lov balansida defitsit yoki profitsit yuzaga kelsa, mamlakat Markaziy banki tomonidan muvofiqlashtirilgan holda to'lab beriladi yoki sotib olinib rasmiy valyuta zaxiraga joylashtiriladi.

12.3. To'lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o'tkazib yuborishlar

To'lov balansini yaxlit holda quyidagi tenglama orqali ifodalash mumkin:

$$\begin{array}{l}
 \text{Mamlakatning to'lov} \\
 \text{balansi}
 \end{array}
 =
 \begin{array}{l}
 \text{Joriy operatsiyalar} \\
 \text{hisobi balansi}
 \end{array}
 +
 \begin{array}{l}
 \text{Kapital va moliyaviy} \\
 \text{vositalar bilan} \\
 \text{operatsiyalar hisobi} \\
 \text{balansi}
 \end{array}$$

Davlat to'lov balansiga tartibga solishga (valyuta intervensiyalari ko'rinishida) aralashmasa quyidagi tenglik bajarilishi lozim.

$$\text{Joriy operatsiyalar hisobi} = - \text{Kapital va moliyaviy vositalar bilan} \\ \text{balansi qoldig'i} \qquad \qquad \qquad \text{operatsiyalar hisobi balansi qoldig'i}$$

To'lov balansida balanslashtiruvchi modda sifatida, XVFDagi taklifga ko'ra mamlakat valyuta zaxiralari (oltin, xorijiy valyuta, XVFDagi mamlakatning zaxira pozitsiyasi, SDR aktivlari) bilan amalga oshirishgan operatsiyalar, valyuta munosabatlarini tartibga soluvchi davlat organlarining xalqaro tashkilotlar oldidagi majburiyatlari, SDRlar taqsimoti olingan.

“Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar” moddasi. To'lov balansini tuzishda ma'lumotlar turli manbalardan olinganligi, ikki yoqlama yozuv tamoyilini (debet teng kredit qiymatiga) hisobga olgan holda yakuniy hisobga “Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar” (“Errors and omissions”) moddasi kiritiladi. Ya'ni mazkur modda orqali to'lov balansining debeti uning kredit qismiga tenglashtiriladi. Ushbu modda texnik xususiyatga ega bo'lib, uni to'liq va aniq iqtisodiy tavsifi mavjud emas.

Qaysi mamlakatda tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritilsa, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o'zgarsa, mazkur modda qiymati katta bo'lmaydi (ya'ni eksport yoki import hajmiga nisbatan u 5-7% darajasida bo'lsa, o'рта (normal) holat hisoblanadi). Qaysi bir mamlakatda qashshoqlik yoki noqonuniy kapital chiqishi yuqori bo'lsa, mazkur moddaning qiymati ham katta shuncha katta bo'ladi.

Ba'zan, tashqi savdo operatsiyalarining hisobi aniq yuritiladigan, mustahkam va barqaror tendensiya bilan o'zgaradigan AQSh ham to'lov balansida “Sof xatolar va o'tkazib yuborishlar” moddasi juda katta bo'lgan holatlar kuzatilgan. Xususan, 1997-yilda ushbu moddaning qiymati 132 mlrd AQSh dollaridan ortiq ketib, qariyb joriy operatsiyalar balansi qoldig'iga tenglashgan. Mazkur holat, hattoki iqtisodiyoti rivojlangan AQSh to'lov balansini tuzuvchilari ham to'liq yetarli ma'lumotlar bilan ta'minlanmasligini ko'rsatadi. To'lov balansidagi ma'lum bir mablag'lar noqonuniy xususiyat kasb etganligini ko'rsatadi.

Umuman olganda, mazkur ko'rsatkichni to'lov balansining joriy operatsiyalari hisobi hamda kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalari hisobidagi qoldiqlar farqi sifatida qaralsa, boshqa

tomondan esa, mamlakatning rasmiy oltin valyuta zaxiralaridagi o'zgarish sifatida baholanadi.

12.4. Mamlakat to'lov balansining makroiqtisodiy modeli

Mamlakat to'lov balansi mahsulot va xizmatlar bozori moliyaviy oqimi uzviy aloqaga ega. Bu aloqadorlikni milliy hisobchilik tizimi orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$Y = C + I + G + Xn(1),$$

bu yerda, Y – yalpi milliy mahsulot hajmi; C – iste'mol xarajatlari hajmi; I – investitsion xarajatlar hajmi; G – davlat (byudjet) xarajatlari hajmi; Xn – mamlakatning sof eksport hajmi.

Mazkur tenglikni quyidagi shaklga almashtirish mumkin:

$$Y - C - G = I + Xn(2).$$

Natijada, $(Y - C - G)$ ushbu holat milliy jamg'arish (S)ni hajmini ifodalab, tenglikni quyidagi shaklda yozish imkonini beradi:

$$S = I + Xn(3).$$

Bir mamlakat iqtisodiyotida milliy jamg'arish hajmi (S)ni ikkiga ajratib ko'rsatish ham mumkin ($S = S_1 + S_2$). Ya'ni shaxsiy jamg'arma ($S_1 = Y - T$) va davlat jamg'armasi ($S_2 = T - G$). Bu yerda T – davlat byudjetiga soliqlardan tushum va majburiy to'lovlar hajmi.

(3) formuladan tenglikning bir tomoniga barcha ko'rsatkichlarni olib o'tgan holda, milliy hisobchilik tizimida juda muhim bo'lgan quyidagi ifodaga ega bo'lamiz:

$$(I - S) + Xn = 0(4).$$

Mazkur ifoda, milliy hisobchilik tizimida kapitalni jamg'arish ($I - S$) uchun xalqaro mablag'lar oqimi va xalqaro tovar hamda xizmatlar oqimi (Xn) o'rtasidagi aloqadorlikni ko'rsatib beradi. Tenglikning har bir bo'lagi to'lov balansi bilan bog'liq o'z nomiga ega, ya'ni:

$(I - S)$ – to'lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'ini ko'rsatadi.

Xn – to'lov balansidagi joriy operatsiyalar hisobi qoldig'ini ko'rsatadi.

Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i ($I - S$) mamlakat ichidagi jamg'armadan investitsiyalarning ortiq qismini ko'rsatadi. Mamlakatda ichidagi investitsiyalar jamg'armadan ochiq

iqtisodiyot sharoitida ortiq bo'lishi mumkin. Chunki, investorlar o'z loyihalarini moliyalashtirish uchun mamlakat ichidagi jamg'armadan ortiqcha mablag'ni faqat jahon moliya bozoridan jalb etadi (oladi). Joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i (Xn) mamlakatning sof eksporti evaziga xorijdan olingan mablag'larni anglatadi.

Milliy hisobchilik tizimining asosiy ayniyatlari to'lov balansining kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi va joriy operatsiyalar hisobi o'zaro muvozanatlashgan, ya'ni tenglashgan bo'lishi lozim. Bu esa, to'lov balansida kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i bilan joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i yig'indisi nolga teng bo'lishini anglatadi va quyidagi ayniyat to'lov balansi uchun milliy hisobchilik tizimidagi asosiy tenglama ekanligini ko'rsatadi.

$$(I - S) + Xn = 0 = BP \text{ (Balance of Payments).}$$

Agar $(I - S)$ qiymat ijobiy bo'lsa va (Xn) manfiy bo'lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i ijobiy va joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i salbiy (defitsit) bo'lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoridan qarz olgan holda, o'zimizning eksportimizdan ko'p import qilganligimizni bildiradi.

Agar $(I - S)$ qiymat manfiy (taqchilik) bo'lsa va (Xn) ijobiy bo'lsa, kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobi qoldig'i salbiy (defitsit) va joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i esa profitsit bo'lganligini anglatadi. Bu esa, biz jahon moliya bozoriga kreditor sifatida chiqayotganligimizni va o'zimizning importimizdan ko'p eksport qilayotganligimizni bildiradi.

Bir tomondan, bir mamlakat jamg'armasi undagi investitsiyalar miqdoridan ortiq ketadigan bo'lsa, ortiqcha qism xorijga kredit sifatida beriladi. Boshqa mamlakatga ega o'sha mamlakat tovarlari va xizmatlarini sotib olishi (import) uchun ortiqcha moliyaviy mablag' kerak bo'ladi va Xn ijobiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Boshqa tomondan esa, agar bizning investitsiyamiz o'z jamg'armalarimizdan ortib ketsa, ortiqcha investitsiyalar xorijiy mamlakatlardan moliyalashtirilganligini anglatadi. Jalb etilgan ushbu qarz mablag'lari hisobiga o'z eksportimizdan ko'ra ko'proq mahsulotni import qilish imkonini beradi va Xn salbiy qoldiqqa ega bo'ladi.

Xalqaro kapital oqimi bir qator shakllarda bo'lishi mumkin. Kapital harakatidagi ijobiy qoldiq yuzaga kelsa, odatda mamlakat chet eldan

qarz olgan hisoblanadi. Xuddi shunday, kapitalning xalqaro joylashuvi chet elliklar tomonidan o'sha mamlakat aktivlariga ega bo'lish shaklida ham bo'lishi mumkin. Masalan, yaponiyalik investorlar amerikadagi Rokfellerlar markazini egallaganda, ushbu bitim natijasida AQSH to'lov balansining kapital harakati hisobi ijobiy qoldiqqa ega bo'lgan, lekin Yaponiyadan qarz olmagan. Xorijliklar tomonidan mamlakatning ichki qarz majburiyatlari (davlat obligatsiyalari va h.k.) olinganda, ya'ni mamlakat chetdan qarz olganda ham, mamlakat ichidagi aktivlarga ega bo'linsa ham, ularning ushbu mamlakat kapitalidan kelajakda olinadigan daromadga ega bo'lish huquqi mavjud. Boshqacha aytganda, har ikki holatda ham, chet elliklar ushbu mamlakat kapital zaxirasining ma'lum bir qismiga (ulushiga) ega bo'lishadi. Tashqi iqtisodiy faoliyat natijasidan olingan ijobiy qoldiqlar, "foyda", mamlakatning xalqaro kapital zaxirasi sifatida rasmiy oltin-valyuta zaxirasiga jamlanadi. Shuning uchun ham, yuqorida keltirilgan to'lov balansining makroiqtisodiy formulasi qisqacha (sodda) ko'rinish bo'lib, unga mamlakatning oltin valyuta zaxiralari harakati (*OR* – official reserves)ning hisobi qo'shilmagan. *OR*ning o'zgarishi davlatning oltin valyuta jamg'armasining kamayishi yoki ko'payishini o'zida ifodalaydi. Bunda kapital harakati hisobi bilan bog'liq bo'lgan operatsiyalar kirmaydi.

To'lov balansining yakuniy makroiqtisodiy modeli quyidagi qo'rinishga ega:

$$(I - S) + X_n + OR = 0.$$

Shunday qilib, joriy operatsiyalar hisobi qoldig'i, nafaqat xalqaro kapital harakati hisobi qoldig'i bilan, balki $((I - S) + OR)$ summa bilan tenglashtiriladi.

12.5. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari

To'lov balansi mamlakatning jahon xo'jaligidagi ishtiroki, ko'lami, tarkibi va tashqi iqtisodiy aloqalari to'g'risida to'liq tasavvurni shakllantirib, unda, bular bilan birga quyidagilar ham aks etadi:

– tovarlar, kapital va xizmatlar importiga bo'lgan talab va eksport taklifi bilan aniqlanadigan milliy iqtisodiyotdagi tarkibiy muvozanatsizlik;

– iqtisodiyotni bozor va davlat orqali tartibga solish holatidagi o‘zgarishlar;

– bozor konyunkturasidagi omillar (xalqaro raqobat darajasi, inflyatsiya, valyuta kursining o‘zgarishi va h.k.).

Mamlakatning to‘lov balansi holatiga ko‘p omillar ta‘sir etadi. Biroq, ulardan eng asosiylari sifatida qu‘yidagilarni ko‘rsatish mumkin:

Mamlakat iqtisodiyotining va xalqaro raqobatning bir tekis rivojlanmasligi. Ma‘lum bir mamlakat to‘lov balansining asosiy moddalari jahon iqtisodiyotidagi boshqa mamlakatlar bilan ushbu mamlakatning raqobat qilish kuchlari nisbatini o‘zida aks ettiradi;

Iqtisodiyotdagi siklik tebranishlar. Mamlakatning tashqi iqtisodiy aloqalari natijasi milliy iqtisodiyot holatiga ta‘sir ko‘rsatganidek, to‘lov balansiga xo‘jalik yurituvchi subyektlar xo‘jalik faoliyatida o‘shish, pasayish va tebranishlar o‘z ta‘sirini ko‘rsatadi. Masalan, mamlakatda ishlab chiqarish hajmining ortishi elektr-energiya manbalariga, xom-ashyo va asbob uskunaga bo‘lgan import talabini ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Milliy iqtisodiyot jahon iqtisodiyotiga nisbatan sekin rivojlansa, ushbu mamlakatdan kapitalni chiqib ketishi sodir bo‘ladi. Mamlakatda rivojlanish sur‘atlari ortsa, yoki tezlashsa, foyda olish miqdori ham, foiz stavkalar ham oshadi, kapitalni chiqishi esa qisqaradi.

Davlatning chet eldagi xarajatlarining ortishi. Turli siyosiy va iqtisodiy maqsadlarni ko‘zlagan hukumatning tashqi xarajatlari milliy iqtisodiyot uchun og‘ir yuk hisoblanadi. Uning to‘lov balansiga bilvosita ta‘siri mamlakatning iqtisodiy o‘shish, ishlab chiqarish sur‘atlarining o‘zgarishi, milliy iqtisodiyotning eksport tarmoqlaridan resurslarni olib qo‘yish, epsportni kamayishi va h.k. orqali sodir bo‘ladi.

Kapitalni kirishi va chiqib ketishi. Kapitalni chiqishi va kirib kelishi to‘lov balansiga ikki tomonlama ta‘sir qiladi. Xususan, kapitalni chiqishi uning passivini oshiradi. Bunda, eksport tarmoqlarini modernizatsiyalash uchun foydalanish mumkin bo‘lgan mablag‘larni o‘ziga jalb etadi (ya‘ni tortib oladi). Shuningdek, kapital eksporti ma‘lum bir davrdan so‘ng dividend va foiz, foyda ko‘rinishida mamlakatga xorijiy valyutada mablag‘larni kirib kelishini ta‘minlaydi.

Xorijiy kapitalarni mamlakatga kirib kelishi importyor mamlakat to‘lov balansiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Chunki, tarmoqlarga xorijiy kapitalni kiritish natijasida tarmoqlarning iqtisodiy samaradorligi ortsa,

undan olingan daromad tashqi qarzlarni soʻndirishga yoʻnaltiriladi. Aks holda esa, u toʻlov balansiga salbiy taʻsir etishi mumkin.

Inflyatsiya. Inflyatsiya mamlakat toʻlov balansiga salbiy taʻsir koʻrsatadi. Mamlakat ichida narxlarning ortishi mahalliy tovarlar raqobatbardoshligini kamaytiradi, ularning eksportini qiyinlashtiradi, tovarlar importini kuchaytiradi, chet elga kapitalning chiqib ketishi “qochishi” sodir boʻladi.

Favqulotda holatlar. Hosilning yoʻqolishi, stixiyali (oʻz-oʻzidan sodir boʻlgan) qashshoqlik, tabiiy ofatlar va h.k. kabi favqulotda holatlar mamlakat toʻlov balansiga salbiy taʻsir koʻrsatadi.

Savdo cheklolari. Toʻlov balansiga mamlakatlarning bir-biriga nisbatan qoʻllayotgan diskriminatsiyalari, proteksionistik harakatlari, xususan mamlakatlarning oʻzaro manfaatli iqtisodiy hamkorlik munosabatlariga qarshilik qiluvchi bojxona toʻsiqlari toʻlov balansida oʻzgarishlar sodir boʻlishiga olib keladi.

Toʻlov balansining davlat tomonidan tartibga solinishi – bu, davlatni toʻlov balansining asosiy moddalarini shakllantirishga hamda paydo boʻlgan taqchillikni moliyalashtirishga yoʻnaltirilgan iqtisodiy, jumladan, valyuta, moliya, pul-kredit tadbirlarini amalga oshirishga yoʻnaltirilgan faoliyatining umumiy yigʻindisidir.

Mamlakatning xalqaro hisob-kitoblari va valyuta-iqtisodiy holatiga bogʻliq holda toʻlov balansini boshqarishning, tashqi iqtisodiy operatsiyalarni ragʻbatlantirish yoki qisqartirishga yoʻnaltirilgan turli usullari mavjud. Toʻlov balansida taqchillik mavjud boʻlgan davlatlar tomonidan, eksportni ragʻbatlantirish, import qilinayotgan tovarlarni kamaytirishga, xorijiy kapitalni jalb qilishga, kapitalni olib chiqib ketishni chegaralashga qaratilgan quyidagi tadbirlar qoʻllaniladi:

Deflyatsion siyosat. Bu siyosat, ichki talabni kamaytirishga yoʻnaltirilgan holda, oʻz ichiga byudjet mablagʻlarini aholiga kamroq ishlatish, baholarni va ish haqlarini muzlatish kabilarni qamrab oladi. Uning eng asosiy instrumentlaridan biri boʻlib, moliyaviy va pul-kredit choralari hisoblanadi: byudjet taqchilligini kamaytirish, Markaziy bankning hisob stavkalarini oʻzgartirishi (diskont siyosati) kredit cheklolari, pul muassasining oʻsib borishiga chegara qoʻyish. Iqtisodiy pasayish, ishsizlikning yuqori koʻrsatkichi va toʻla foydalanilmayotgan ishlab chiqarish quvvatlari sharoitida deflyatsiya siyosatini qoʻllash, ishlab chiqarish va bandlikning yanada pasayishiga olib keladi. Bu esa, aholining turmush darajasiga sezilarli salbiy taʻsir koʻrsatib, vaziyatni

yumshatish bo'yicha tezkor chora-tadbirlar qo'llanilmasa, ijtimoiy nizolar kelib chiqadi.

Devalvatsiya. Milliy valyuta kursi (boshqa xorijiy valyutalarga nisbatan qadri)ning pasaytirilishi. Bu tadbir milliy eksportni rag'batlantirish va importni jilovlash bilan bog'liq maqsadlarda amalga oshiriladi. Ammo, to'lov balansini tartibga solishda devalvatsiyaning roli, uni o'tkazish tartiblari va ularga hamkorlik qiluvchi mamlakatning umumiqtisodiy va moliyaviy siyosatiga bog'liq bo'ladi. Devalvatsiya faqatgina, raqobatbardosh tovarlarning eksport salohiyati va jahon bozoridagi qulay vaziyatlarning mavjudligi sharoitidagina tovarlar eksportini rag'batlantirishi mumkin. Devalvatsiyaning importni cheklashga ta'siri esa, takror ishlab chiqarish jarayonining baynalmilallashuvi hamda xalqaro ixtisoslashuv darajasining rivojlanishi bilan, mamlakatning importni cheklash bo'yicha keskin choralar qo'llash imkoniyatlari pasayishidan kelib chiqadi. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, hamma mamlakatlarda ham import o'rnini bosuvchi tovarlar ishlab chiqarish siyosati muvaffaqiyatli chiqavermaydi. Devalvatsiya importni cheklashi bilan, mamlakat ichida tovarlar ishlab chiqarish xarajatlari ortishiga, narxlarning ko'tarilishiga va oqibatda, tashqi bozorlarda raqobatbardoshlik qobiliyatining yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun, bu tadbir mamlakatga vaqtinchalik ustuvorlik berishi mumkin, ammo u to'lov balansining taqchilligini keltirib chiqaruvchi sabablarni bartaraf etishga qodir emas. Kutilgan natijani olish uchun, devalvatsiya yetarli darajada bo'lishi zarur. Aks holda, u valyuta spekulyatsiyasini kuchaytiradi va valyuta kursini qaytadan ko'rib chiqishga majbur qiladi. Haddan ortiq darajada amalga oshirilgan devalvatsiya, boshqa valyutalar kursini ham tushirishga olib keladigan, zanjirli reaksiyani amalga oshiradi. Va natijada, devalvatsiyani amalga oshirgan mamlakat, raqobatda o'zi kutgan ustuvorlikka ega bo'la olmasligi mumkin.

Valyuta cheklolari. Ushbu tadbir eksport qiluvchilarning xorijiy valyutalardagi tushumlaridan foydalanishni cheklash, xorijiy valyutani import qiluvchilarga sotishni litsenziyalash orqali amalga oshiriladi. Shuningdek, u valyuta operatsiyalarni maxsus ruxsatnomaga ega bo'lgan banklarda amalga oshirilishi hamda to'lov balansidagi taqchillikni kamaytirish maqsadida, kapital eksportini chegaralash va uning oqib kelishini rag'batlantirish, tovarlar importini chegaralashga qaratilgan tadbirlar yig'indisidir.

Moliya va pul-kredit siyosati. To'lov balansidagi taqchilikni bartaraf etish maqsadida eksport qiluvchilarga byudjet subsidiyalari beriladi, proteksionistik (ichki ishlab chiqaruvchilarni himoyalash) maqsadlarida import bojlari oshiriladi, mamlakatga pul oqimining kirib kelishini rag'batlantirish maqsadida qimmatli qog'ozlar egasi bo'lgan xorijliklardan olinadigan soliqlarni bekor qilish kabi chora-tadbirlardan keng foydalaniladi. Shuningdek, pul-kredit siyosati, bank hisob siyosati va muomaladagi pulning massasini belgilash tadbirlari yuqoridagi maqsadlardan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Nazorat savollari

1. To'lov balansining iqtisodiy mohiyati va tuzishning ahamiyati aytib bering.

2. To'lov balansini qanday shakllarda taqdim etiladi va ularni farqli jihatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

3. To'lov balansini tarkibi qanday?

4. To'lov balansini kredit qismida qanday operatsiyalar yoziladi va u qanday ahamiyatga ega?

5. To'lov balansini debet qismida qanday operatsiyalar yoziladi va u qanday ahamiyatga ega?

6. To'lov balansining aktiv va passiv operatsiyalari, holatlari to'g'risida nimalarni bilasiz?

7. Joriy operatsiyalar hisobi balansini hisobida nimalar aks ettiriladi?

8. Bir tomonlama o'tkazmalar va xizmatlar balansini qanday operatsiyalardan shakllantiriladi?

9. Tashqi savdo balansida nimalar aks ettiriladi?

10. Kapital va moliyaviy vositalar bilan operatsiyalar hisobida qanday operatsiyalar amalga oshiriladi?

11. To'lov balansiga davlat aralashuvi qanday bo'ladi?

12. To'lov balansining xato va o'tkazib yuborishlar moddasi nima uchun kerak, unda nimalar aks ettiriladi?

13. Mamlakat to'lov balansining makroiqtisodiy modelini tuzish to'g'risida nimalarni bilasiz?

14. To'lov balansiga ta'sir etuvchi omillarni aytib bering va ularni izohlang?

15. To'lov balansini tartibga solishning qanday asosiy usullarini bilasiz va ularga izoh bering?

ASOSIY TUSHUNCHALAR

Aktiv to'lov balansi – to'lov balansida tushumlar summasi to'lovlardan summasidan ortiq bo'ladi.

Arbitrajchilar – bir vaqtning o'zida turli bozorlarda, turli narxlar asosida moliyaviy resursni sotib olish va sotish orqali foyda ko'radigan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Asean – 1967-yilda Bruney, Vetnam, Indoneziya, Kambodja, Laos, Malayziya, Myanma, Singapur, Tailand va Filippin tomonidan tashkil etilgan Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari assotsiatsiyasi.

Autrayt forward kursi – bitim tuzilgan kunda qayd etiladi va uning ijro kuni uchun haqiqiy hisoblanadi.

BRİK – barqaror iqtisodiy o'sish sur'atlariga, jahon iqtisodiyoti va savdosida katta ulushga ega Braziliya, Rossiya, Hindiston va Xitoydan iborat mamlakatlar guruhi.

Bojxona ittifoqi – o'zaro savdodagi to'siqlarni bekor qilgan va a'zo bo'lmagan mamlakatlarga nisbatan yagona bojxona tariflari asosida umumiy tashqi savdo siyosati olib borayotgan mamlakatlar guruhi.

BENILYUKS – 1960 yilda Belgiya, Niderlandiya va Lyuksemburg o'rtasida imzolangan iqtisodiy ittifoq.

Birja – strandartlar yoki namunalar asosida savdo qilinadigan ommaviy tovarlarning muntazam ulgurji bozori yoki qimmatli qog'ozlar, oltin, chet el valyutalari (fond birjasi) bozori.

Bevosita kotirovka – Milliy valyuta birliklarida ifodalangan xorijiy valyuta birligining narxi.

Bretton-Vuds valyuta tizimi – 1944-yilda Bretton-Vuds konferensiyasida mamlakatlar tomonidan yangi valyuta tizimini barpo etish to'g'risidagi bitim asosida tashkil topgan. Bretton-Vuds tizimi – savdo hisob-kitoblari va pul munosabatlarini tashkil etishning xalqaro tizimidir.

Devalvatsiya – bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan rasman qonuniy asosda pasaytirilishi.

Deviz siyosati – bu davlat organlarining chet el valyutalarini sotish yoki sotib olish orqali milliy valyuta kursiga ta'sir etish siyosatiga aytiladi.

Devizlar – banklarning xorijda joylashtirilgan xorijiy valyutadagi aktivlari, shuningdek chet elda to'lanishi lozim bo'lgan xorijiy valyutadagi cheklar va veksellar.

Demping – savdo siyosatining moliyaviy metodi bo'lib, tovarni tashqi bozorga mamlakatda mavjud normal bahoga qaraganda past baholarda eksportga chiqarish.

Derivativilar – biron-bir moliyaviy dastakning hosilaviy shakli hisoblanadi.

Deflyatsiya – iqtisodiyotda baholar umumiy darajasining pasayishi.

Diskont stavkasi – uchyot stavkasi, Markaziy bank tomonidan tijorat banklariga ularning ixtiyoridagi trattalarni qayta hisobga olish yo‘li bilan beriladigan kreditlarning foiz stavkasidir.

Diskont siyosati – Markaziy bankning uchyot stavkasini o‘zgartirish yo‘li bilan milliy valyuta kursiga va to‘lov balansining holatiga ta‘sir etish siyosatidir.

Erkin almashinuvchi valyuta – mamlakatning to‘lov balansini joriy operatsiyalar bo‘limiga valyutaviy cheklashlar bo‘lmasa, bu mamlakatning puli erkin almashadigan valyuta deb tan olinadi.

Erkin iqtisodiy zonalar – ushbu hududlarda mamlakatda amal qiluvchi xo‘jalik faoliyatiga qaraganda imtiyozli soliq to‘lash tartibi joriy etiladi.

Eksport – tovarlar, xizmatlar va kapitalni tashqi savdoga chiqarish. Eksport predmetlari tovar singari xizmat qiladi, u mamlakat ichkarisida qayta ishlanib, chegraga olib boriladi.

Eksport (import) kvotasi – ma‘lum tovarlarni ishlab chiqarish va eksportga yetkazib berishning belgilab qo‘yilgan hajmi; import kvotasi esa har yili xorijiy mamlakatdan keladigan mahsulotlar hajmini miqdor jihatidan cheklab qo‘yish.

Eksport krediti – eksport kreditorlar (firma, bank va hukumat kabilar) xorijlik sheriklariga ularni qiziqtirgan mahsulot va xizmatlarni tasarruflariga olishlari uchun kredit ajratishi. Eksport krediti sug‘urta tizimi eksportchilarning mablag‘lari qadsizlanishi va foizi bilan qaytishini kafolatlaydi.

Firma krediti – eksportyor mamlakatning bir firmasi boshqa mamlakatning importyoriga to‘lovni kechiktirish shaklidagi ssuda berishi tushuniladi.

Forward operatsiyalari – belgilangan muddatda, ammo ikki ish kunidan oshiq bo‘lgan muddatda amalga oshiriladigan operatsiyalarga aytiladi. Amaliyotda forward bitimlarini amalga oshirishning standart muddatlari uchraydi. Standart muddatlarga 1; 3; 6; 9; va 12 oylarni kiritish mumkin.

Foiz stavkasi kafolati – IRG –“Interest Rate Guarantee”ni odatda qarz oluvchilar yoki kreditorlar opsiyani deb atashadi.

Foizli svop – ayni bir valyutadagi foiz to‘lovlari almashinuvini o‘zida aks ettiradi. Odatda bunday bitimlar bir yildan ortiq muddatga amalga oshiriladi. Bunday svoplarda asosiy summa almashinuvi hech qachon ko‘zda tutilmaydi.

Forvard bitimi – vaqtinchalik opsionli bitim tuzilganidan keyingi ikki ish kunidan kattaroq muddatda bir valyutani boshqasiga konvertatsiyalanishi to‘g‘risidagi ikki tomonning kelishuvi.

Foreks-klub – xalqaro valyuta savdosining faol ishtirokchilari bo‘lgan banklar tomonidan professional standartlarni va valyuta bozoridagi muomala me‘yorlarini belgilab qo‘yish maqsadida asos solingan tashkilot.

Import – xorijdan mahsulot va xizmatlarning kelishi (shuningdek, kapitallar, texnologiyalar, qimmatli qog‘ozlar va boshqalar). Ichki bozorda bu mamlakatlar tovarlarining sotilishi.

Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti (OESR-IHTT) – dunyoning iqtisodiy munosabatlar va rivojlanish munosabatlariga kirishuvchi tashkiloti. U 1960-yilda tashkil etilgan bo‘lib, iqtisodiy va ijtimoiy siyosatni muvofiqlashtirib turadi. Unga a‘zo mamlakatlar 1997- yilda 29 tani tashkil etgan. (Tashkilotning so‘nggi a‘zosi Koreya Respublikasi, 1996-yil, noyabr).

OESR hozirgi bosqichda Elning integratsiyalashgan qo‘shilmasi turiga kirmaydi, ammo bu tashkilot unga a‘zo bo‘lgan mamlakatlar tashqi iqtisodiy muammolari va ichki ijtimoiy taraqqiyoti massasalariga aralashadi.

Ichki qiymat – opsion narxini (rag‘batni) belgilovchi qiymat. Ichki qiymat joriy forvard kursi va ijro narxi o‘rtasidagi farqni ifodalaydi.

Islom taraqqiyot banki – 1975-yilda tashkil topgan bo‘lib, maqsadi a‘zo-mamlakatlarning rivojlanish loyihalarini, tashqi savdoni kreditlash va savdo hamda sanoat kompaniyalari kapitallarini investitsiyalashdan iborat.

Iqtisodiy va valyuta ittifoqi – ishlab chiqarish omillarining erkin harakati ta‘minlangan, ijtimoiy-iqtisodiy, jumladan, sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, energetika, valyuta-moliya sohalarida yagona siyosat amalga oshirilayotgan, umumiy valyutani muomalaga kiritgan mamlakatlar guruhi.

Jahon moliya bozori – mamlakatlar o‘rtasida kapital resurslarini jamlash va taqsimlashni ta‘minlab beruvchi bozor munosabatlari yig‘indisi.

Jahon moliyaviy muhiti – investorlar va korporatsiyalar moliyasi, banklar boshqaruvchilari qabul qiluvchi qarorlarga ta‘sir ko‘rsatadi hamda jahon moliya bozori o‘sishi sharoitini aniqlaydi.

Jahon iqtisodiyoti globallashuvi – jahon iqtisodiyotining tovarlar, xizmatlar, kapital, ishchi kuchi va texnologiyalarning yagona bozoriga aylanish jarayoni.

Kafolotli marja – pozitsiyani ochishda kafolat sifatida opsionlar birjasining kliring palatasiga kiritish lozim bo‘lgan summa.

Kapitallar va kreditlarning harakati balansi – tadbirkorlik bilan ssuda kapitalining harakati aks ettiriladi.

Kliring – tovarlar, qimmatbaho qog‘ozlar va xizmatlar uchun naqd pulsiz hisob – kitob qilish tizimi. Bu tizim o‘zaro talablar va majburiyatlarni

bajarilishiga asoslangan. Aytish mumkinki, kliring rivojlanayotgan mamlakatlarning ayrimlarida valyutani erkin konvertatsiya qilish borasida chegaralanishlarni keltirib chiqarishi mumkin.

Kliring palatasi – muddatli birjadagi, har bir bitim bo'yicha sherik sifatida chiquvchi hisob-kitob palatasi. Birja savdosi ishtirokchilari kliring palatasiga sug'urta garovlarini kiritadilar va har kuni ochiq pozitsiyalarini qayta narxlaydi.

Kompensatsion bitim – uzoq muddatli tashqi savdo kelishuvlari shakli xaridorga taqdim etilgan mahsulot yoki ko'rsatilish lozim bo'lgan xizmatning to'lov borasidagi yengilligi. Tajribada ko'rinishicha, tomonlarning aniq kelishuvlari so'nggida ro'yxatdagi tovarlarning soni va bahosi sifat darajalariga mos kelishi shart etib belgilangan.

Konyuktura – ayni paytdagi iqtisodiyotda kechayotgan qandaydir o'zgarishlar va obyektiv ahvolning holati.

Konglomerat birlashishi – ishlab chiqarish yoki ta'minot munosabatlari bo'yicha o'zaro aloqador bo'lmagan kompaniyalarning birlashishi bo'lib, bunda bir tarmoqda faoliyat yurituvchi kompaniyaning boshqa tarmoqdagi kompaniya bilan qo'shilishi sodir bo'ladi.

Kotirovka valyutasi – savdo qilinayotgan valyutaning standart birligi narxini ko'rsatadi.

Kredit – yevrobozordagi o'rta va uzoq muddatli kreditlar. Ular bo'yicha, suzuvchi foiz stavkalari belgilangan davr uchun qat'iy lashtirib qo'yiladi.

Kross-kurs – bir mamlakatning valyutasini ikkinchi bir mamlakat valyutasiga nisbatan USD orqali ifodalanadigan nisbati. Kross-kurs xalqaro miqyosda keng qo'llaniladi. Uni asosan yirik kompaniyalar va korporatsiyalar qo'llaydi. Bu valyuta kursini aniqlashning real yo'li hisoblanadi.

Kunlik limit – savdo-sotiq ishtirokchisiga kun davomida o'ziga olishga ruxsat etilgan maksimal valyutaviy yoki foiz xatari.

Kredit diskriminatsiyasi – bu kredit olishda, undan foydalanishda yoki xalqaro kreditni to'lashda ma'lum bir qarz oluvchilarga iqtisodiy va siyosiy bosimni yuzaga keltiruvchi og'ir va qiyin shartlarni qo'yishdir.

Ko'pmillatli korporatsiyalar – bosh kompaniya ikki va undan ortiq mamlakat kapitaliga tegishli bo'lib, xorijiy bo'limlari turli mamlakatlarda joylashgan korporatsiyalar.

Libor – “London banklararo depozitlar bozorida taklif (sotuvchi)ning stavkasi” tushunchasining qisqartmasi (abbreviaturasi), Londonning yetakchi banklari har kuni teng darajadagi banklar uchun o'z valyutaviy kredit stavkalarini ma'lum qiladilar.

Likvidlilik – foydalanishda (ixtiyorda) bo‘lgan naqd mablag‘lar va tezda pul mablag‘lariga aylanadigan aktivlar.

Limitlangan topshiriqnoma (cheklangan narxli e‘lon) – bitim amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan topshiriqni maksimal yoki minimal kursda valyutani sotib olish yohud sotish uchun topshiriqnom.

Lombard krediti – tijorat banklari Markaziy bankdan o‘zlarining portfelidan qimmatbaho qog‘ozlarni garovga qo‘yish orqali kredit olish - bu lombard krediti hisoblanadi.

Loro hisobvarag‘i – A bankning korrespondentlik hisobvarag‘i bo‘lib, B banki uni o‘z pozitsiyasidan yuritadi.

Markaziy Yevropa erkin savdo uyushmasi (MEESA) – 1993- yilda Vengriya, Polsha, Slovakiya, Chexiya, Sloveniya tomonidan imzolangan erkin savdo uyushmasi.

MERKOSUR – Janubiy Amerika umumiy bozori yoki Janubiy konus mamlakatlari umumiy bozori.

Marja – sotib olish va sotish kurslari o‘rtasidagi farq. Mijozlik bitimlarida banklararo kurslar va mijozlar bilan hisob-kitob qilinadigan kurslar hamda foiz stavkalari o‘rtasidagi farqni belgilash uchun qo‘llanadi.

Milliy valyuta tizimi – ma‘lum bir mamlakat hududida valyuta munosabatlarini tashkil etish, tartibga solish bilan bog‘liq tadbirlar majmuasini ifodalaydi.

Mintaqaviy valyuta tizimi – muayyan bir mintaqa doirasidagi mamlakatlar tashabbusiga ko‘ra tashkil etilgan valyuta tizimini ifodalaydi.

Minimal zaxiralar – tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishlari shart bo‘lgan pullar. Minimal zaxiralar darajasi Markaziy bank tomonidan muayyan depozit bitimlar miqdoridagi qat‘iy foiz ulushida o‘rnatiladi.

Milliy valyutaning pariteti – milliy valyuta qiymatining xorijiy valyuta qiymatiga nisbati bo‘lib, u hisoblanadigan ko‘rsatkich hisoblanadi va milliy valyuta kursini belgilash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Moliyaviy fyuchers kontrakti – valyuta yoki moliyaviy vositalar oldi-sottidising standart birja kontrakti. Moliyaviy fyuchers kontrakti oldindan belgilangan kurs bo‘yicha, kelishilgan muddatda savdolashiladigan summani yetkazib berish yoki qabul qilish to‘g‘risidagi standartlashtirilgan qat‘iy kelishuv.

Maastrixt shartnomasi – 1992-yilda Maastrixt shahrida Yevropa Ittifoqini tuzishning asosini tashkil etuvchi shartnoma.

Moliyaviy investitsiyalar – mulkka egalik qilish va mulkdan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan aksiya, obligatsiya va boshqa qimmatbaho qog‘ozlar orqali qo‘yilmalar kiritish.

Moliya-sanoat guruhlari – ishlab chiqarish, xo‘jalik, moliyaviy va boshqa faoliyatlar samaradorligini ta‘minlash maqsadida markazlashgan boshqaruvga ega bo‘lgan va o‘zlarining resurslarini (ishlab chiqarish, moliyaviy, mehnat, nomoddiy va boshqalar) birlashtirgan ishlab chiqarish, savdo korxonalarini va moliya-kredit institutlarini o‘z ichiga olgan mustaqil yuridik shaxslarning integratsiyasi shakli.

Norezidentlar – davlatning xorijiy mamlakatlarini boshqarish, ya‘ni xorijdagi korporatsiyalar, hukumat ofislari, elchixonalar, qo‘shma korxonalar, chet mamlakatlar chegralaridagi korxonalar egalari, shuningdek, xorijda doimiy yashovchilar va bu yurtga keluvchilar.

Nisbiy afzallik – manfaat, foyda. U tashqi savdoga a‘zo mamlakatlarning turli mahsulotlarni sotishdan oladigan daromadlari tushuniladi.

Neft mahsulotlari eksport qiladigan mamlakatlar tashkiloti (OPEK) – Xalqaro hukumatlar o‘rtasida tuzilgan tashkilot. U Osiyo, Afrika va Lotin Amerikasi davlatlari hududlaridagi neftni qazib olish va eksport qilish, ularning narxlarini belgilash massalarini amalga oshirish bo‘yicha 1960-yilda tashkil etilgan.

NAFTA – 1992-yilda AQSh, Kanada va Meksika o‘rtasida tuzilgan Shimoliy Amerika Erkin savdo assotsiatsiyasi.

Nostro hisobvarag‘i – A bankning korrespondentlik hisobvarag‘i, B banki uni A bankining pozitsiyasidan yuritadi.

Oltin demonetizatsiyasi – bu oltinning pul funksiyalarini bajarishdan asta-sekin mahrum etish jarayonidir.

Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kredit – eksportyor jo‘natilgan har bir tovarlar qiymatini importyorning hisobiga qarz sifatida qayd qilib boradi. Importyor shartnomada ko‘rsatilgan vaqtda kredit summasini to‘lab boradi. Ochiq schyotlar bo‘yicha beriladigan kreditlar faqatgina doimiy aloqada bo‘lgan firmalar o‘rtasidagina amalga oshirilishi mumkin.

Ochiq iqtisodiyot – tashqi iqtisodiy aloqalari rivojlangan, milliy iqtisodiyotning nisbiy ustunliklariga tayanib, jahon xo‘jaligi tizimiga integratsiyalashib boruvchi iqtisodiyot.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) – 1966-yilda tashkil etilgan bo‘lib, asosiy maqsadi qit‘aning rivojlanayotgan mamlakatlariga iqtisodiy rivojlanishda ko‘maklashish, hududiy hamkorlikni rag‘batlantirish, a‘zo-mamlakatlarga texnik yordam ko‘rsatish va ularning iqtisodiy siyosatini muvofiqlashtirishdan iborat.

Overnaysht-pozitsiya – xorijiy valyutadagi pozitsiya, u eng kamida tun vaqti davomida qoplanmaydi.

Opsion – xaridor muayyan summadagi valyutani sotib olish yoki sotish huquqini oladi, sotuvchi xaridorning istagiga ko‘ra valyutani yetkazib berishi yoki sotib olishi shart.

Opsion “Kol” – avvaldan kelishilgan narxda muayyan kunda yohud muayyan muddat davomida muayyan summadagi valyutani sotib olish huquqi.

Opsion “Put” – kelishilgan narxda, ijro etish kunida yoki muayyan davr mobaynida muayyan summadagi valyutani sotish huquqi.

Opsion mukofoti – sotuvchi tomonidan opsion xaridoriga to‘langan rag‘bat. Rag‘bat miqdori ikki qiymatdan tashkil topadi: ichki va vaqtinchalik.

Opsion xatar – valyuta kursi yoki foiz stavkalarining noqulay o‘zgarishlari xatari. U shuningdek valyuta xatari yoki foiz xatari deb ataladi.

Passiv to‘lov balansi – tushumlar summasi to‘lovlar summasidan bo‘ladi.

“Parij klubi” – kreditorlar mamlakatlarning hukumatlararo muassasi, MVF a‘zosi. 1961-yilda tashkil etilgan bu “klub” to‘lov muddatini bir tomonlama o‘zaytirishning oldini olish maqsadlarida rivojlanayotgan mamlakatlarning tashqi qarzlari shartlarini qayta ko‘rib chiqish bilan shug‘ullanadi.

Paritet – diler tomonidan uning kotirovkasi bilan unga qo‘yilgan kurs mosligini belgilash uchun foydalaniladi.

Portfel investitsiyalar – kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog‘ozlariga (korxonalar ustav kapitalining 10% dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo‘lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi.

Proteksionizm – tashqi savdo siyosati tamoyili, davlatning milliy iqtisodiyotni chet el raqobatidan, ichki bozorni chet el tovarlarining kirib kelishidan himoya qilishga qaratilgan iqtisodiy siyosat.

Pozitsiyaning yopilishi – ochiq valyutaviy yoki pozitsiyaning qarama-qarshi bitim yo‘li bilan qoplanishi.

Rag‘bat (mukofot) – forvard va spot kurslari o‘rtasidagi farq. Bunda spot-kurs forvard kursidan past bo‘ladi. Tegishli muddatdagi har ikki valyuta foiz stavkalari farqi rag‘batning hisob-kitob bazasini tashkil etadi.

Revalvatsiya – bu milliy valyuta kursining chet el valyuta kursiga nisbatan oshirish. Revalvatsiya asosan importni rag‘batlantirish va milliy bozorni o‘sha mamlakat tovarlari bilan to‘ldirish maqsadida qo‘llaniladi.

Rezerv (Stand-By) kelishuvlari – asosan qisqa muddatli to‘lov balansi muammolarini bartaraf etishga mo‘ljallangan.

Rezidentlar – jismoniy yoki yuridik shaxslar, ya‘ni boshqa mamlakatda doimiy yashayotgan fuqarolar.

Reimport – ichki bozorda sotish, importdan farqli o‘laroq mamlakatga xorijiy tovarlarni qayta ishlash va xizmatlarni ko‘rsatish uchun kirtish. Reimport miqdori va tarkibi mamlakatning xalqaro mehnat taqsimotida tutgan o‘rniga bog‘liq. Uning tarkibini yarim fabrikatlar, xomashyolar, mashina va asbob-uskunalar, yarim qayta ishlangan iste‘mol mollari tashkil qiladi.

Real ish haqi – tovar va xizmatlar uchun haq to‘lash majmuasi, ayni davrda ish haqi uchun berilayotgan summa. Bu summa soliqlar iste‘molchi indeksi va boshqa to‘lovlardan tashqari bo‘lgan mehnati haqidir.

Savdo balansi – eksport va import operatsiyalari bo‘yicha valyuta to‘lovlari va tushumlarining haqiqatdagi summasi aks ettiriladi. Kreditga sotib olingan tovarlar qiymati bu yerda aks ettirilmaydi.

Savdo to‘sig‘i – odatda tariflar, cheklashlar yoki valyuta nazorati tarzida mamlakatlar o‘rtasida tovarlar va xizmatlar erkin almashinuvining sun‘iy cheklanishi.

Savdo (ish) kuni – foiz va valyuta bitimlari to‘g‘risidagi bitim tuziladigan kun.

Savdo qilinadigan valyuta – karrali standartli birliklar bilan savdo qilinadigan va narxi boshqa valyutaning o‘zgaruvchi birliklarida ifodalanadigan valyuta.

Svop operatsiyasi – bir valyutani spot operatsiyasi bo‘yicha sotib olish va forvard sharti bo‘yicha sotishiga yoki forvard sharti bo‘yicha sotib olish va spot sharti bo‘yicha sotishga aytiladi.

Svop-bitim – kontragentlar o‘rtasida bir vaqtning o‘zida “spot” bitimi va qarama-qarshi forvard bitimini tuzish.

Svop-stavka (qo‘shilma) – spot va forvard kurslari o‘rtasidagi, punktlarda ifodalangan foizlar farqi. Foizlar tuzilmasiga bog‘liq holda diskont yoki rag‘batdan tarkib topadi.

SDR – maxsus qarzdorlik huquqi. XVF tomonidan emissiya qilinuvchi xalqaro hisob birligi.

Smitson bitimi – 1971-yilda Bretton —Vuds tizimiga a‘zo mamlakatlar Vashingtondagi Smitson institutida o‘z valyutalarining almashtirish kurslari va tebranish chegaralarini belgilab qo‘ydilar.

Sotib olish kursi – u bo‘yicha oldi-sotdi qilinadigan valyuta sotib olinadigan kurs.

Sotish kursi – u bo‘yicha oldi-sotdi qilinadigan valyuta sotiladigan kurs.

Spot operatsiyalari – valyuta bitimi tuzilgandan so‘ng, valyutalar ikki ish kunida kelib tushadigan operatsiyalar.

Spot kursi – spot bitimini tuzishda oldi-sotdi qilinayotgan valyutaning muayyan birligi qiymatini ifodalovchi kurs.

Spekulyantlar – moliyaviy instrumentlarning kurslaridagi farq hisobiga foyda olishni ko‘zlagan ishtirokchilar.

Spot-nekst – keyingi ish kunida teskari bitim amalga oshiriladigai qisqa muddatli svop yoki foizli kelishuv.

Spred – valyutani kotirovkalashda sotib olish va sotish kursi o‘rtasidagi farq.

Stagflyatsiya – iqtisodiyotda baholar va ishsizlik darajalarining bir vaqtning o‘zida o‘sishi.

Strategik pozitsiya – muayyan muddatda yoki to‘lov kunida kurslarning kutilmagan o‘zgarishidan foyda olish uchun foydalaniladigan ochiq forvard pozitsiya.

Strategik alyanslar – jahon bozoridagi global iqtisodiy masalalarni birgalikda hal etish maqsadida tuziladigan firmalararo ittifoq bo‘lib, ushbu ittifoq mazkur firmalarning boshqa sohalarida raqobatlashuviga to‘sqinlik qilmaydi.

Sug‘urta xatari – bitim bo‘yicha sherik o‘z mamlakatidagi siyosiy hodisalar yoki qonunchilikdagi cheklovlar oqibatida to‘lov majburiyatlarini bajara olmasligi xatari.

Tarif cheklovlari – iqtisodiy va ma‘muriy qonunchiligiga asoslangan summa, u tashqi savdo boshqaruvida boj-tarif siyosatini aks ettiruvchi funksiyadir.

Tasdiqlangan kafolatlar – kafolatlarni tasdiqlash shaklida namoyon bo‘ladi. Masalan, bank o‘z mijozi bo‘lgan importyorning to‘lov majburiyatlari bo‘yicha kafolat bergan bo‘lsa, eksportyorning banki ham ushbu kafolatlar bo‘yicha majburiyatni o‘z zimmasiga oladi. Bu esa, mavjud kafolatlarni tasdiqlash yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Tashqi savdo siyosati – milliy iqtisodiyotning tashqi bozorlardagi raqobatbardoshligini oshirish va tashqi raqobatdan mahalliy ishlab chiqaruvchilarni himoya qilishga, qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlar yig‘indisi.

Tashqi savdoni kreditlash – pul vositalarini, tovar va xizmatlarni ma‘lum foiz to‘lab qaytarib berish sharti bilan ma‘lum muddatga qarzga berish.

Tashqi qarz – davlatning xorijiy mamlakatlar qarz beruvchi bank va moliya muassasalaridan zayom va kreditlar olishi, natijasida paydo bo‘lgan qarzi.

Teskari (bilvosita) kotirovka – xorijiy valyuta birliklarida ifodalangan milliy valyuta birligining narxi.

Teskari kurs – ikki mamlakatda turlicha ifodalangan valyuta kursi. Bir mamlakatda oldi-sotdi qilinadigan valyuta boshqa mamlakatda kotirovka valyutasi sifatida amal qiladi.

Transmilliy bank – jahon ssuda kapitali va moliya-kredit xizmatlari bozorida faol qatnashish imkonini beruvchi kapitalga ega yirik banklar tushuniladi.

Transmilliy korporatsiyalar – bosh kompaniya bir mamlakat kapitaliga tegishli bo‘lib filiallari esa dunyo bo‘ylab tarqalib ketgan kompaniyalar.

Transmilliy lashuv indeksi – TMKning xorijdagi tovar va xizmatlar ishlab chiqarishga jalb etilganlik darajasidir.

Treyderlar – moliyaviy instrumentlarning kurslari o‘zgarishidan foydalangan holda bir yoki bir nechta shartnomalar asosida foyda olishni ko‘zlagan jahon moliya bozori ishtirokchilari.

Transfertlar – iqtisodiy boylik, bir tomonlama tartibda ikkinchi tomon ishtirokini ta‘minlash.

To‘g‘ri kafolatlar – bunda kafolat beruvchi tomon bevosita eksport-import operatsiyalariga kafolat beradi. Bunda mazkur to‘lov bo‘yicha majburiyatlarini to‘liq o‘z zimmasiga oladi. Bunday kafolatlar to‘lov talabnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar, hujjatlashtirilgan akkreditiv bo‘yicha hisob-kitoblarda keng qo‘llaniladi.

To‘lov balansi – mamlakatning xorijiy davlatlar bilan bo‘ladigan aloqalari natijasida yuzaga keladigan valyuta tushumlari va to‘lovlarning haqiqatdagi summasi aks ettiriladi.

To‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar (TTXI) – xorijiy kapitalning uzoq muddatli kiritilishi bo‘lib, investor tashkil qilayotgan firma aksiyalari yoki aksioner kapitaliga to‘la ega bo‘lish yoki kamida 10 foizi xo‘jalik faoliyatining ta‘sirchan nazorat qilinishini ta‘minlaydi.

To‘liq iqtisodiy integratsiya – yagona iqtisodiy siyosat yuritish, umumiy valyuta va milliy boshqaruvdan yuqori tashkilotlarni joriy etish.

To‘lov sanasi – bitim bo‘yicha sherik o‘sha kunga qadar valyutani o‘tkazib berishi, ya‘ni to‘lovni amalga oshirishi lozim bo‘lgan sana.

Uzun pozitsiya – xorijiy valyutaga nisbatan kurs xatar (tavakkal)laridan iborat talablar.

Umumiy bozor – a‘zo mamlakatlar o‘rtasida tovarlar, xizmatlar, ishchi kuchi va kapitalning erkin harakatini ta‘minlashga erishishga harakat qilayotgan mamlakatlar guruhi.

Umumiy pozitsiya – to‘lovlarning turli muddatlari hisobga olinmaydigan sof valyutaviy yoki foizli pozitsiya.

Valyuta – tashqi iqtisodiy va xalqaro aloqalarning boshqa shakllarida ishtirok etuvchi mamlakat milliy pul birligi.

Vaqtinchalik usul – to'lov balansi defitsitini chet el kapitalini, ya'ni tadbirkorlik va ssuda kapitallarini kiritish yo'li bilan qoplashga aytiladi.

Valyuta qamali – xalqaro tashkilotlar yoki ayrim mamlakatlar guruhi tomonidan ba'zi bir mamlakatlarga nisbatan valyuta tushumlarining kelish jarayonida to'sqinlik qilish tushuniladi.

Valyuta bozorlari – bu talab va taklif asosida turli xil valyutalar oldi-sotdi qilinadigan rasmiy markazlardir.

Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar – tashqi savdo bo'yicha xalqaro hisob-kitoblar, xalqaro turizm, kapitallar va kreditlarning davlatlararo harakati va chet el valyutasini oldi-sotdi qilish bilan bog'liq boshqa hisob-kitob operatsiyalari hisoblanadi.

Valyuta intervensiyasi – Markaziy bank tomonidan milliy valyuta kursiga ta'sir etish maqsadida chet el valyutasini sotish va sotib olish operatsiyalaridir.

Valyuta kursi – mamlakat pul birligining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan bahosi.

Valyuta munosabatlari – valyutaning jahon oborotidagi harakati natijasida vujudga keladigan pul munosabatidir.

Valyuta operatsiyalari – chet el valyutalari va valyutaviy qimmatliklarga mulk huquqining almashinishi bilan bog'liq operatsiyalarga aytiladi.

Valyuta rezervlarini diversifikatsiya qilish – bir vaqtning o'zida bir necha yetakchi erkin almashinadigan valyutalarda chet el valyuta zaxiralarini tashkil qilish.

Valyuta riski – valyuta kurslarining o'zgarishi natijasida yuzaga keladigan zarar ko'rish xavfi tushuniladi.

Valyuta siyosati – bu xalqaro valyuta munosabatlari sohasida amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisidir.

Valyuta tizimi – valyuta munosabatini tashkil qilishning davlat huquqi shakli.

Valyutaning kurs rejimi – birinchidan, agar milliy valyutaning kursi erkin tarzda valyuta bozorida talab va taklif asosida aniqlansa, bu erkin suzib yuruvchi kurs rejimi deb ataladi.

Valyutaviy inqiroz – xalqaro valyuta munosabatlarida yuzaga keladigan keskin ziddiyatlarga aytiladi.

Vekselli kredit – eksportyor tovarni sotish haqida bitim tuzib, o'tkazma veksell (tratta)ni importyorga jo'natadi, importyor tijorat hujjatlarini olib

akseptlaydi, ya'ni unda ko'rsatilgan muddatda to'lovni amalga oshirishga rozilik beradi.

Vositlashgan kafolatlar – kafolat beruvchi o'ziga xos tarzda vositachilik vazifasini o'taydi. Bunday kafolatlar eksport-import operatsiyalarida keng ishlatiladi.

Valyuta kurslari mexanizmi – milliy valyutaning yevroga nisbatan asosiy paritetini tartibga solish mexanizmi bo'lib, valyutalar kursi paritetdan 15%gacha farqlanishi mumkin.

Xalqaro kafolatlar – tovarlar va kapitallar harakatining uzluksiz va doimiy harakat qilinishini ta'minlanishiga xizmat qilib Markaziy banklar, tijorat banklari, korporatsiyalar, hukumat va xalqaro tashkilotlar tomonidan beriladi.

Xalqaro kredit munosabatlarining subyektlari – tijorat banklari, markaziy banklar, davlat organlari, yirik korxonalar, regional va xalqaro moliya-kredit tashkilotlari qatnashadi.

Xalqaro moliya – xalqaro moliyaviy resurslar majmuini va ularning harakatlanishini ifodalovchi tushuncha hisoblanadi. Xalqaro moliya munosabatlari muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun xalqaro darajada shakllantirilgan moliyaviy resurslarni taqsimlash va ulardan foydalanish jarayonidagi iqtisodiy munosabatlarni ifodalaydi.

Xalqaro hisob-kitoblar – tashqi savdo, kapitallar va kreditlarning harakati bilan bog'liq valyutaviy operatsiyalar, valyutada oldi-sotdi qilish operatsiyalari va boshqa tovarsiz harakatdagi operatsiyalar majmui tushuniladi.

Xalqaro Valyuta Fondi – a'zo davlatlar o'rtasida valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish va ularga to'lov balansining kamomadi bilan bog'liq valyutaviy qiyinchiliklar paytida chet el valyutasida qisqa va o'rta muddatli kreditlar berish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish uchun mo'ljallangan hukumatlararo tashkilotdir.

Xarid krediti – eksportyor bankning to'g'ridan to'g'ri milliy eksportyorini kreditlamadan, balki chet ellik xaridorni, ya'ni, importyor mamlakat firmasi va uning bankini kreditlash hisoblanadi.

Xalqaro korporatsiyalar – jahon tovar va ishlab chiqarish omillari bozorlariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatuvchi yirik kompaniyalardir.

Xalqaro iqtisodiy xavfsizlik – mamlakatlarning iqtisodiy manfaatlariga zarar keltiruvchi xavflar va ularning iqtisodiyotini izdan chiqarishga bo'lgan urinishlarni bartaraf etishning kafolatlangan mexanizmini yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar yig'indisi.

Xalqaro iqtisodiy integratsiya – milliy iqtisodiyotlarning yagona ishlab chiqarish jarayoniga qo'shilishi.

Xalqaro mehnat taqsimoti – bu davlatlar o‘rtasida mehnatning ijtimoiy-hududiy taqsimlanishi bo‘lib, u alohida davlatlar ishlab chiqarishlarining ixtisoslashuviga asoslanadi.

Xalqaro moliya tashkilotlari – jahon iqtisodiyoti barqarorligini ta‘minlash uchun moliya va valyuta-kredit munosabatlarini tartibga solish maqsadlarida davlatlararo kelishuv asosida tashkil etilgan xalqaro tashkilotlarni ifodalaydi.

Xalqaro birlashish va qo‘shib olishlar – kompaniyalarning xalqaro bozorlarda aksiyalarning yirik paketi yoki korxonani to‘liq sotib olish jarayoni.

Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB) – hukumatlararo kredit-moliya tashkiloti bo‘lib, uning asosiy vazifalari a‘zo mamlakatlarda iqtisodiy rivojlanishini rag‘batlantirish, xalqaro savdoni rivojlantirishga yordam berish va to‘lov balanslarini qo‘llab-quvvatlashdan iborat.

Xalqaro rivojlanish assotsiatsiyasi (XRA) – Jahon banki guruhiga kiruvchi xalqaro tashkilot bo‘lib, u 1960-yilda tashkil etilgan. Uning maqsadi iqtisodiy rivojlanishni rag‘batlantirish, samaradorlikni oshirish va shuning asosida, sust rivojlangan a‘zo mamlakatlarda aholi turmush tarzini oshirish, shuningdek, ana‘naviy kreditlarga nisbatan og‘ir bo‘lmagan qulay shartlarda moliyaviy ko‘mak berish hisoblanadi.

Xedjirlar – valyuta kurslarining kelgusida salbiy tomonga o‘zgarishidan ko‘riladigan moliyaviy zararining oldini olish bilan shug‘ullanuvchi ishtirokchilar.

Xizmatlar va tijorat xarakteriga ega bo‘lmagan to‘lovlar balansi – transport, pochta, telegraf, telefon, turizm, madaniy aloqalar, pervaqlar, xorijiy mamlakatlar hududida harbiy qismlarni saqlash, chet elda savdo va diplomatik vakolatxonalarini ochish, xalqaro kreditlar bo‘yicha to‘lanadigan foizlar va boshqa shu kabi sohalarda yuzaga keluvchi valyutaviy tushumlar va to‘lovlar summasi aks ettiriladi.

Xorijiy valyuta – boshqa bir mamlakatda qonuniy to‘lov vositasini ifodalovchi valyuta.

Yamayka valyuta tizimi – zamonaviy jahon valyuta tizimi bo‘lib, alohida mamlakatlarning valyuta tizimlariga emas, balki huquqiy mustahkamlangan davlatlararo tamoyillarga asoslangandir. Yamayka valyuta tizimining o‘ziga xos xususiyati erkin suzib yuruvchi valyuta kurslarini joriy etilishi bo‘ldi.

Yarim marjali kurs – mijoz bilan valyuta bitimini hisob-kitob qilishda to‘liq marja emas, balki yarmi olinadi. Agar odatdagi marjaning chorak qismi hisobga olinsa, bu holda gap faqat chorak marja kursi haqida boradi.

Yevrobozor – savdo-sotiqqlar o‘tkazilgan mamlakat valyutasidan boshqa valyutalarda aks etgan depozitlar va kreditlar bilan savdo qilinadigan xalqaro pul bozorlari va kapitallar bozorlari uchun umumiy tushuncha.

Yevropa valyuta kelishuvi – 1958 yilda imzolangan kelishuv bo‘lib, ishtirokchi mamlakatlar valyutalari bir-biriga va dollarga ayirboshlangan. Kurs tebranishlari chegarasi + 0,75% darajasida o‘rnatildi.

Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YeTTB) – 1991-yilda tashkil etilgan. YeTTB Markaziy va Sharqiy Yevropa mamlakatlariga bozor iqtisodiyotiga o‘tishga qaratilgan iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishda ko‘maklashish maqsadida tuzilgan.

Yevro hududi – Yevropa Ittifoqiga a‘zo, yagona valyuta yevro muomalada bo‘lgan mamlakatlar hududi.

Yevropa valyuta tizimi – 1979-yilda asos solingan. Uning bosh maqsadlari — EIga a‘zo mamlakatlar iqtisodiy hamkorligini kuchaytirish va ularni uchinchi mamlakatlarning beqarorlashtiruvchi ta‘siridan muhofaza etish. Valyutalarning tebranish chegarasi + 2,25% darajasida belgilandi, 1993 yilda ular 15% gacha kengaytirildi.

Yevropa to‘lov ittifoqi – 1950-yilda 16 mamlakat tomonidan Yevropa valyutalarining erkin konvertatsiyalanishi uchun ko‘ptomonlama to‘lovlar va asoslar tizimi yaratish maqsadida tashkil qilingan.

Yevropacha opsion – faqatgina belgilangan sanada ijro etilishi mumkin bo‘lgan opsion turi.

Chet el valyutalarini diversifikatsiya qilish – bir vaqtning o‘zida bir nechta chet el valyutasida rezervlar tashkil qilish tushuniladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Bobaqulov T.I., Abdullaev O‘.A. Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari. Darslik. T.:Iqtisod-Moliya. 2019. 324 b.
2. Красавина Л.Н. Международные валютные, кредитные и финансовые отношения. Учебник М.: Юрайт. 2016. 543 с.
3. Моисеев С.Р. Центральный банк и политика валютного курса: Учебное пособие. М.: Дело, 2017. 624 с.
4. Эскиндаров М., Звонова Е. Международные валютные отношения. Учебник. М.: КноРус, 2020. 542 с.
5. Эскиндаров М., Звонова Е. Международный кредит. Учебник. М.: КноРус, 2019. 430 с.
6. Эскиндаров М., Звонова Е. Мировые финансы. Учебник. М.: КноРус, 2019. 424 с.
7. Frederic S. Mishkin., Stanley G. Eakins. Financial markets and institutions. Pearson. 9th ed. 2018. 808 p.
8. Paul R. Krugman. Maurice Obstfeld, Marc Melitz. International economics:theory & policy/Paul R. Krugman, Maurice Obstfeld, Marc J. Melitz. 9th ed. Textbook. 2018. 782 p.
9. Лаврушин О.И. Деньги, кредит и банки. М.: Кнорус , 2016. 448 с.
10. Хасбулатов Р.И. Международные финансы. Учебник. М.: Юрайт, 2014. 567 с.

MUNDARIJA

KIRISH.....	3
--------------------	----------

1-BOB. JORIY VA SPOT VALYUTA OPERATSIYALARI

1.1. Xalqaro valyuta munosabatlari tushunchasi va uning asosiy funksiyalari.....	5
1.2. Joriy valyuta operatsiyalarining mohiyati va tasnifi.....	13
1.3. Spot valyuta operatsiyalarining mohiyati va amalga oshirish xususiyatlari.....	18
1.4. Valyuta mavqeining mohiyati va turlari.....	23
1.5. Spot shartlari asosida kross-kurslarni hisoblash.....	27

2-BOB: KAPITAL HARAKATI BILAN BOG‘LIQ VALYUTA OPERATSIYALARI

2.1. Kapital harakati bilan bog‘liq ayrim valyuta operatsiyalarini amalga oshirishdagi umumiy qoidalar.....	31
2.2. Kapital harakati bilan bog‘liq valyuta operatsiyalari amalga oshirish...33	

3-BOB. FORWARD VALYUTA OPERATSIYALARI

3.1. Forward valyuta operatsiyasining mohiyati va asosiy jihatlari.....	38
3.2. Forward bo‘yicha hisob-kitob sanalari.....	41
3.3. Valyuta bozorida forward kursining aniqlanishi.....	44

4-BOB. FYUCHERS SHAKLIDAGI VALYUTA OPERATSIYALARI

4.1. Fyuchers valyuta operatsiyasining mohiyati va o‘ziga xos xususiyatlari.....	47
4.2. Fyuchers bozori va uning iqtisodiyotdagi roli.....	50

5-BOB. OPSION SHAKLIDAGI VALYUTA OPERATSIYALARI

5.1. Opsion valyuta operatsiyasining mohiyati va turlari.....	53
5.2. Opsion bahosini aniqlash.....	55
5.3. Opsionning afzallik va kamchiliklari.....	61

6-BOB. VALYUTAVIY SVOP OPERATSIYALARI

6.1. Valyuta operatsiyalari mohiyati va ularning klassifikatsiyasi.....	64
6.2. Valyuta birjasining savdo tizimi.....	67

7-BOB. NAQD PUL (VALYUTA) O‘TKAZMALARI VA ULARNI AMALGA OSHIRISH TARTIBI

- 7.1. Xalqaro pul o‘tkazmalari mohiyati va mazmuni.....71
7.2. Naqd pul (valyuta) o‘tkazmalari turlari va tariflari.....73

8-BOB. XALQARO TO‘LOV KARTALARI VA ULARDAN FOYDALANISH TARTIBI

- 8.1. Xalqaro to‘lov kartalarining turlari va ishlash mexanizmi.....81
8.2. Xalqaro to‘lov kartalarini ochish va undan foydalanish imkoniyatlari...86

9-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARNING AKKREDITIV SHAKLI

- 9.1. Xalqaro hisob-kitoblarning akkreditiv shaklini mohiyati va turlari.....91
9.2. Akkreditivlar bo‘yicha hisob-kitoblar.....97

10-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARNING INKASSO SHAKLI

- 10.1. Xalqaro hisob-kitoblarni inkasso shaklining mohiyati.....103
10.2. Mamlakatimizda inkasso topshiriqnomalari bo‘yicha hisob-kitoblar.107

11-BOB. XALQARO HISOB-KITOBLARDA TO‘LOV TOPSHIRQOMASI VA CHEKLARDAN FOYDALANISH

- 11.1. Bankning pul o‘tkazmasi, bo‘nak shaklidagi va ochiq hisobvara q bo‘yicha hisob-kitoblar.....113
11.2. Mamlakatimizda to‘lov topshiriqnomalari bilan hisob-kitoblar.....116
11.3. Veksellar va cheklardan foydalangan holda hisob-kitoblarni amalga oshirish.....120

12-BOB. XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARIDA TO‘LOV BALANSINI BOSHQARISH

- 12.1. To‘lov balansining iqtisodiy mohiyati va taqdim etish shakllari.....123
12.2. To‘lov balansining tarkibi hamda ularga xos xususiyatlar.....125
12.3. To‘lov balansi va unga davlat aralashuvi, xato va o‘tkazib yuborishlar.....135
12.4. Mamlakat to‘lov balansining makroiqtisodiy modeli.....136
12.5. To‘lov balansiga ta’sir etuvchi omillar va uni tartibga solishning asosiy usullari.....139
Asosiy tushunchalar.....143
Adabiyotlar ro‘yxati.....157

ISBN 978-9943-13-904-6



9 789943 139046